

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/04.06.2020. FIL.113.02
RAQAMLI ILMUY KENGASH**

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ISRAILOV G‘AYRAT BOYZOQ O‘G‘LI

UO‘K: 821.512.133.09-1

**SAKKOKIY ADABIY MEROSSI VA POETIK MAHORATI
10.00.02 – O‘zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI**

Ilmiy rahbar: Soatova Nodira Isomitdinovna
filologiya fanlari doktori, professor

JIZZAX – 2024

MUNDARIJA:

KIRISH.....	3
I BOB. SAKKOKIY DEVONI JANRIY TARKIBI VA MAVZU QAMROVI	
1.1.§.Shoir adabiy merosi manbalari va ko‘lami.....	12
1.2.§.Sakkokiy devonidagi hamd va na’tlarning badiiy talqini.....	28
Bob bo‘yicha xulosalar.....	49
II BOB. TURKIY SHE’RIYAT AN’ANALARINING SAKKOKIY IJODIDAGI BADIY SINTEZI..... 50	
2.1.§. Obrazlar tizimida majoziy tasvir.....	50
2.2.§.Lirik qahramon timsolida fikr va tuyg‘u uyg‘unligi.....	71
Bob bo‘yicha xulosalar.....	87
III BOB. SAKKOKIY SHE’RIYATIDA BADIY TAFAKKUR VA MAHORAT MASALALARI..... 89	
3.1. §. Ijodkor g‘azallarining badiiyatiga oid o‘ziga xoslik.....	89
3.2. §. Qasidalarda badiiy obrazning poetik tahlili.....	105
Bob bo‘yicha xulosalar.....	120
XULOSA.....	122
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	125

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo adabiyotshunosligida mumtoz so‘z san’atkorlari ijodi muhim ahamiyat kasb etgani bois, ularning badiiy-estetik tafakkur olami, poetik mahoratini aniqlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Muayyan san’atkor devonini bir butunlikda mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, shoir ijodiy niyatini uning yaratiqlari misolida ochib berish, ijodkor adabiy merosining tutgan o‘rnini belgilashda poetik mahorati masalalari doirasida yondashish tamoyillariga talab ortib bormoqda. Ayniqsa, mumtoz adabiyot namoyandalari asarlarida muallif badiiy tafakkuri va poetik mahoratini, uning dunyoqarashi, ma’rifiy, diniy-tasavvufiy va ijtimoiy-irfoniy masalalarga munosabati bilan bog‘lab, ijodkor yashagan davrda mavjud muhim ijodiy an’analarga asoslash dolsarb masalalardan hisoblanadi.

Jahon adabiyotshunosligida har bir milliy adabiyotda o‘ziga xos o‘rin tutadigan va uning tadrijiy takomilini belgilashda alohida ajralib turadigan yetakchi ijodkorlar adabiy merosini har tomonlama o‘rganish, ularning ijodiy individualligini belgilash borasida bir qator ustuvor yo‘nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ya’ni ma’lum bir shoir ijodi poetikasini tekshirish uchun uning devoni kompozitsiyasi va janriy tarkibini muallif ijodiy olami, xususan, lirk qahramon tasvirida fikr va tuyg‘u uyg‘unligi, majoziy tasvir va badiiy g‘oya xususiyatlarini o‘rganish va tadqiq etishga alohida diqqat qaratilmoqda.

So‘nggi yillarda o‘zbek adabiyotshunosligida mumtoz adib-u allomalarimiz qoldirgan boy madaniy merosni o‘rganish, uni keljak avlodlarga yetkazish muhim masala hisoblanib, ajdodlarimiz qoldirgan ilg‘or an’analar va umuminsoniy qadriyatlar jamiyatimizning bugungi taraqqiyoti va kelajagi yo‘lida xizmat qilmoqda. “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilish bugungi kunda dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holda tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar

chiqarish katta ahamiyatga ega”¹. Sakkokiy adabiy merosining chuqur o‘rganilishi uning adabiyotimiz tarixidagi va ma’naviyatimiz rivojidagi o‘rni hamda ahamiyatini belgilashda ham muhim ilmiy-amaliy qiymatga ega. Shu ma’noda, Sakkokiyning rang-barang adabiy merosi va poetik mahoratini baholash, adabiyotshunosligimizning yangicha tamoyillari asosida yoritib berish ayni kunning zarurati hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish va targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarorlari kabi me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darjasи. Temuriylar davri o‘zbek mumtoz qasidanavislik asoschisi sanalgan shoir Sakkokiy hayoti va faoliyati xususida juda oz ma’lumotlar saqlanib qolgan, nimagadir uning ijodiga adabiyotshunos olimlar tomonidan hali-hanuzgacha yetarlicha e’tibor qaratilmagan. Sakkokiyning to‘liq devoni bizgacha yetib kelmagan, uning devonining ikkita noto‘liq, deyarli bir xil

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigi // Xalq so‘zi. 2018-yil, 8-avgust.

nusxasi mavjud: Britaniya Turkiy qo‘lyozmalar fondida Or.2079 raqami ostida, ikkinchi nusxasi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida (1937-yil Shoislom kotib tomonidan ko‘chirilgan nusxa) 7685 raqami bilan qayd etilgan². Muhim bir manba sifatida ta’kidlash lozimki, Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” va “Muhokamat ul-lug‘atayn”³ va shoir Yaqiniyning “O‘q va yoy” asarida Sakkociy haqida qisqacha ma’lumot bor.

XX asr adabiyotshunoslida Mavlono Sakkociy hayoti va ijodi, xususan, uning badiiyat namunalari adabiyotshunos olim Fitratning “O‘zbek adabiyoti namunalari”, folklorshunos H.Zaripovning “Navoiy zamondoshlari” asarlari orqali kitobxonlarga yetkazildi. Sakkociyning hayoti va ijodiga oid ma’lumotlar N.Mallayevning “O‘zbek adabiyoti tarixi”, R.Vohidov, H.Eshonqulovning “O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi”, N.Rahmonovning “O‘zbek adabiyoti tarixi” (Eng qadimgi davrlardan XV asrning birinchi yarmigacha) darslik va o‘quv qo‘llanmalarida shoir hayoti va ijodi tahlili xususida atroflicha to‘xtalishga harakat qilingan. Atoqli adabiyotshunos olima S.G‘aniyevaning “Mavlono Sakkociy devonining Anqara nashri xususida”, E.Ahmadxo‘jayevning “Sakkociy qasidalari”, M.Ergashxo‘jayevning “Sakkociy va uning devoni haqida”, M.Hasanovaning “Sakkociy (Sayroniyimi? Sabroniy?)”⁴ kabi maqolalarida shoir ijodining ayrim tomonlariga e’tibor qaratishgan. “Navoiyning nigohi tushgan”, “Hayot vasfi” kitoblarida Sakkociyning g‘azal va qasidalari namunalari keltirilgan

² Qarang. Catalogue of the Turkish Manuscripts in the British Museum by Charles Rien, Ph. D. London, 1888; Ergashxo‘jayev M. Sakkociy va uning devoni haqida // O‘zbek tili va adabiyoti, Fan, 2005. №8. – B.111; Sakkociy devoni. O‘zSSR Fanlar akademiyasi. Sharqshunoslik instituti. Qo‘lyozmalar fondi. Inv.7685.

³ Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik. 13-tom. Majolis un-nafois. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. –T.: Fan, 1997. –B.3-4; Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami. Muhokamat ul-lug‘atayn. 20 jildlik, 16-jild. –T.: Fan, 2000. –B.35-36.

⁴ Mallayev N. O‘zbek adabiyoti tarixi. V томик, I том. –T.: O‘qituvchi, 1965. –B.311-322.; Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi (Eng qadimgi davrlardan XVI asr oxirigacha). –T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi, 2006. –B. 178-184; Rahmonov N. O‘zbek adabiyoti tarixi (Eng qadimgi davrlardan XV asrning birinchi yarmigacha). O‘quv qo‘llanma. –T.: Sano-standart, 2017. –B. 473-484-530; G‘aniyeva S. Mavlono Sakkociy devonining Anqara nashri xususida. // O‘zbek filologiyasida matnshunoslik va manbashunoslik muammolari. –Namangan, 2016. –B. 9-11; Ahmadxo‘jayev E. Sakkociy qasidalari. Adabiy merosi, 1992. №4 (62), – B. 16-23; Ergashxo‘jayev M. Sakkociy va uning devoni haqida // O‘zbek tili va adabiyoti. Fan, 2005. № 8.– B.110-112.

va shoirning “Tanlangan asarlar” va “Mavlono Sakkokiy devoni”⁵ nashr qilingan. S.Bobokalonov va M.Hasanova dissertatsiyalar⁶ida qisman shoir qasidalariga to‘xtalingan bo‘lsa-da, Sakkokiy adabiy merosi va uning poetik mahorati yaxlit tarzda monografik, yo‘sinda tadqiq etilmagan. Hattoki, mustaqillik davridagi darsliklar va majmualarimizda ham Sakkokiy hayoti va ijodi e’tibordan chetda qolib keldi. Masalan, 5-10-sinf uchun tayyorlagan “Adabiyot”⁷ darsliklarida ham eng qadimgi yozma manbalardan XX asrgacha adabiyotimizning barcha vakillari hayoti va ijodi izchil yoritilgani holda Sakkokiy ijodiga, loaqlal biror sahifa ajratilmagan. Bizningcha, bu holat ham shoir hayoti va ijodi haqida ma’lumotlarning o‘quvchilar uchun yetarli emasligini ko‘rsatadi. Holbuki, Sakkokiyning o‘ziga xos uslubi, badiiy mahorat qirralarini o‘rganish, shuningdek, shoir adabiy merosining o‘zbek adabiyoti tarixidagi o‘rni masalasiga aniqlik kiritish davr talabidir. Tadqiqotda Sakkokiy devoni, janriy tarkibi, mavzu qamrovi, g‘azaliyotining g‘oyaviy-badiiy jihatlari, qasidanavislikda Sakkokiy ijodining o‘rni, shoirning badiiy tasvir vositalaridan foydalanishdagi poetik mahorati va uslubiga asosiy e’tibor qaratildi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalar bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasining “O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb muammolari” yo‘nalishi rejasiga muvofiq amalga oshirilgan.

⁵ Sakkokiy. Tanlangan asarlar. Nashrga tayyorlovchi Quvomiddin Munirov.–T.: Davlat badiiy adabiyot, 1958; Navoiyning nigohi tushgan. –T.: Adabiyot va san’at, 1986. –B.167-184; Hayot vasfi. G‘azallar, qasida. Nashrga tayyorlovchi Quvomiddin Munirov. –T.: Adabiyot va san’at, 1988. –B.227-284; Mavlono Sakkokiy devoni. Nashrga tayyorlovchi M.Hasanova. –T.: Mumtoz so‘z, 2017; Mavlono Sakkokiy [Matn]: devon / nashrga tayyorlovchilar: Jo‘rayev J., Jo‘rayev J., Xatamov O‘. –T.: Bookmany print, 2024.

⁶Bobokalonov S. Xoja Ismat va turkiygo‘y zamondoshlari she’riyatining janrlari, uslubi, badiiyati. Filol.fan.nomz.diss. – Buxoro., 2012; Xasanova M. XV asr turkiy she’riyatida qasida janri. Filol.fan.b.fals.dokt. ...diss. – Samarqand, 2018.

⁷ Adabiyot. 5-sinfi uchun darslik. I qism / Ahmedov S., Qosimov B., Qo‘chqorov R., Rizayev Sh. – T.: Sharq, 2020; Adabiyot. 6-sinf uchun darslik / Mirzayeva Z., Djalilov K. – T.: Respublika ta’lim markazi, 2022; Adabiyot. 7-sinf uchun darslik / Mirzayeva Z., Djalilov K. – T.: Respublika ta’lim markazi, 2022; Adabiyot. 8-sinfi uchun darslik / Olimov S., Ahmedov S., Qo‘chqorov R. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019; Adabiyot. 9-sinfi uchun darslik. / Yo‘ldoshev Q., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. [Mas’ul muharrir: V.Rahmonov]. Qayta ishlangan 4-nashri. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2019. Adabiyot. 10-sinf uchun darslik / Mirzayeva Z., Djalilov K. – T.: Respublika ta’lim markazi, 2022; Adabiyot. 11-sinf: darslik-majmua / To‘xliyev B., [va boshq.], – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2018.

Tadqiqotning maqsadi Mavlono Sakkokiy devonining janriy tarkibi, mavzu qamrovi, shoir g‘azaliyotining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, qasidanavislikdagi poetik mahorati, ijodkor adabiy-estetik olamiga xos qirralari asosida badiiy mahoratini aniqlash, mumtoz adabiyot rivojidagi o‘rnini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida Sakkokiy adabiy merosining o‘rganilishi, shoirning hamd va na’t qasida yozish an’anasidagi o‘rni, mavjud an’anaga kiritgan yangiliklari hamda rivojlantirishdagi hissasini baholash, adabiy-estetik, ma’rifiy qarashlarini yoritib berish;

Sakkokiy lirkasining obrazlar tizimida majoziy tasvir badiiyat qirralarini tadqiq etish va lirk qahramon tasvirida fikr-tuyg‘u uyg‘unligi jihatlarini yoritish hamda an’anaviy poetik timsollarning yangicha badiiy talqinini ochib berish;

shoir poetikasi mavqeyi, g‘azallaridagi she’riy san’atlar xilma-xilligi, tasvirlash tamoyillari, badiiy tasvir vositalarini qo‘llashdagi o‘ziga xos original uslubini dalillash;

qasidanavislik an’analari va shoir qasidalari uslubining o‘ziga xos xususiyatlarini yoritish, qasidalarida badiiy tasvir vositalarining qo‘llanishida shoir mahoratini asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida “Navoiyning nigohi tushgan”, “Hayot vasfi” kitoblaridagi Sakkokiyning g‘azal va qasidalari hamda shoirning “Tanlangan asarlari”, “Mavlono Sakkokiy devoni” tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini mumtoz adabiyot taraqqiyotida Sakkokiy adabiy merosi va uning poetik mahorati o‘rnini yoritish, shoir adabiy merosini kompleks o‘rganish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tarixiy-qiyosiy, tipologik, psixologik, analitik-sintetik hamda statistik tahlil usullaridan foydalilanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Sakkokiy ijodining janriy tarkibi, shoirning hamd va na’t qasidalarida xalq she’riyati an’analariiga ergashishi, mavjud an’analarga kiritgan diniy-ma’rifiy, falsafiy-tasavvufiy va axloqiy qarashlar, ilohiylikning uyg‘unlashuvni hamda

ijodkor yangicha tafakkuri badiiy mushohadasida milliy ruh, irfoniy mazmun, badiiy-estetik tafakkur bilan bog‘liq poetik yangiliklar, obrazlar tizimining g‘oyaviy-funksional tabiatini tasvirlash tamoyillari, ma’rifiy qarashlarining o‘ziga xosligi isbotlangan;

Sakkokiy g‘azaliyotining rang-barangligi, g‘oyaviy-badiiy jihatlari poetik obrazlar tizimida, xususan, majoziy tasvirda folklorning poetik ta’sir kuchini, lirk qahramonning o‘ziga xos iymon-e’tiqod, yuksak ma’naviyatli, botiniy, zohiriyl siyratli xarakter xususiyatlarining mushtarakligi, inson ruhiyati va qalb kechinmalari aniqlangan;

Shoir g‘azallari qahramon tasvirida fikr va tuyg‘u uyg‘unligi, g‘oya, an’naviy poetik timsollarning yangicha badiiy tasvir haqqoniyligi, obraz yaratish jihatlarini yoritish mahorati kabi ijodkor laboratoriyasiga xos xususiyatlar ochib berilgan;

Shoir badiiy mahoratini ko‘rsatishda g‘azallarida she’riy san’atlarning o‘ziga xos original qo‘llanishi yaqqol namoyon bo‘lishi hamda qasidanavislik an’analari, qasida yaratishda shoir uslubining o‘ziga xos yangi so‘z tanlash mahorati mazmun va shakl uyg‘unligi, uslub individualligining lirk kechinma tabiatini bilan bog‘liq xususiyatlari, badiiy tasvir vositalaridan foydalanishda shoir mahoratining o‘ziga xosligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Sakkokiy devoni janriy tarkibi, mavzu qamrovi, shoir adabiy merosi manbalari tadqiq va tahlil etish orqali shoir poetikasi mavqeyi, ko‘lami, hamd, na’t qasidalarining ijodiy o‘ziga xosligi, poetik tamoyillari ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan;

shoir g‘azaliyotida poetik mahorat, obrazlar tizimida majoziy tasvir, lirk qahramon timsolida fikr va tuyg‘u uyg‘unligida badiiyatning mukammalligini ta’minlagan omillar aniqlangan;

o‘zbek mumtoz she’riyati taraqqiyotida shoir badiiy-estetik tafakkur tadrijining omillari, g‘azallari misolida badiiy g‘oya va tasvir mutanosibligi haqqoniyligi yoritilgan;

mumtoz she’riyatda Sakkokiy ijodining tutgan o‘rni, she’riy san’at va poetik tasvir vositalarini qo‘llashdagi o‘ziga xos original uslubi, qasidanavislik an’analari va shoir uslubining o‘ziga xosligi, ijodkor mahorati ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan yondashuv va usullar, unda foydalanilgan nazariy ma‘lumotlarning ishonchli ilmiy va badiiy manbalardan olinganligi, chiqarilgan xulosalarning janr tarkibi va mavzu qamrovi, turkiy she’riyat an’analarining shoir ijodidagi badiiy sintezi, she’riyatida badiiy tafakkur va mahorat masalalari tarixiy-qiyosiy, tipologik, psixologik, analitik-sintetik hamda statistik tahlil metodlari bilan asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Sakkokiyning adabiy biografiyasi, devoni tuzilishi va qo‘lyozma manbalari, g‘azallarining mavzu ko‘lami va badiiyati, uning ijodida qasida janridagi she’rlarining o‘rnini haqida chiqarilgan xulosalarning kelgusi tadqiqotlar uchun nazariy manba bo‘lishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Sakkokiy adabiy merosi va uning poetik mahoratiga oid materiallardan adabiyot tarixi va adabiyotshunoslikka oid maxsus kurslar o‘tishda, umumta’lim maktablarida dars mashg‘ulotlari olib borishda, o‘quv qo‘llanmalar, darslik va majmular yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sakkokiy adabiy merosi va uning poetik mahorati tadqiqi natijalari asosida:

Sakkokiy ijodining janriy tarkibi, shoirning hamd va na’t qasidalarida xalq she’riyati an’analariga ergashishi, mavjud an’analarga kiritgan diniy-ma’rifiy, falsafiy-tasavvufiy va axloqiy qarashlar, ilohiylikning uyg‘unlashuvi hamda ijodkor yangicha tafakkuri badiiy mushohadasida milliy ruh, irfoniy mazmun, badiiy-estetik tafakkur bilan bog‘liq poetik yangiliklar, obrazlar tizimining g‘oyaviy-funksional tabiatini tasvirlash tamoyillari, ma’rifiy qarashlarining o‘ziga xosligi, shoir g‘azaliyotining rang-barangligi, g‘oyaviy-badiiy jihatlari poetik obrazlar tizimida, xususan majoziy tasvirda folklorning poetik ta’sir kuchini, lirik qahramonning o‘ziga xos iymon-e’tiqod, yuksak ma’naviyatli, botiniy, zohiriy

siyratli xarakter xususiyatlarining mushtarakligi, inson ruhiyati va qalb kechinmalari haqida chiqarilgan xulosalaridan 2018-2020-yillar mobaynida bajarilgan PZ-20170925213: “O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanayotgan qo‘lyozma devonlar katalogini tuzish” nomli amaliy loyihani amalga oshirishda foydalanilgan (O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining 2024-yil 26-fevraldaggi 117-sun ma’lumotnomasi). Natijada loyiha yangi ilmiy-nazariy ma’lumotlar bilan boyitilishiga erishilgan;

Shoir g‘azallari qahramon tasvirida fikr va tuyg‘u uyg‘unligi, g‘oya, an’naviy poetik timsollarning yangicha badiiy tasvir haqqoniyligi, obraz yaratish jihatlarini yoritish mahorati kabi ijodkor laboratoriyasiga xos xususiyatlari, badiiy mahoratini ko‘rsatishda g‘azallarida she’riy san’atlarning o‘ziga xos original qo‘llanishi yaqqol namoyon bo‘lishi hamda qasidanavislik an’analari, qasida yaratishda shoir uslubining o‘ziga xos yangi so‘z tanlash mahorati mazmun va shakl uyg‘unligi, uslub individualligining lirik kechinma tabiatini bilan bog‘liq xususiyatlari, badiiy tasvir vositalaridan foydalanishda shoir mahorati misollar tahlili orqali izchil yoritilgan o‘rinlardan 2021-2022 yillarda bajarilgan IL-402104155-raqamli “Haft shuar” majmuasini o‘rganish orqali XIX asr Xorazm vohasining milliy-ma’naviy merosini tadqiq qilish va (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron ilovasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihasida foydalanilgan (Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filialining 2024-yil 19-martdaggi 274-sun ma’lumotnomasi). Natijada loyihadagi yetakchi tipologik hodisaning mohiyatini ilmiy aniqlashda asosiy tamoyil vazifasini bajargan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 12 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 7 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-nazariy konferensiyalarda qilingan ma’ruzalarda aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 20 ta ilmiy ish nashr qilingan bo‘lib, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini

chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda, jumladan, xorijiy jurnallarda 2 ta, respublika jurnallarida 6 ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanimanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, hajmi 125 sahifadan iborat.

I BOB. SAKKOKIY DEVONI JANRIY TARKIBI VA MAVZU QAMROVI

1.1.§. Shoir adabiy merosi manbalari va ko‘lami

XV asrda ilm-fan, madaniyat, shu jumladan, san’at va adabiyot yuksak darajada rivojlanganligi ko‘plab ilmiy manbalarda yoritilgan. Buning asosiy omillaridan biri hukmdor tabaqaning bu sohaga alohida e’tibor bilan qaraganligidir. Davlatshoh Samarqandiy Amir Temur atrofidagi ilmiy-adabiy muhit haqida ma’lumot berib, uning eng yaqin kishilari qatorida Bisotiy Samarqandiy, Ismat Buxoriy, Lutfulloh Nishopuriy, Haydar Xorazmiy kabi shoirlarni ham tilga oladi⁸.

XV asr I yarmidagi turkiy she’riyat taraqqiyotini monografik yo‘sinda tadqiq etgan olim E.Rustamov bu davr adabiyoti vakillari Sa’diy Sherazi, Hofiz, Xusrav Dehlaviy kabi fors-tojik adabiyotining yirik vakillari bilan bir qatorda “...xalq og‘zaki ijodiga yuksak ixlos bilan qarashgan”ligini alohida qayd etsa⁹, adabiyotshunos olim N.Mallayev: XV asrning birinchi yarmida Sakkokiy, Atoiy, Yaqiniy va nihoyat Lutfiy kabi zabardast g‘azalchilarni yetishtirdi. Ularning har biri g‘azalchilikda o‘ziga xos xususiyat va mavqega ega edi¹⁰ deya e’tirof etadi.

Darhaqiqat, mumtoz adabiyotimiz tarixining bu davrida turkiygo‘y shoir Mavlono Sakkokiy va u yaratgan devonning ham alohida o‘rni bor. Shoir “...qoldirgan o‘lmas merosi bugungi kunda ham ma’naviyatimizni yuksaltirish, yoshlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi”¹¹ deb o‘ylaymiz. Zero, o‘rta asr ijodkorlaridan mavlono Lutfiy, Atoiy, Gadoiylar kabi Sakkokiy ham turkiy – o‘zbek adabiyoti, tili va badiiy-estetik tafakkuri taraqqiyotiga benihoya katta hissa qo‘shgan ijodkorlardan biri hisoblanadi.

⁸ Jo‘rayev O. Mahmud Zamashshariy. – T.: Tafakkur, 2011. – B. 68.

⁹ Рустамов Э. Узбекская поэзия в первой половине XV века. – Москва: Изд. Восточной литературы, 1963. Стр – 145.

¹⁰ Mallayev N. O‘zbek adabiyotida g‘azal va uning rivojida Navoiyning roli haqida // O‘zbek adabiyotshunosligi mumtoz antologiyasi. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2016. – B. 96.

¹¹ Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan quramiz. –T.: O‘zbekiston, 2017. –B. 178.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, “Nazmning ilk namunalari yaratilgan kezlardayoq she’riyat haqida fikr aytilgani, unga baho berilgani isbot talab qilmaydi. Biroq she’rshunoslik ilmning alohida yo‘nalishi sifatida nisbatan keyinroq shakllangani, taraqqiy etgani ham rost. Adabiyotshunosligimizda yuksak saviyali maxsus ilmiy-nazariy asarlarning keyingi zamonlarda yaratilgani ham buni tasdiqlaydi. Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balogs‘a”, Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon”, “Majolis un-nafois” Zahiriddin Muhammad Boburning “Risolayi aruz” asarlari she’rshunosligimizning ana shunday mumtoz namunalaridandir”¹².

XV asrning birinchi yarmida yashab o‘tgan turkiygo‘y shoirlar adabiyot, san’at va madaniyatni boyitishga munosib hissa qo‘shgan bo‘lib, ular nazmiyotida o‘sha davr an’naviy she’r navlari keng qo‘llanilgan. Ayniqsa, g‘azalchilikka murojaat ko‘proq ko‘zga tashlanadi. Jumladan, mavlono Lutfiy, Sakkokiy, Atoiy, Gadoiy, Muhammad Temur Bug‘ro, Shayx Ahmad Taroziy kabi turkiygo‘y shoirlar ijodida adabiy ta’sir va aloqalar tufayli g‘azal, qasida, musammamatning ayrim mustaqil namunalari paydo bo‘ldi. “O‘z zamonasida mashhur bo‘lgan bu davr shoirlaridan Lutfiy, Haydar Xorazmiy, Sakkokiy, Durbek, Gadoiy o‘zbek g‘azalchiligi taraqqiyotiga, badiiy so‘z san’atiga qo‘shgan munosib hissasi bor”¹³ligi sababli g‘azal lirikaning yetakchi janrlaridan biriga aylangan bo‘lsa, “Ahmad Taroziy, Lutfiy, Sakkokiy, Gadoiy kabi adabiyotshunos va shoirlar qasida janri rivojida muhim rol o‘ynadilar”¹⁴.

Ijodiy ta’sir, an’ana va novatorlik hamisha badiiy ijod va adabiy-estetik tafakkur rivojining muhim va zaruriy bir sharti, qudratli omili bo‘lib xizmat qilishini jahon adabiyoti taraqqiyoti to‘la tasdiqlaydi¹⁵. Shu bois, adabiyotshunoslikda an’ana, vorisiylik, badiiy mahorat, devon tartib berishning xos xususiyatlari, janriy xilma-xillik masalalarini muayyan ijodkor asarlari asosida

¹² Jabborov N. Zamon. Mezon. She’riyat. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, – 2015. – B. 63.

¹³ Rafiddinov S. Majoz va haqiqat. – T.: Fan, 1995. – B. 3-4.

¹⁴ Aslonova H. XV asr birinchi yarmidagi o‘zbek she’riyati va Gadoiy poetikasi. file:///C:/Users/Admin/Downloads/10.pdf. – B. 26.

¹⁵ Qosimov U. Adabiy-estetik tafakkur tadriji: an’ana, vorisiylik, o‘ziga xoslik. Filol.fan. d-ri diss.– T.: 2020. – B. 82.

yoritib berish muhim ekan, shoir ijodini keng qamrovda o‘rganish bugungi adabiyotshunoslik oldida turgan muhim vazifadir.

Mamlakatimizda “xalqimizning qadimiylarini tarixi va boy madaniyatini tiklash, buyuk allomalarimiz, aziz-avliyolarimizning ilmiy, diniy va ma’naviy merosini har tomonlama chuqur o‘rganish va targ‘ib etish, muqaddas qadamjolarini obod qilish, yosh avlodni ularning ezgu an’analari ruhida tarbiyalash bo‘yicha ulkan ishlar amalga oshirildi va izchil davom ettirilmoqda”¹⁶. Chunki adabiyot va san’at milliy ma’naviyatning asosi, muayyan davr kesimidagi adabiy jarayon ko‘zgusidir.

Shunday ekan, o‘zbek adabiyotiga dilbar g‘azallari bilan salmoqli hissa qo‘shtigan, shuningdek, o‘zbek qasidachiligining asoschilaridan biri bo‘lish bilan birga o‘zidan devon qoldirgan Mavlono Sakkokiy haqida juda kam ma’lumotga ega ekanligimiz ushbu kamtarona tadqiqotimizning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. Shu o‘rinda, devon tartib berish qonun-qoidalari haqida qisqacha to‘xtalib o‘tish joiz. Adabiyotshunoslik tarixidan yaxshi ma’lumki, devon tuzish, asosan, X-XI asrlardan boshlangan. Ye.E.Bertels “История персидско-таджикской литературы” asarida XI asr shoirlari Unsuriy, Farruxiy, Manuchehriy, Mas’ud Sa’di Salmon, Sanoiylarning to‘liq yoxud noto‘liq nusxada bizgacha yetib kelgan devonlari haqida atroflicha ma’lumot beradi. Bu davrdagi devonlarda asosiy o‘rinni qasida janri egallagan bo‘lib, g‘azalga esa kam e’tibor berilgan. Muallif faqat XI asrning ikkinchi yarmi va XII asr boshlarida yashab ijod etgan Sanoiy ijodida g‘azal alohida poetik janr sifatida rivojiana boshlaganligini ta’kidlaydi¹⁷. I.S.Braginskiy ham XI asr shoiri Hasan G‘aznaviy devoni yaratilishi bilan g‘azal janri devonlarda alohida bo‘lim sifatida o‘rin egallay boshlaganligini uqtirib o‘tadi¹⁸.

X-XII asrlarda shakllana boshlagan g‘azal XIII-XIV asrlarga kelib Sa’diy va Hofizlar ijodida o‘zining yuksak takomiliga erishdi. Buni A.Mirzoyev,

¹⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 24-maydagi PQ-2993-sон “Qadimiylarini saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori // Xalq so‘zi, 2017-yil 25-may.

¹⁷ Qarang: Бертелс Е.Э. Избранные труды. История персидско-таджикской литературы. – М.: ИВЛ, 1960. – Стр. 455.

¹⁸ Брагинский И.С. Из истории персидско-таджикской литературы. Избранные работы. – М.: Изд. Наука, 1972. – Стр. 169.

A.Hayitmetov, Yo.Is'hoqov, N.Mallayev, O.Nosirov, M.Mamatqulov kabi adabiyotshunos olimlar ham o‘z tadqiqot va maqolalarida ta’kidlab o‘tishgan. Sharq xalqlari adabiyotida g‘azalchilikning rivojlanishi bilan devon qat’iy bir shaklga ega bo‘la boshladi¹⁹. Shuningdek, professor Sh.Shomuhamedov ham Sa’diy “Kulliyoti”dagi she’rlarning qofiya va radifga qarab alfavit asosida Ali binni Ahmad binni Abubakr Besutun tomonidan joylashtirilganligini ta’kidlaydi²⁰.

Demak, Sharq xalqlari adabiyotida alifbo asosida devon tartib berish shundan so‘ng qat’iy bir qoidaga aylangan. Ayni paytda Sa’diygacha bo‘lgan shoirlarning devonlari ham shu qoida asosida qayta tuzila boshlagan. O‘zbek adabiyotida Lutfiy, Sakkokiy, Atoiy kabi shoirlar fors-tojik shoirlari ijodidagi an’analarni davom ettirganlari holda o‘zbek g‘azalchiligin muhim yutuqlar bilan boyitdilar. Ular o‘z asarlarining keng xalq ommasiga tezroq yetib borishini istar edilar. Shu istak faqat til tanlashdagina emas, adabiy janr tanlashda ham ahamiyatli bo‘ldi²¹. Bu shoirlar o‘z she’riy devonlarini tuzdilar va bu devonlarda, asosan, xalq ommasiga yaqin bo‘lgan g‘azal janri yetakchi o‘rin egallagan. Biz Sakkokiy devoni va uning o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rniga e’tiborni qaratamiz.

Biz Sakkokiy va u yashagan davr, uning adabiy faoliyati, shuningdek, uni XV asr o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rni haqida Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois”, “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarlaridagi qimmatli ma’lumotlardan bilishimiz mumkin. “Majolis un-nafois”da: Movarounnahrdindur: Samarqand ahli anga ko‘p mu’taqiddurlar va bag‘oyat ta’rifin qilurlar. Ammo faqir Samarqandda erkanda muarriflaridin har necha tafahhus qildimkim, aning natoiji tab’idin biror nima anglayin, ta’rif qilg‘onlaricha nima zohir bo‘lmadi. Barchadin qolsalar so‘zleri budurkim, Mavlono Lutfiyning barcha yaxshi she’rlari aningdurkim, o‘g‘urlab o‘z otig‘a qilibdur. Ul yerlarda bu nav’ o‘xhashi yo‘q, mazasiz mukobaralar gohi voqe’ bo‘lur²².

¹⁹ Karimova F. O‘zbek adabiyotida debocha .– T.: MUMTOZ SO‘Z, 2008. – B. 13

²⁰ Shomuhamedov Sh. Sa’diy Sheroyi. – T.: Fan, 1964. – B. 25.

²¹ Nosirov O. O‘zbek klassik adabiyotida g‘azal janrining shakllanishi va takomili. Filol.fan.nomz.diss. – T., 1968. – B. 49

²² Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik. 13-tom. Majolis un-nafois. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. – T.: Fan, 1997. – B. 59.

Xo'sh, Hazrati Navoiy nega bunday xulosaga kelgan? O'rni kelganda shuni qayd etish lozimki, Lutfiy Sakkokiy g'azallariga tatabbu bog'lagan. Jumladan, Lutfiy Sakkokiyning "Ol anga oyina" g'azaliga bog'lagan tatabbusida to'rt bayt bir oz o'zgargan holda tazmin qilingan. Va aytish joizki, Lutfiy ijodida shu kabi she'rlar ko'p bo'lganligi uchun bo'lsa kerak, Sakkokiyning muxlislari, oddiy she'rxonlar badiiy ijod qonuniyatlarini chuqur bilmaganliklari sababli, shunday fikrlarni bildirishganini, aslida bu gap asossiz ekanligini shu bois yuqorida qayd etgan. Chunki Lutfiy tatabbusida shoirning yuksak mahorati aks etgan bo'lib, zamonasining malik ul-kalomi darajasiga ko'tarilgan "... muqaddam turkiygo'y shuarodin, xoh Mavlono Lutfiy va xoh Mavlono Sakkokiykim, Movarounnahrda malik ul-kalom..."²³ining boshqalar she'rini o'zlashtirishi hech mumkin emas edi. Shu sababli uning she'rlarida Sakkokiy g'azalidagiga o'xshash tarzda yuzaga kelgan baytlarni tatabbu' qonuniyatları asosida va tazmin tatabbu' talablari bo'yicha baholash lozimligini bilmaslikda deb hisoblagan, Hazrati Navoiy "Xutbai davovin"da: Va uyg'ur iboratining fusahosidin va turk alfozining bulag'osidin Mavlono Sakkokiy va Mavlono Lutfiykim, birining shirin ab'yoti ijтиҳоди Turkistonda beg'oyat va birining latif g'azaliyoti intishiori Iroq va Xurosonda benihoyatdurur, ham devonlari mavjud bo'lg'ay²⁴, deya ikkala shoir ijodiga yuqori baho bergan.

"Muhokamat ul-lug'atayn"da esa munaqqid: Temur Ko'ragon zamonidin farzandi xalafi Shohruh Sultonning zamonining oxirigacha turk tili bilan shuaro paydo bo'ldilar. Va ul Hazratning avlod va ahfodidin ham xush tab' salotine zuhurga keldi: shuaro Sakkokiy va Haydar Xorazmiy va Atoiy va Muqimiy va Yaqiniy va Amiriylar Gadoiydeklar²⁵, – deydi. Shuningdek, shoir Yaqiniyning "O'q va yoy" asarida: "Sakkokiykim, turk shoirlarining mujtahididur"²⁶

²³ Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. 13 tom. Majolis un-nafois. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. – T.: Fan, 1997. – B. 64.

²⁴ Qarang. Navayi A. Hutbe-i devanin. Parij Milliy kutubxonasida saqlanuvchi qo'lyozma nusxasi, 3 b; // Navoiyning nigohi tushgan. – T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986-yil, 168-bet.

²⁵ Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami. Muhokamat ul-lug'atayn. 20 jildlik, 16-jild. – T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, 2000. – B. 32.

²⁶ Yaqiniy. O'q va yoy munozarasi // Navoiyning nigohi tushgan. – T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986. – B. 318.

(g‘ayratlisi) deb ta’riflanishi, uning o‘z zamonasining zabardast shoirlaridan biri ekanligini bildiradi.

Shunday qilib, hazrat Alisher Navoiy aytganlaridek, Mavlono Sakkokiy ajoyib lirik she’rlar va betakror qasidalar ijod etgan hamda o‘zbek mumtoz adabiyotining ravnaq topib, gullab-yashnashiga ma’lum bir hissa qo‘shtan buyuk shoirlardan biri sifatida tarixda muhrlandi.

Sakkokiy XIV asr ikkinchi yarmi, to‘g‘rirog‘i oxirgi choragida tug‘ilgan va XV asrning birinchi yarmida Ulug‘bek hukmronligida yashab, ijodiy kamolotga erishgan shoirdir.

Sakkokiy shoirning taxallusi bo‘lib, tug‘ilgan yeri, yili ham noma’lum. Venger turkiyshunos olimi Yanos Ekmanning qayd etishicha, Sakkokiy XIV asrning ikkinchi yarmida tug‘ilgan va XV asrning birinchi yarmida vafot etgan. Sakkokiyning hayoti, asosan, Samarqandda o‘tgan. U ilk she’rlarini Amir Temur davrida yoza boshlagan bo‘lsa, ijodiy kamoloti Ulug‘bek saltanati yillariga to‘g‘ri keladi.

Sakkokiy – movarounnahrlik shoir. U temuriylar poytaxti Samarqandda yashab, ijod qilgan bo‘lsa-da, devonidagi:

Dasht elidin hoji Tarhonga yetushsa bu g‘azal,

Tark etar har baytiga osuda dunyosin Saroy²⁷

bayti uning boshqa yerlarda ham bo‘lganini ko‘rsatadi. Ammo bu baytdagi “dasht eli” Dashti qipchoqmi, Buxoro yaqinidagi Dashtakmi, Samarqandning Dashtaki bolosimi yoki boshqa biror joymi, aniq bir xulosani berish qiyin.

Sakkokiy shoirning adabiy taxallusi bo‘lib, uning asl nomi hamon ma’lum emas. Sakkokiy taxallusi “sakkok” (pichoqchi) so‘zidan olingan. Bunday ishora shoir hunarmand oilasidan yetishib chiqqan, deb faraz qilishga imkon beradi. Biroq X.K.Baranovning 2006-yili Moskvada “Живой язык” nashriyotida chop etilgan arab va rus tili lug‘ati (bu lug‘at 100.000 ta so‘z va so‘z birikmalarini o‘z ichiga

²⁷ Hayot vasfi. Sakkokiy. G‘azallar, qasida – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1988. –B.248 (Keyingi iqtiboslar shu asardan olinadi va beti qavs ichida beriladi).

olgan)da “Sakkun”²⁸ so‘zini “misdan tayyorlangan buyum” (чеканка) deb tarjima qilingan. Keyin esa “sikkaun” so‘zini keltirgan va 2 xil ma’noda bergen. Birinchi ma’nosи “tanga” (монета) bo‘lib, bunda mis tangalarga ishora bor, demak, Sakkokiyni mis tangalar bilan shug‘ullanuvchi sarrof bo‘lgan, degan fikr ham haqiqatdan yiroq emas. Ikkinchи ma’nosи esa, “Yo‘l” (tariqat yo‘li, izoh bizniki, I.G‘.) “Dar ul-sakkun” (полевая дорожка) ma’nosida kelishi, tabiiy.

Shariat jihatdan puxta bilimga, chuqur diniy savodga ega bo‘lgan Sakkokiyning tug‘ilgan yili ham aniq emas. Adabiyotshunos N.Mallayevning “O‘zbek adabiyoti tarixi” kitobida Sakkokiyning XIV asrning ikkinchi yarmida, ehtimol, o‘sha yuz yillikning oxirgi choragida tavallud topganligi qayd etiladi. Zabardast olim yuqoridagi fikrining tasdig‘i sifatida shoir devonida hijriy 810 (1407–1408) yilda Amir Temuring nabirasi Xalil Sultonga (1405–1409) bag‘ishlab bir qasida yozganligini ko‘rsatadi. Jumladan, o‘sha madhiyada quyidagi misralar mavjuddir:

Tarixqa sakkiz yuz dog‘i o‘n erdi-yu Qadr oqshomi.

Bir oy tug‘di dunyodakim mamlakatda xon erur²⁹.

Shu o‘rinda, aytish mumkinki, shoir tug‘ilgan joyi haqida, Mashhura Hasanovaning “Sakkokiy (Sayroniyimi? Sabroniy?!)” maqolasidagi ushbu fikrlarni keltiramiz: “Sayroniy” so‘zi arab alifbosida سیرانی – shaklida yozilsa, “Sabroniy” so‘zi – سبرانی shaklida yoziladi. Ya’ni “yo‘” va “be” harflarining bitta nuqta hisobiga farqlanishini hisobga olsak, bu so‘z qo‘lyozmada noto‘g‘ri yozilganligi (ya’ni, bir nuqta tushib qolganligi) oqibatida, “Sayroniy”ga “aylanib qolgan” bo‘lishi mumkin. Demak, shoir nafaqat Sabronda ma’lum vaqt yashagan, balki shu yerda tug‘ilgan va shuning uchun ham Sabroniy nisbasi bilan atalgan³⁰.

Lekin shunisi aniqki, Sakkokiyning ijodi Ulug‘bek davrida (1409 – 1449) kamol topdi. U Ulug‘bekni ma’rifatparvar shoh sifatida ulug‘laydi:

Jahondin ketti tashvish-u mabodiyi omon keldi,

²⁸ Большой арабско-русский словарь: В 2 т. – 11-е изд., стереотип. – М.: Живой язык, 2006. – Стр. 363.

²⁹ Sakkokiy devoni. O‘zSSR Fanlar akademiyasi. Sharqshunoslik instituti. “Qo‘lyozmalar fondida”. Inv.7685b. – B. 8–9.

³⁰ Hasanova M. Sakkokiy (Sayroniyimi? Sabroniy?) //Sharq yulduzi, 2011.–B.92

Xaloyiq, aysh eting, bu kun sururi jovidon keldi.
Tan erdi bu ulus barcha aningtek joni bor yo yo‘q,
BihAMDILLAH, o‘g‘on fazli bila ul tanga jon keldi.

(Hayot vasfi, 283-bet).

Adabiyotshunos olim Natan Mallayev o‘z qarashlarida Sakkokiy Ulug‘bekka bag‘ishlab yozgan qasidasini, chamasi 30 yoshlarida yozgan bo‘lishi kerak, deb taxmin qiladi. Bu haqida taniqli adabiyotshunos A.Hayitmetovning “Temuriylar davri o‘zbek adabiyoti” kitobida quyidagi fikrlar keltiriladi: Ulug‘bek saroyida eng obro‘li va nomdor o‘zbek shoiri, shubhasiz, Sakkokiy edi. Uning dirlabu lirik she’rlari bilan bir qatorda o‘zbek tilida Ulug‘bek, Arslon Xo‘ja Tarhon, Xo‘ja Muhammad Porso haqidagi qasidalarini ham bu she’riy janrning yorqin yutug‘i bo‘ldi. Uning Ulug‘bek haqidagi qasidalaridan birida olim – shoh to‘g‘risidagina emas, o‘zi haqida ham so‘zlab:

Falak yillar kerak aylansa-yu keltursa ilkiga,
Meningdek shoiri turk-u seningdek shohi dononi!

(32-bet)

deb yozilganida ma’lum bir tarixiy haqiqat bor edi, – deyish mumkin. Lekin biz Sakkokiy adabiy merosiga to‘la baho bera olmaymiz. Chunki uning bizgacha etib kelgan devonidan oxirgi bir qismigina saqlanib qolgan, xolos³¹.

Sakkokiyning ijodiy merosi hajm tomondan kichik bo‘lsa ham, ammo mohiyati jihatidan kattadir. U o‘z salaflarining, qolaversa, Navoiyning ta’rifiga sazovor bo‘lganidan ham uning ijod ahli o‘rtasidagi yuksak mavqeyini baholash mumkin. Shoir qasidalarini va g‘azallaridan iborat 2 ta noto‘liq devon: Britaniya Muzeyida (taxminan XVI asr o‘rtalarida ko‘chirilgan nusxa) 2079, O‘zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida (1937-yil Shoislom kotib tomonidan ko‘chirilgan nusxa) 7685³² raqami ostida saqlanayotgan nuxalar mavjud. Ularda shoirning Xoja Muhammad Porso, Arslon Xoja Tarxon, Xalil

³¹ Hayitmetov A. Temuriylar davri o‘zbek adabiyoti.– T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot nashriyoti, 1996. – B. 8-9.

³² Devoni Mavlono Sakkokiy. O‘zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, 7685 inv.

Sulton, Mirzo Ulug‘bek kabi temuriylarga yozgan qasidasi (vv. 1b–14a) hamda 54 ta g‘azali (vv. 14a–27a) o‘rin olgan³³.

Sakkokiy qasidalarini yuzasidan tadqiqot olib borgan adabiyotshunos olima M.Hasanova uning devoni haqida batafsil to‘xtalishga harakat qiladi. 1958-yilda Q.Munirov tomonidan nashrga tayyorlangan shoirning “Tanlangan asarlari”³⁴da 56 ta g‘azal, “O‘zbek adabiyoti bo‘stoni” seriyasida nashr etilgan “Hayot vasfi”³⁵ kitobida 55 ta g‘azal, har ikki nashrda ham “Keldi” radifli qasidasi kiritilgan. Toshkent qo‘lyozma nusxasida ham Britaniya Muzeyi qo‘lyozma nusxasida ham 57 tadan g‘azal mavjud (“Mevlana Sakkaki divani”da Toshkent qo‘lyozma nusxasining 41-42 betlari nima uchundir berilmay, 52 ta g‘azal sanalgan³⁶.

Devonlarda g‘azallar “Kunilarmen” radifli, biror sabab bilan matla’si tushib qolgan, g‘azal bilan boshlanib, “Ey labung eglik ko‘ngullarning davo-u marhami” misrasi bilan boshlanuvchi g‘azal bilan tugaydi. Devonda jami 2 ta “nun”, 15 ta “hoyi havvaz”, 40 ta “yoy” harflari bilan tugallanuvchi, jami 57 g‘azal mavjud. Toshkent qo‘lyozma nusxasida Britaniya nusxasidan farqli ravishda “Sochingdin nofa doim kin ichinda” deb boshlanuvchi g‘azalning so‘nggi 2 bayti, “Ey bodi sabo, bizdin ayit yor qoshinda” deb boshlanuvchi g‘azalning so‘nggi to‘rt bayti yo‘q. Toshkent qo‘lyozma nusxasi chiroyli va tushunarli xatda yozilgan. Ammo qo‘lyozmaning o‘zida xatolar mavjud. Shuning uchun juda ko‘p ko‘chirilgan nusxaga o‘xshaydi.

Shuningdek, devondagi she’rlardan tashqari, bir qator boshqa manbalarda Mavlono Sakkokiyga nisbat berilgan g‘azallar, baytlar mavjud. Jumladan, “Mevlana Sakkaki divani”da Shayxzoda Abdurazzoq Baxshi tomonidan Sakkokiyga nisbat berilgan, Sulaymoniya kutubxonasi, Ayosofiya bo‘limida 4757 raqam ostida saqlanuvchi bir majmuadagi 3 g‘azal matni keltirilgan. Ular “Ey zulfi

³³ Собрание восточных рукописей Академии наук Республики Узбекистан. Литература (диваны). / Подготовка к изданию: к.и.н. Х.М. Лутфиллаев, к.филол.н. С.Н. Файзиева и О.Р. Мадалиева. –Т.: Навruz, 2017. – Стр. 119.

³⁴ Sakkokiy. Tanlangan asarlar. Nashrga tayyorlovchi Munirov Q., –Т.: O‘zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1958

³⁵ Hayot vasfi. O‘zbek adabiyoti bo‘stoni. –Т.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1988. – B. 227-285.

³⁶ Mevlana Sekkaki Divani. Hazirlayan K.Eraslan. – Ankara, 1999.

zanjirim biror devonalarni yod qil...”, “Ey mening ko‘nglumni zulfitek parishon aylagan...”, “Ey orizi bargi gul-u vey qomati sarvi suman...” matla’lari bilan boshlanadi.

Alisher Navoiy “Majolis un-nafois”da Sakkokiya nisbat qilinadigan quyidagi matla’ni keltiradi:

Ne noz-u bu ne shevadur, ey jodu ko‘zluk sho‘x-shang,
Kabki dariy, tovusda yo‘q, albatta, bu raftor-u rang.

Bu matla’, shuningdek, “gof” harfi bilan yakunlanuvchi g‘azal ham har ikki nusxada mavjud emas. Yaqiniyning “O‘q va yoy” munozarasida keltirilgan “Yana Sakkokiym, turk shoirlarining mujtahididur, mening munosibi holimga aytur.

Nazm:

“Jonim fido bo‘lsun sening g‘amzang o‘qina nechakim,
Har necha qoshing egmasi o‘qtek bo‘yumni “yo(y)” qilur”³⁷
baytini ham “yel olgan” deyish mumkin.

Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balogs” asarida Sakkokiya nisbat berilgan baytlar va bir ruboiy keltirilgan. Shayx Ahmad Taroziy keltirgan shoirning faqatgina “Sarv ne had birla sarkashlik qilur qadding bila, Bilgurur maydon ichinda har kishining poyasi” bayti bor g‘azal qo‘lyozmalarda mavjud. Shayx Ahmad Taroziyning ushbu ma’lumotlari orqali biz Mavlono Sakkokiyning nafaqat g‘azal va qasida janrlarida ijod qilib qolmasdan, balki ruboilyar ham yaratganligidan xabardor bo‘lamiz.

Sakkokiy devonida 1 hamd, 1 na’t va 11 madh qasida mavjud. Madh qasidalarning 1 tasi Xoja Muhammad Porsoga, 1 tasi Xalil Sultonga, 5 tasi Ulug‘bek Mirzoga (ushbu qasidalarning 1 tasi Shohrux Sultonga bag‘ishlangan degan fikrlar ham mavjud), 4 tasi Arslon Xoja Tarxonga bag‘ishlangan. Sakkokiy devoni davr an’anasiga binoan hamd va na’t bilan boshlanadi. Avval qasidalar, keyin g‘azallar tartiblangan³⁸ligi haqidagi dalillangan ma’lumotlarni M.Hasanova tadqiqotida kuzatish mumkin.

³⁷ Navoiyning nigohi tushgan. –T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1986. – B. 18.

³⁸ Xasanova M. XV asr turkiy she’riyatida qasida janri: Filol.fan.b.fals.dokt. ...diss.– Samarqand, 2018. – B. 59-61.

Sakkokiy devonining Britaniya Turkiy qo‘lyozmalar katalogida Or.2079 raqami bilan qayd etilgan ta’rifda: Sakkokiyning devonida Xalil Sultonga bag‘ishlangan qasida, Shayxxoja Muhammad Porsoga qasida, Ulug‘bek Mirzoga bag‘ishlangan 5 ta qasida, to‘rtta Arslon Xoja Tarxonga bitilgan qasida³⁹ borligi aytilsa, ikkinchi nusxasi O‘zR FAning Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar xazinasida 1937-yil Shoislom kotib tomonidan qandaydir manba asosida ko‘chirilgan nusxasi, deb e’tirof etgan adabiyotshunos olimlar R.Vohidov va H.Eshonqulovlar “O‘zbek mumtoz adabiyoti” kitobida: Bu nusxalar bir-biridan u qadar katta farq qilmaydi. Biroq ulardan birortasi ham Sakkokiy devonining to‘la va mukammal nusxasi emas. Ularda Sakkokiy g‘azallarining faqat bir qismigina berilgan, xolos. Sakkokiy devoni hamd va na’t bilan boshlanadi. Keyin 10 qasida beriladi: bir qasida – Naqshbandiy shayxlaridan Xoja Muhammad Porsoga, bir qasida – Xalil Sultonga, to‘rt qasida Mirzo Ulug‘bekka va to‘rt qasida – Arslonxo‘ja Tarxonga bag‘ishlanadi⁴⁰ deyilgan bo‘lsa, adabiyotshunos olima M.Hasanova Sakkokiy devonida 1 hamd, 1 na’t va 11 madh qasida mavjud. Madh qasidalarning bittasi Xoja Muhammad Porsoga, bittasi Xalil Sultonga, to‘rttasi Ulug‘bek Mirzoga, 1 tasi Shohrux Sultonga (ammo, bu qasida devonda “Ulug‘bek mirzo madhi” sarlavhasi bilan berilgan), to‘rttasi Arslon Xoja Tarxonga bag‘ishlangan. Jami qasidalar 407 bayt yoki 814 misrani tashkil etadi⁴¹, degan har xillikka, ya’ni shoir devonida 10 qasida, 11 qasida va 13 qasida (N.Mallayev, R.Vohidov va H.Eshonqulovda 10 ta, M.Hasanovada 11 ta, Kemal Eraslan va M.Ergashxo‘jayevlarda 13 qasida) bor degan ma’lumotlarga duch kelamiz. Shu o‘rinda, yana shunga e’tibor qaratmoq kerakki, Shohrux Sultonga bag‘ishlangan qasida “ammo, bu qasida devonda “Ulug‘bek mirzo madhi” sarlavhasi bilan berilgan” degan Mashura Hasanovaning fikr asosli ekanligini ta’kidlash lozim.

³⁹ Qarang. Catalogue of the Turkish Manuscripts in the British Museum by Charlas Rien, Ph. D. London, 1888.284; M.Ergashxo‘jayev. Sakkokiy va uning devoni haqida. // O‘zbek tili va adabiyoti, O‘zbekiston Respublikasi FA “Fan” nashriyoti, 2005 №8. – B. 111.

⁴⁰ Vohidov V, Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti. –T.: Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006 –yil. – B. 181.

⁴¹ Hasanova M. Sakkokiy (Sayroniymi? Sabroniy?) // Sharq yulduzi, 2011, №6. – B. 102.

Endi ikkala devon haqidagi M.Ergashxo‘jayev fikrlariga to‘xtalamiz: Britaniya Turkiy qo‘lyozmalar katalogida yozilishicha, devon 33 varaqdan iborat bo‘lib, har bir sahifada o‘n beshtadan satr bor, biroq uning ba’zi sahifalarida ko‘plab bo‘sh joylar qoldirilgan. Devon matni ikki ustunda qora siyoh bilan nastaliq xatida bitilgan. Qasidalar devonning 3-15 varaqlaridan o‘rin olgan. Keyingi varaqlarda g‘azallar bitilgan bo‘lib, “nun”, “he” va “yo” harflari bilan tugagan baytlardan iborat. Devonning mazkur nusxasi 13 qasida va 57 g‘azalni o‘z ichiga olgan. Kemal Eraslanning ma’lumotiga ko‘ra, devon matnining so‘ngida katak jadval ichiga forscha bayt bitilgan. Undan keyin forscha olti baytlik bir nazm parchasi yozilgan⁴².

O‘zR FAning Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar xazinasida 1937-yil Shoislom kotib tomonidan ko‘chirilgan nusxa 27 varaqdan iborat bo‘lib, nastaliq xatida bitilgan. Satrlar soni o‘n yettita. Matn juft ustun shaklida yozilgan, biroq jadval ichiga olinmagan. Mazkur nusxada Britaniya Muzeyi nusxasidagi besh g‘azal (21 b–22 a sahifalar orasidagi) yetishmaydi. 13 ta qasida va 52 ta g‘azalni o‘z ichiga olgan⁴³, degan fikrlarni bildirgan olim ikki devonda ham 11 qasida emas 13 qasida degan ekan, 2 qasida kimga bag‘ishlanganligi haqida nimagadir lom-mim demaydi. Biz tadqiqot olib borish jarayonida shoir qasidalari haqida shunday xulosaga keldik. Shoir qasidalari 1 hamd, 1 na’t va 11 madh qasidadan iborat. Shu o‘rinda shuni qayd etish joizki, ijodkorlarning adabiy muhitda tutgan o‘rnini belgilashda asarlarining soni emas, balki uning mazmuni, badiiyati va g‘oyasi muhimdir. Shu ma’noda Sakkokiy lirkasi davr adabiy muhitining biz uchun qorong‘i jihatlarini yoritishi bilan ham ahamiyatlidir.

Demak, yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, Sakkokiy o‘zbek mumtoz she’riyatining Navoiyga qadar yetishgan yirik namoyandalaridan biri bo‘lib, uning ijodi o‘zbek mumtoz adabiyotining ravnaq topishiga ma’lum hissa bo‘lib qo‘shilgan.

⁴² Qarang: Mevlana Sekkaki Divani. Hazirlayan Kemal Eraslan. Anqara, 1999. – S. 22.

⁴³ Ergashxo‘jayev M. Sakkokiy va uning devoni haqida // O‘zbek tili va adabiyoti, O‘zbekiston Respublikasi FA “Fan” nashriyoti, 2005 №8. – B. 111.

Sakkokiy g‘azallarida sharq she’riyatining o‘lmas insoniy g‘oyalari, ezgulik va yomonlik, ma’rifat va johillik, olam va odam kabi mavzular yetakchilik qiladi. Sakkokiy lirikasining mavzu mundarijasi va g‘oyaviy olami rang-barang. Ishqmuhabbat g‘oyasi shoir lirikasining asosiy mazmun-mohiyatini tashkil etadi. Shoir devonidagi janrlarni shartli ravishda quyidagicha tasniflash mumkin: Hamd, na’t va madh qasidalar; oshiqona; orifona; axloqiy-ma’rifiy ruhdagi g‘azallar.

Sakkokiy merosining asosiy qismini g‘azallar tashkil etadi. Shoir g‘azallaridagi asosiy mavzu – ishq, asosiy timsol – Inson. Ularda insonparvarlik, xalqparvarlik, visol umidi, hijron azoblari, go‘zallik ta’rifi, hayotga muhabbat, ijtimoiy fikrlar, ma’lum ma’noda siyosiy qarashlar qalamga olingan.

Demak, g‘azallarining asosiy mavzusi muhabbat bo‘lib, ba’zi o‘rinlarda ilohiy ishqni, tasavvufiy g‘oyalarni ham tasvirlaydi. Insonning dard-alamlari, orzu-tilaklarini, tabiat tasvirini beradi. Shoir yor va unga sadoqat, hayot lazzatlaridan bahramand bo‘lish, oshiqdagagi hijron va ayriliq azoblari, visol nashidasini ta’sirchan tarzda, sodda va ohangdor holatda ifodalaydi. Sakkokiy g‘azallarida uch obraz: “oshiq, yor va raqib obrazlari”⁴⁴ ko‘zga tashlanadi. Oshiq shoirning o‘zi bo‘lib, u yorning visoli bilan o‘rtanib yashaydi. Oshiqlik yor uchun iztirob va mashaqqat ekanligini tan oladi.

Sakkokiy tug‘ma iste’dodli lirik shoir bo‘lib, u o‘zidan oldin o‘tgan o‘zbek, fors-tojik shoirlari asarlarini puxta o‘rgangan. Ulardan ijodiy foydalangan. Shoir ijodini kuzatar ekanmiz, u o‘zbek va fors-tojik tilidagi manbalarni puxta o‘rganib chiqqanligi va ulardan o‘z asarlarida ijodiy foydalanganligiga amin bo‘lamiz.

Mavlono Lutfiy, Sakkokiylar ijodida va ayniqsa, turkiy tilimiz va adabiyotimizning buyuk yalovbardori Navoiy davrida zullisonaynlik va arabcha-forscha so‘z-iboralar qo‘llanilishi ham ijodiy an’ana bo‘lib, ular xalqlarning tarixiy o‘tmishidan guvohlik berishi bilan birga, ularning yashash tarzi, tili va dini, madaniyati va ruhiyatidagi o‘zaro yaqinlik va mushtaraklikni ham aks ettirib turadi. Bu esa tillarning bamisolilari bir guldastra yanglig‘ o‘zaro bir-birini

⁴⁴ Mallayev N. O‘zbek adabiyoti tarixi. V tomlik, I tom. – T.: O‘qituvchi, 1965. – B. 314.

boyitishidan hamda adabiy asarlar mazmuni, ohangdorligini kuchaytirishidan ham yorqin dalolatdir.

Lutfiy va Navoiy asarlari kabi Sakkokiyning g‘azallari va qasidalar ham kitobxonlar o‘rtasida shuhrat topishida ularda keng qo‘llanilgan fors-arabcha so‘z-iboralarning ham muayyan o‘rni borligini e’tirof etish lozim. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, Lutfiy, Sakkokiy va Navoiylarning bunday lisoniy mahorat saboqlari va qutlug‘ an’analari keyingi asrlarda ham ko‘plab yetuk shoir-u yozuvchilarimiz tomonidan muvaffaqiyatli davom ettirildi.

Adabiyotshunoslikda an’anaviylik va novatorlik o‘zaro bog‘liq, bir-birini taqozo qiladigan va bir-birini to‘ldiradigan adabiy kategoriylar bo‘lib, zamonaviylik bilan chambarchas bog‘liqdir. Novatorlik ilg‘or adabiy an’analarni inkor etmaydi, balki ularga tayanadi va ulardan ijodiy foydalanadi⁴⁵. Masalan, Gulxaniy, Uvaysiy va Nodira, Muqimiy va Furqat she’riyatida fors-arabcha so‘zlearning keng qo‘llanilganligi ham badiiy tilning serqirraligini ko‘rsatib turadi. Chunonchi: Gulxaniyning mashhur “Zarbulmasal”idagi Tuyaning Bo‘taloqqa aytgan “Menda bo‘lsa edi ixtiyor, Bo‘lmas edim “zeri bor” (ya’ni yukning ostida) misralarida qo‘llanilgan forscha so‘zlar orqali o‘sha davrdagi mehnatkash xalqning erksiz, haq-huquqsiz yashaganligini obrazli tarzda chuqur ifodalanganligini anglash qiyin emas. Bunday ijodiy an’anaviylik va xususiyatlar zamonaviy adabiyotimizga ham xosdir. Jumladan, XX asr adabiyotimizning Fitrat, Hamza, Qodiriy, Cho‘lpon, G‘afur G‘ulom, Qahhor va Mirtemir, Erkin Vohidov va Abdulla Oripov singari zabardast namoyandalarining so‘z san’atkorligi ibratga loyiqdir.

Darhaqiqat, zamonaviy adabiyotimizning mashhur namoyandalari Erkin Vohidov va Abdulla Oripovning she’r-dostonlari va qasidalarida o‘zbek tilimizning beqiyos lug‘at boyliklari va rang-barang badiiy tasvir vositalaridan keng foydalanilganligiga guvoh bo‘lamiz. Ayni vaqtida, xassos shoirlarimizning ko‘plab mumtoz she’rlarida fors-tojikcha va arabcha so‘z-iboralar hamda qo‘srimchalar mohirona qo‘llanganligi ham ularning til mahoratidan dalolat

⁴⁵ Soatova N. An’anaviylik va vorislik. – T.: Mumtoz so‘z, 2019. – B.13

beradi. Adabiy ijod, – deydi Erkin Vohidov, – hamisha so‘z olamiga sayohatdir. Erkin Vohidovning qator she’r va g‘azallarida san’atkorona qo‘llangan forsiy-arabiylar so‘z va qo‘sishimchalarning mazkur asarlar mazmunini va ohangdorligini kuchaytirishi bilan birga ularning ta’sirchanligini ham oshirganini ko‘ramiz. “Vatan umidi” she’ridagi quyidagi baytlarga nazar tashlaylik:

Dilim dog‘liq, ko‘zim bog‘liq, tilim yo‘q, besuxan bo‘ldim,
Muazzam Sayhun-u Jayhun labida tashnalab qoldim,
Kiyintirdim jahonni, jismi uryon bekafan bo‘ldim...⁴⁶

Forsiy “be” qo‘sishimchasi bilan yasalgan so‘zlarning (besuxan, bekafan, bevatan...) yoki “bandi kishan”, “sohibi chaman” kabi izofali iboralarning tanlab ishlatilganligi ham fikrimizning isboti bo‘la oladi. Yoki Abdulla Oripovning mumtoz she’riyatimiz va tasavvufona ruh bilan sug‘orilgan “Savob” nomli she’ridagi

“O‘zga erur bid’at va karam,
Himmat-u saxovat tiriklarga xos”⁴⁷

kabi arabcha-forscha so‘zlarning ma’nodor, ta’sirchanligiga hamda falsafiy bir to‘rtligidagi “bisyor bo‘lsa bol ham beqadr” satrida forscha so‘z va qo‘sishimchaning qanchalik o‘rinli qo‘llanganligi ham ijodiy an’anaviylikka misol bo‘lishi mumkin. She’r matnidagi “be” qo‘sishimchasi o‘rniga o‘zbek tilimizdagи “siz” qo‘sishimchasi qo‘yib ko‘rilsa, misralardagi ritm va ohang ham o‘zgarib, avvalgi tabiiylik va jarangdorlik bir qadar pasayadi, demakki, ta’sirchanlik ham susayadi. Shuningdek, bisyor so‘zini ko‘p, mo‘l, serob kabi ma’nodosh-sinonim so‘zlar bilan almashtirish ham she’riy satrdagi poetik mukammallikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunday misollarni hozirgi davr ijodkorlarining asarlarida ham ko‘plab uchratish mumkin. Bulardan shunday xulosa kelib chiqadiki, mumtoz she’riyatimizda ustuvor jihatga aylangan va zamonaviy adabiyotimizda ham arabcha-forscha so‘z-iboralar qo‘llanishi ham ijodiy bir an’ana sifatida keng tarqalgan.

⁴⁶ Vohidov E. Yaxshidir achchiq haqiqat. – T.: 1992. – B.95.

⁴⁷ Oripov A. Munojot. –T.: 1992. – B. 361.

Yana shuni alohida ta'kidlash joizki, mustaqillikkacha qariyb bir asr davomida sinfiylik tamoyillariga amal qilish talab etilishi natijasida ko‘p masalalar o‘zining haqqoniy va xolis, tarixiy jihatdan to‘g‘ri talqini hamda yechimini topmagan edi. Xususan, istiqlololgacha bo‘lgan davrda chop etilgan asarlarda totalitar tuzum tazyiqi ostida mumtoz adabiyot namunalaridagi “Devon”lar ibtidosida keladigan debochalar hamd, na’t, sano, me’roj, munojot talqiniga doir boblar berilmadi, chunki bu mavzularni o‘rganish umumislomiy mavzular sirasiga kirgan. Ayniqsa, tasavvufiy she’rlar, qasidalar noto‘g‘ri talqin qilindi. Hamd va na’tlarga “diniy-mistik”, yuqori mansab egalari, podshohlarga bag‘ishlab yozilgan asarlarga esa “saroy adabiyoti”, “qasidanavislik – laganbardorlik, maddohlik” tamg‘alari bosildi va ular adabiyotshunoslik masalalaridan chetda qolib ketdi⁴⁸.

Buning isboti sifatida Sakkokiyning hamd, na’t va o’n bir madh qasidasini 1958-yilda Q.Munirov tomonidan nashrga tayyorlangan “Tanlangan asarlar”, 1988-yil “O‘zbek adabiyoti bo‘stoni” seriyasida chop etilgan “Hayot vasfi” kitobiga ham kiritilmaganligini ko‘rsatishimiz mumkin.

Navoiyga qadar devon tuzishda janrlar tartibi arab devonchiligi singari, asosan, qasidalar bilan boshlangan. Xususan, Sakkokiy devoni ham qasidalar bilan boshlangan. 22 baytlik sarlavhasiz hamd qasida devon boshida keltirilgan⁴⁹. Taroziy she’rni “o’n nav” (qasida, g‘azal, qit’a, ruboiy, masnaviy, tarje’, musammat, mustazod, mutavval, fard), deb uning har qaysisida agar Tangri azza va jallaga hamd aytsalar, oni tavhid derlar. Va agar Muhammad Mustafо alayhissalot vas-salomni vasp qilsalar, na’t derlar, agar Tangri hazratinda tazarru’ qilsalar, munojot o‘qurlar...⁵⁰, degan qarashlarni o‘rganishni “...zamonasi uchun, butun jahon adabiyoti uchun katta ijobiy hodisa”⁵¹ deb hisoblamoq kerak. Biz ushbu faslda adabiyotshunos olimlar M.Hasanova, H.Sheraliyev tomonidan

⁴⁸ Mavlono Sakkoki devoni. Nashrga tayyorlovchilar Hasanova M., Sheraliyev H.– T.: MUMTOZ SO‘Z, 2017 (Bundan keyingi o‘rinlarda shu manbaga murojaat qilinganda sahifasi qavs ichida ko‘rsatiladi)

⁴⁹ Xasanova M. XV asr turkiy she’riyatida qasida janri. Filol.fan.b.fals.dokt. ...diss.avtoref. – Samarqand, 2018. – B. 1-16.

⁵⁰ Xasanova M. XV asr turkiy she’riyatida qasida janri. Ko‘rsatilgan avtoreferat. – Samarqand, 2018. – B. 154.

⁵¹ Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. 4 tomlik. 2-tom. – T.: Fan. 1983. – B. 299.

nashrga tayyorlangan “Mavlono Sakkokiy devoni”da berilgan hamd va na’t qasidalarini ko’rib chiqamiz.

1.2.§.Sakkokiy devonidagi hamd va na’tlarning badiiy talqini

Ma’lumki, qadimda Sharq xalqlari adabiyotida barcha asarlarni an’anaviy muqaddima bilan boshlash odat tusiga kirgan edi. Bu haqda professor Natan Mallayev o‘zining “An’anaviy muqaddimot haqida” nomli maqolasida alohida ta’kidlab o’tgan⁵². Adabiyot tarixida yaratilgan turli janrdagi asarlarning kirish qismi, an’anaga muvofiq, hamd-u na’t bilan boshlangan, asar bag‘ishlangan shaxs va uning madhiga keng o‘rin berilgan, asarning yozilish sabablari hamda asarda qo‘yilgan masalalar bayon etilgan.

Islomda, albatta, birinchi masala Allohga munosabat, uning yakka-yagonaligini, dunyoda unga teng keladigan, unga sherik bo‘ladigan mavjudot yo‘qligini, uning olamni yaratuvchisi, harakatga keltirib turuvchisi va xohlasa, uni yo‘q qilib yuboruvchisi ekanini, ya’ni mislsiz kuch-qudratga ega, olamda bor narsalar hammasi uning hukmida ekanini tan olishdir⁵³. Sakkokiyning hamd va Muhammad (s.a.v.)ga na’t qasidalarni yozishdan ko‘zlagan maqsadi ham Allohning ana shunday ulug‘vor ekanligini, uning karomatlariga so‘zsiz iqror bo‘lish kerakligini uqtirishdir.

Shu o‘rinda, aytish joizki, hamd va na’t – janr emas, balki muayyan janrning mavzuga ko‘ra turi. Shu o‘rinda Sakkokiy hamd va na’tlari to‘g‘risida so‘z yuritishdan oldin uni qaysi janrga mansub ekanligiga to‘xtalish lozim, deb o‘ylaymiz. Shu o‘rinda qasida janri bo‘yicha tadqiqot olib borgan adabiyotshunos olima Mashhura Hasanovaning: Shu kunga qadar shoirning (Sakkokiyning, ta’kid bizniki G‘.I.) hamd va na’t qasidalarini boshqa qasidalarini qatoriga qo‘silmagan. Ya’ni shoirning 11 ta qasidasi mavjud deb hisoblangan⁵⁴, yoki: Islom madaniyatini va adabiyoti paydo bo‘lganidan keyin, qasida janrining ma’no-mazmuni yanada

⁵² Mallayev N. An’anaviy muqaddimot haqida // O‘zbek tili va adabiyoti. – 1971. 1-son. – B. 10-12.

⁵³ Hayitmetov A. “Xamsa”da islam nuri // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 1996-yil 26-aprel.

⁵⁴ Hasanova M. Ko‘rsatilgan dissertatsiya. – Samarqand, 2018. – Б.62-63.

kengaydi. Ya’ni bu davrdan boshlab, Allohga hamd va Muhammad (s.a.v.)ga na’t qasidalar paydo bo‘la boshladi, mavzulariga ko‘ra, tawhid (Ollohnning borligi va birligini anglatgan qasidalar), munojot (Ollohgga yolborib yozilgan qasidalar), na’t (Muhammad (s.a.v.)ning sifatlariga bag‘ishlab yozilgan qasidalar), madhiya (biror kishiga bag‘ishlab yozilgan), marsiya (biror bir shaxsning vafoti munosabati bilan yozilgan qasidalar)⁵⁵ kabilarga bo‘linadi degan qarashlarini “qasida hamd va na’t va sano va mav’izatdur va ahli tasavvuf va haqiqat tili bila ma’rifat”⁵⁶ ekanligi to‘liq asoslaydi. Biz Sakkokiy qasidalari mavzu yo‘nalishiga ko‘ra, tawhid munojot hamd va vasf me’rojnama na’tga bo‘linadi degan xulosaga keldik.

Hamd⁵⁷ – Alloh sha’niga maqtov, she’r. Islom ta’limotiga ko‘ra, maqtov va madh faqat Allohgagina xosdir, faqat O‘zigma loyiqidir. Vaholanki, Qur’oni Karimning Tag‘obun⁵⁸ surasi 1-oyatida shunday deyilgan: Osmonlardagi narsalar va yerdagi narsalar Allohga tasbih ayturlar. Mulk Unga xosdir, maqtov ham Unga xosdir va U barcha narsaga qodirdir.

Demak, hamd – islomiy, she’riy tushuncha bo‘lib, Allohga madh, maqtov degan ma’nolarni anglatadi. Ba’zi tadqiqotchilar (lug‘atshunoslar) hamdga quyidagicha talqin berganlar: Hamd (lug‘atda) tilda, ixtiyoriy ravishda birovning yaxshilagini maqtashdir. Yoxud uni ulug‘lash, unga ta’zim bajo keltirish ham deyish mumkin⁵⁹.

Sharq adabiyotida keng tarqalgan hamdlar Allohn ni madh etishga, uning sifatlari tavsifiga bag‘ishlangan. Sakkokiy devonidan o‘rin olgan ushbu hamd tawhid⁶⁰ hamd bo‘lib, Allohning sifatlarini ifodalashdan iboratdir. Shoir hamdda, birinchi navbatda, e’tiborni Allohning yaratuvchilik qudratiga qaratadi.

⁵⁵Yana shu – Б.14-15.

⁵⁶ www.ziyouz.com kutubxonasi. A.Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Muhokamat ul-lug‘atayn. 20 jildlik, 16-jild. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, 2000. – B. 27.

⁵⁷ arab. – ulug‘lanish, ta’rif, tafsif, madh

⁵⁸ Tag‘obun surasi (arabcha: ison’am gninimon ،سُورَةُ الْتَّغَابُونَ – Bir-birlarini aldash-ziyon yetkazish kuni) – Qur’onning 64-surasi. Madaniy suralardan biri, 18 oyatdan iborat. Bu sura Qur’onning 556-557-sahifasida, 28-juzida joylashgan. 108-bo‘lib nozil bo‘lgan.

⁵⁹ Bu haqda qarang: Muhammad G‘iyosiddin. G‘iyos ul-lug‘at. Jildi 2. – Dushanbe.: Adib, 1988. – B. 283.

⁶⁰ Tawhid – Allohning birligiga iqrorlik

Avvalo, shuni ta'kidlash joizki, hamdlarni adabiyotshunos olima Z.G'afforova o'zining "Navoiyning hamd va na't g'azallari" kitobida shartli ravishda 2 turga ajratadi:

1. Tavhid hamdlar
2. Munojot hamdlar⁶¹.

Adabiyotshunos olima N.Bekova esa, maqsadiga va muallifning maqomiga (yetakchilik qilayotgan g'oyasiga) ko'ra 4 guruuhga tasniflagan:

1. Shar'iy – targ'ibiy hamdlar
2. Ma'rifiy – targ'ibiy hamdlar
3. Ma'rifiy – badiiy hamdlar
4. Badiiy – ma'rifiy hamdlar⁶².

Shayx Ahmad Taroziy adabiyotshunoslikka oid "Funun ul-balogs'a" asarida: ...agar Tengri azza va jallaga hamd esalar, oni tavhid derlar. Va agar Muhammad Mustafo salloholi alayhi vasallamni vaf qilsalar na't derlar. Agar Tengri hazratinda tazarru' qilsalar, munojot o'qurlar⁶³, deyilgan.

Hamd so'zining lug'aviy ma'nosi haqida "G'iyos ul-lug'ot"da shunday deyilgan: Hamd – xoslar istilohida Haq subhonahu taoloning buyukligini, azm-u azamatini ulug'lash, maqtashga aytadilar⁶⁴. Adabiy tur va janrlar nazariyasiga oid "Diniy va tasavvufiy turk adabiyoti"da esa, hamd "lug'aviy ma'noda yolvorish, quloqqa so'zlash, Allohga duo aylash mavzuyidagi manzuma, she'r ma'nolarida ishlatiladi"⁶⁵, deb ko'rsatilgan.

Sakkokiy devoni dagi hamd qasida quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Yoqtin ikki dunyoni bor etkuchi, ul Bir-u Bor,
O'zni yo'q etmak bila oshiqlarig'a iftixor (5-bet).

⁶¹ G'afforova Z. Navoiyning hamd va na't g'azallari. – T.: Ma'naviyat, 2001. – B. 4.

⁶² Bekova N. Alisher Navoiyning hamd g'azallari va "Ruh ul-quds" qasidasining badiiyati: Filol.fan.nomz.diss. – T., 2003. – B. 20.

⁶³ Hayitmetov A, Umarov E. Shayx Ahmad Taroziy. "Funun ul-balogs'a" / O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 1994, 18-mart

⁶⁴ G'iyos ul-lug'ot. 1-jild. Dushanbe, 1987 (Ghiyyas-ul-lughat. Volume 1. Monday, 1987) – B. 283.

⁶⁵ Bekova N. Alisher Navoiyning hamd g'azallari va "Ruh ul-quds" qasidasining badiiyati: Ko'rsatilgan dissertatsiya. – T., 2003. – B. 11.

Baytdagi “Bir-u Bor” so‘zi Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati⁶⁶da yagona, doimiy, mavjud; tangri degan ma’noni anglatib, ikki dunyoni yo‘qdan bor qilgan Alloh, o‘zini pinhon tutdi, natijada unga oshiqlarning muhabbatini yanada oshirdi, shu orqali ular Yaratgandan iftixor, “faxr, faxrlanish”⁶⁷ qiladilar.

Kim saning yo‘lingda xor⁶⁸ etti o‘zin, bo‘ldi aziz,

Ko‘b aziz oning uchun xorluqni qildi ixtiyor(5-bet).

Agar hidoyat yo‘lida (sening yo‘lingda) kimki o‘zini xor tutsa, kamtarin bo‘lsa, o‘zini boshqalardan ustun bilmasa, sening oldingda aziz bo‘ldi, shuning uchun ham ko‘plab yaxshi odamlar “xorlikni ixtiyor etdi”. Sakkokiy fikricha, Yaratganga:...bandalikni sidqidildan oliv darajada bajo keltirish, bandalikdan sharaf topish, niyozmandlik va talabgorliqda yo‘ldagi tuproq misol nom-u nishonsiz bo‘lish, Illoh nazdida o‘zini zarra, balki zarradan ham kam, deb hisoblash. Va shu martabada komillik rutbasini qozonish ham. Barcha narsalar, olam-u odam Allohga tegishli, insonning vujudi ham o‘ziniki emas, chunki u ham Yaratganning mulkidir. Faqrni ana shunday mazmunda anglagan odam tasavvuf mohiyatiga ham yetib boradi⁶⁹.

Ishq o‘ting‘a er kerak parvonadek solsa o‘zin,

Kuymasa jon rishtasi, sham‘i qachon yaxtu yanor⁷⁰.

Sening ishqining oloviga bir mard parvona⁷¹ kerak, agar u sening ishqining atrofida parvonadek girdikapalak bo‘lsa-yu, jon rishtasini kuydirsa, o‘shandagina o‘sha sham (jon) yagona nurga aylanadi.

Ey jalol⁷²ing haybatidin ko‘h⁷³-u daryo pastu xushk⁷⁴,

V-ey jamoling nusratidin dasht-u homun marg‘zor.

⁶⁶ Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. 1-tom. – T.: O‘zbekiston SSR Fan nashriyoti, 1983. – B. 297.

⁶⁷ Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. 2-tom. – T.: O‘zbekiston SSR Fan nashriyoti, 1983. – B. 64.

⁶⁸ Bee’tibor, kamsitilgan, ezilgan.

⁶⁹ Komilov N. Tasavvuf. –T.: Movarounnahr – O‘zbekiston, 2009. – B. 27-28.

⁷⁰ Yagona nur. (M.Hasanova, H.Sheraliyev tomonidan nashrga tayyorlangan Mavlono Sakkokiy devonida “yaxtu yanor” shaklida berilgan)

⁷¹ Sham, chiroq atrofida aylanadigan mayda kapalak.

⁷² Ulug‘, viqor.

⁷³ 1. Tog‘ 2. Baland yuqori.

⁷⁴ 1. Quruq, quruqlik; 2. yer

Ey, ulug‘lik va viqor egasi, sening haybating oldida tog‘lar pastdir, daryolar xushk (quruq)dir. Dashtlar, sahrolar, cho‘llar sening jamoling nusrati⁷⁵ bilan o‘tloqqa, maysazorga aylandi.

Borchha olam haybating daryosidin bir qatra suv,

Qildi lutfing yetti⁷⁶, olti⁷⁷, to‘rtini⁷⁸ ondin oshkor.

Dunyodagi barcha olamlar bir daryo kabitir, sening haybating oldida bular daryodagi bir qatra suvdir. Sening lutfing bilan yetti osmon, olti taraf hamda to‘rt unsur paydo bo‘ldi.

Jumlai zarroti jon yoding bila mashg‘ul erur,

Oy-u kun, aflok-u najm, bahr-u bar, layl⁷⁹-u nahor⁸⁰.

Barcha zarrayi jahon: Oylar va kunlar, afloklar⁸¹ (falaklar), anjumlar⁸² (yulduzlar), bahr⁸³ (dayrolar), bar⁸⁴ (serhosil mevalar), tun va tonglar sening yoding bilan mashg‘uldir.

Oy agar o‘z bag‘rina qo‘ymadi ishqing dog‘ini,

Ne uchun gohi to‘lub, gohi bo‘lur zor-u nizor⁸⁵.

Har bandang sening ishqing bilan yonsa, bular bu hayotda kamchiliksiz yashaydilar, farovonlikka erishadilar. Agar ular sening ishqing bilan yonmas ekanlar zaif va sust bo‘lurlar.

Oftobi xovariy⁸⁶ mehringda zarra tinmayin,

Ko‘k oti uzra minib tun-kun yelar ul shahsuvor⁸⁷.

Sening ishqing bilan sharqdan chiqayotgan quyosh bir on ham tinmaydi, ot mingan chavandoz kabi osmonda tun-u kun aylanadi. Bu baytning ma’nosi Qur’oni

⁷⁵ yordami

⁷⁶ Yetti osmon

⁷⁷ Olti taraf: sharq, g‘arb, janub, shimol, ost va ust

⁷⁸ To‘rt unsur: tuproq, suv, olov, havo

⁷⁹ tun

⁸⁰ tong

⁸¹ falaklar

⁸² yulduzlar

⁸³ daryo

⁸⁴ Meva, hosil, samara

⁸⁵ Ozg‘in, sust, zaif

⁸⁶ Xovar – sharq, kunchiqish

⁸⁷ 1. Ot mingan mahoratli chavandoz; 2. mahbuba, sevgili

Karimda ham kelgan bo‘lib, yosin⁸⁸ surasining 38-oyatida: “Quyosh o‘z istiqrori uchun yuradir. Bu o‘ta izzatli, o‘ta biluvchi Zotning o‘lchovidir,” deyilgan.

Gar falak ermas saning ishqing yo‘li sargashtasi⁸⁹,
So‘fiylartek charx urub nedin kezar har bir diyor.

Borchal yulduzlar sening yodingda o‘zni sham’ etib,
Har kecha tongga tegi⁹⁰ ko‘k gunbazi ichra yanar(5-bet).

Falak sening ishqing bilan ovora bo‘lib, so‘fiylardek charx urib aylanadi. Barcha yulduzlar sening xayoling bilan o‘zini sham tutib (bu yerda kamtarlik ma’nosida), har kuni tongdan oldin osmon gumbazi ostida yonib turadi.

Kon⁹¹-u daryo qahring o‘tinda kuyub qaynab toshar,
Birisining bag‘ri qon-u biri har dam beqaror.

Lutf-u qahringkim Jamol⁹² birla Jalol⁹³ oti saning,
O‘t-u suv, tuproq-u yelni e’tidol⁹⁴ uzra tutor(5-6-bet).

Agar qahring kelsa, daryolar, konlar (bu yerda daryolar to‘plangan joy-dengiz ma’nosida) qaynab, toshib ketadi. Birining bag‘ri qon bo‘lib, biri beqaror bo‘ladi. Sendagi husn, chiroy, go‘zallik, ulug‘lik va viqor, bularning bari ham qahring, ham lutfing bilandir. Bular olovni, suvni, tuproq hamda shamolni bir maromda ushlab turadi. Bu yerda Sakkokiy Allohnning ulug‘vorligini madh eta turib, uning qahridan ham qo‘rqish kerakligini eslatadi.

Shu o‘rinda Allohdan qo‘rqish haqida Qur’oni Karimda kelgan ba’zi oyatlarni sanashni lozim deb bildik: Allohdan qo‘rqinglar! Albatta, Alloh tavbani ko‘p qabul qiluvchi va rahmlidir (Hujurot surasi, 12-oyat); Bas, kuchingiz yetganicha Allohdan qo‘rqinglar (Tag‘obun surasi, 16-oyat); Ey mo‘minlar, Allohdan qo‘rqinglar, to‘g‘ri so‘zni so‘zlanglar (Ahzob surasi, 70-oyat); Kim Allohdan qo‘rqa, U zot uning uchun (barcha g‘am-kulfatlardan) chiqar yo‘lni (paydo) qilur.

⁸⁸ Qur’onnинг 36-surasining nomi. 83 oyatdan iborat. Makkada nozil bo‘lgan. Arabcha “yo” va “sin” harflaridan olingan. Ayrim mualliflar bu harflar arabcha “yo, inson” iborasining qisqartirilgan shakli deb hisoblaydilar.

⁸⁹ Sarson, ovora; sargardon, parishon

⁹⁰ Teg – past, ost

⁹¹ Kon – xazina, biror narsaning to‘plangan joyi; ma’dan

⁹² Husn, chiroy, go‘zallik

⁹³ Ulug‘, viqor

⁹⁴ 1.O‘rtta daraja, o‘rtachanlik, mo‘tadillik; 2.Kelishganlik, yarashiqlik; 3.Tik, to‘g‘ri

Va uni o‘zi o‘ylamagan tomondan rizqlantirur (Taloq surasi, 2-3-oyatlar); Ey mo‘minlar, agar Allohdan qo‘rqsangizlar, sizlar uchun haq bilan nohaqni ajratadigan hidoyat ato qilur va yomonlik – gunohlaringizni o‘chirib, sizlarni mag‘firat qilur. Alloh ulug‘ fazl-u marhamat sohibidir (Anfol surasi, 29-oyat); Va Mendan qo‘rqinglar (Baqara, 40-oyat); Parvardigori (huzurida) turishdan (ya’ni o‘zining Parvardigor oldida turib hayoti dunyoda qilib o‘tgan barcha amallariga javob berishdan) qo‘rqqan kishi uchun ikki jannat bordir (Rahmon surasi, 46-oyat); Ey mo‘minlar, Allohdan qo‘rqinglar! Har kim ertasi uchun oldindan nima hozirlab qo‘yganiga qarasin! Allohdan qo‘rqinglar, chunki Alloh chindan ham qilayotgan amallaringizdan xabardordir (Xashr surasi, 18-oyat).

Oh urub ishqida yer-ko‘k gunbazini kuydurur,
Ahli zohir⁹⁵ oning aslin bilmayin aytur “buxor”⁹⁶.

Chin insonlarning Senga bo‘lgan ishq o‘ti, yer va osmon gumbazlarini kuydirar, ammo yuzaki qaraydigan insonlar bularni bilmaydi va aytgan gaplari xuddi tutunga o‘xshaydi. Bu misraning izohi Baqara surasining 7 oyatida kelgan: Alloh ularning qalblariga va quloqlariga muhr bosgan va ko‘zlarida parda bor. Va ularga ulkan azob bordir.

Podshoho, ko‘k-u yer mamlu⁹⁷ saning yoding bila,
Favqu⁹⁸ taxt-u⁹⁹ qabl¹⁰⁰u ba’d-u¹⁰¹ ham yamin¹⁰²-u ham yasor¹⁰³.

Ey podshohlar podshohi, yer-u osmon, quyi va yuqori, oldin va keyin, o‘ng va chap, bularning bari sening yoding bilan limmo-limdir.

Kim seni sevmas aning mag‘zin¹⁰⁴ bitirur pashshai,
Kimni sevsang, dushmani daf’ina¹⁰⁵ urding xos-xisor¹⁰⁶.

⁹⁵ 1. Ravshan, aniq fikr yurituvchilar, donishmandlar; 2. Yuzadagi narsalarni biluvchilar, yuzaki qaraydiganlar. (Bu misrada Ahli zohir so‘zi ikkinchi ma’noda kelgan)

⁹⁶ Dud, tutun, bug‘

⁹⁷ To‘liq, to‘la, limmo-lim

⁹⁸ Ust, yuqori

⁹⁹ 1. Shohlik kursisi, 2. Maxsus tayyorlangan joy. Bu yerda “quyi” ma’nosida

¹⁰⁰ Oldin

¹⁰¹ Keyin, so‘ng

¹⁰² O‘ng taraf

¹⁰³ Chap taraf

¹⁰⁴ Mag‘z 1. Miya, mag‘z, dimoq; ilik, harommag‘z 2. Ko‘ngil, yurak, jon; hush, idrok.

¹⁰⁵ Dafina – ko‘milgan boylik, xazina;

Agar seni kimdir sevmasa, senga ishonmasa, uning jonini bitta pashsha ham hal etadi. Seni sevganlarni esa, do'st bilib, o'zingni qal'angda bir xazina misol dushmanlardan yashira olasan.

Ne tilosa, bor xazinangda, valekin yo'q-yo'q,
Sig'na kelsa, osilarga hazratingda bor-bor (6-bet).

Seni sevgan insonlar neniki tilasa senda barchasi, albatta, bor, xazinangda yo'q narsaning o'zi yo'q, hattoki, huzuringga osiyalar, gunohkorlar sig'inib kelsa ham bor.

Yo iloho! Mustafo haqqivu me'roji haqi,
Ham ularning haqqikim, xizmatda erdi to'rt yor.
Ul amir ul-mo'minin – Bu Bakr-u Usmon-u Umar,
Shohi Mardon¹⁰⁷, Sheri Yazdon¹⁰⁸, Haydari¹⁰⁹ zu-zul faqor¹¹⁰.
Porso¹¹¹lar to'ati-yu osiyalar ohi haqi,
Kim bu ikkidin yoroyorda oshar nur birla nor¹¹².
Osiy qul Sakkokiyning isyonig'a xud¹¹³ yo'q hisob,
Sen karam birla kechurgil, ey Karimi Kirdigor.
Necha yil isyonu tug'yon¹¹⁴ to'nini qildim libos,
Emdi ush tuttum yaqo, astag'firulloh sad¹¹⁵ hazor(6-bet).

Bu misralarda Sakkokiy "isyon" qiladi. "Necha yillardan buyon haddimni bilmadim", bu o'rinda isyon o'zining gunohkorligi hamda uni kechirishini so'rash ma'nosidadir. Barcha insonlar o'zida bir nuqsoni bo'lishini, shu jumladan, o'zi ham bundan mustasno emasligini aytadi. Sakkokiy o'zini gunohkorlardan biri

¹⁰⁶ Hisor – 1. Qal'a, qo'rg'on, istehkom; 2. Ko'k, osmon; xos-hisor – do'stni dushmanidan himoya qilish uchun yaratilgan maxsus qal'a, istehkom.

¹⁰⁷ Shohimardon (fors. erlar shohi, mardilar shohi) – choryorlarning to'rtinchisi Aliga berilgan nomlardan biri. Ali janglarda jasurlik, mardlik ko'rsatib shu nomga sazovor bo'lган.

¹⁰⁸ Yazdon – xudo, tangri; sheri yazdon – yigitlar piri hazrati Ali.

¹⁰⁹ 1. Sher 2. Alining laqabi.

¹¹⁰ Zulfiqor (arabcha: ذُو الْفَقَار, Dū-l-Faqār – „teshib o'tuvchi“, „o'tkir“) – Muhammad s.a.v.ning ikki uchli qilichi. Badr jangida qo'lga tushirgan. Arabistonda mashhur qilich bo'lган. U Muhammad s.a.v.dan oldin makkalik Munabbih ibn Hajjojga tegishli edi. Muhammad s.a.v. vafotidan keyin hazrat Ali r.a.ga, so'ngra esa xalifalarga o'tgan. Islom an'anasida Zulfiqor sehrli hisoblanadi. Xususan, u uzayishi yoki qisqarishi mumkin edi.

¹¹¹ Taqvodor, xudojo'y.

¹¹² 1. Shu'la, o't, olov 2. Do'zax.

¹¹³ Albatta.

¹¹⁴ Haddan oshmoq, chegaradan chiqmoq.

¹¹⁵ Yuz (raqam).

sifatida tasvirlaydi: Ey karamli Yaratuvchi, Muhammad s.a.v., uning me’roji, charyorlar, taqvodorlar toqati, osiy bandalarning haqqikim, gunohkor qul Sakkokiyni kechir. Uning gunohlarini hisobi yo‘q, kechirilishga loyiq bo‘lmasa-da, Sen uni ehsoning bilan, marhamating bilan kechirgin.

Hodiyo, avval qamug‘ni¹¹⁶ kirgurub o‘z yo‘lingga,

Vaqti oxir bo‘lsa, iymon birla dunyodin chiqor.

So‘nggi baytda shoir Allohdan gunohkor kishilarni hidoyatga boshlashni so‘rab, Yo Alloh, hammani o‘z yo‘lingga kirgaz, insonlarning o‘z vaqt soati kelsa, ularni bu dunyodan iymoni bilan chiqar, deb iltijo qiladi va devondagi hamdni yakunlaydi.

Imom G‘azzoliyning “Qiyomat va oxirat” kitobida: Zotining abadiy ekanini bildirgan Alloh taologa hamd bo‘lsin. U O‘zidan boshqa barcha mavjudotlarning o‘lishlarini istadi. Kofirlarni va gunohkorlarni qabr azobi bilan, albatta, jazolaydi. Bandalari dunyo va oxirat saodatiga erishishlari uchun ularga payg‘ambarlari vositasida amrlarini va ta’qiqlarini yetkazdi. Bandalari oxiratda azob yoki mukofot olishlarini ularning dunyoda qilgan amallariga bog‘liq qildi. Oxirat yo‘liga kirib, roziligidagi qovushishni O‘zi tanlagan va sevgan bandalariga oson qildi¹¹⁷ deyilgan.

Zero, hamma narsani tiriltirgan va o‘ldirgan Alloh taolo Oli Imron¹¹⁸ surasining 185-oyati, Anbiyo¹¹⁹ surasining 35-oyati hamda Ankabut¹²⁰ surasining 57-oyati sharifida: “Har bir jon o‘lim (achchig‘i)ni totguvchidir”, deb marhamat qilgan.

Endi, payg‘ambar vasfiga bag‘ishlangan na’t qasidasiga to‘xtalsak: Na’t – payg‘ambarni madh etish, yaxshi sifatlarini aytib maqtash¹²¹. Demak, na’t (arab. –

¹¹⁶ Qamug‘ – hamma

¹¹⁷ G‘azzoliy. “Qiyomat va oxirat”. Tarjimon: Otabek G‘aybulloh o‘g‘li. –T.: Mavarounnahr, 2004. – B. 444.

¹¹⁸ Oli Imron surasi (arabcha: ison’am gninimon ،سُورَةُ الْأَنْبِيَا، Payg‘ambarlar) – Qur’onning 3-surasi. Madaniy suralardan biri, 200 oyatdan iborat. Bu sura Qur’onning 50–76-sahifasida va 3-4-juzida joylashgan. 89-bo‘lib nozil bo‘lgan.

¹¹⁹ Anbiyo surasi (arabcha: ison’am gninimon ،سُورَةُ الْأَنْبِيَا، Payg‘ambarlar) – Qur’onning 21-surasi. Makkiy suralardan biri, 112 oyatdan iborat. Bu sura Qur’onning 322–331-sahifasida va 17-juzida joylashgan. 73-bo‘lib nozil bo‘lgan.

¹²⁰ Ankabut surasi (arabcha: ison’am gninimon ،سُورَةُ الْأَنْكَابُ، Payg‘ambarlar) – Qur’onning 29-surasi. Makkiy suralardan biri, 69 oyatdan iborat. Bu sura Qur’onning 396–404[10]-sahifasida va 20-21-juzida joylashgan. 85-bo‘lib nozil bo‘lgan.

¹²¹ <https://islam-today.ru/istoria/kak-nacinalas-istoria-celovecestva/>

maqtov, ta’rif) – mumtoz adabiyotning an’anaviy tarkibiy qismlaridan biri. Odatda, katta she’riy – epik asar (doston)lar, ba’zan ilmiy asarlar bosh qismida hamd va munojotdan keyin keladi. Na’t, asosan, payg‘ambar (lar) sha’niga aytildigan maqtovdan iborat bo‘lib, ko‘pgina mumtoz she’riy asarlarda uchraydi¹²².

Na’t, avvalo madh sifatida arab adabiyotida paydo bo‘lgan bo‘lsa, keyinroq fors adabiyotida rivojlanib, turkiy adabiyotga kirib kelgan bo‘lib, dostonlarning debochasidan o‘rin olgan. Madh sifatida arab adabiyotida keng tarqalgan na’tlarning yuzaga kelishi, adabiy janr sifatida shakllanishi islom dinining yoyilishi va Rasulullohning shaxsiyatlari bilan bog‘liqligi, Qur’on va hadislар asosida rivojlanib, barcha janrlarga moslasha oladigan ilhombaxsh mavzu sifatida shoirlarning adabiy-estetik, diniy-falsafiy, tasavvufiy va komil inson haqidagi qarashlarini o‘zida aks ettirgan katta adabiy hodisa ekanligi asoslangan. Arab adabiyotidagi na’tlarning janr sifatida shakllanishida Hasson ibn Sobitning o‘rni beqiyosligi ochib berilgan.

Fors adabiyotida dastlab na’tlar qasida, g‘azal, qit’a, masnaviy shaklida bitilgan bo‘lsa, keyinchalik Firdavsiy “Shohnoma”, Faxriddin Asad Gurgoniy “Vis va Romin”, Asad Tusiy “Gershaspnom” dostonlarida, Nosir Xusrav devonida “Muhammad” radifli alohida na’t g‘azali bitilgan. Dastlab vASF na’tlar yozilgan bo‘lsa, VI asrdan me’roj voqeasi tasviri adabiy an’anaga aylangan. Turkiy adabiyotda na’t yozish an’anasini Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” dostonida boshlab bergen.

Sakkokiy “Dar na’ti Nabiy sallallohu alayhi va sallam” sarlavhali ramali musammani mahzuf vaznida yozgan vASF na’t qasidasida payg‘ambarning umumiy fazilatlarini madh etadi, mo‘jizalarini ta’riflab, Muhammad payg‘ambar (s.a.v.)ning me’roj mo‘jizasi bilan bog‘liq ta’riflarini keltiradi.

Ma’lumki, shoirlar na’tlarida qat’iy ravishda “Qur’on”ning Muhammad (s.a.v.) haqidagi oyatlar va hadislarga suyanganlar. Sakkokiy ham bu an’anadan devonining “Na’ti Nabiy sallallohu alayhi va sallam” qismida unumli foydalangan:

¹²² O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. – T., 2000. – B. 119.

Osi(y) ummatning panohi, yo Shafe' al-muznibin,
Jahl chohidin chiqorg'a sunnating hablul-matin (7-bet).

Shafe al-muznibin¹²³ – gunohkor osiylarni vositachilik qilib shafoat qiluvchi demakdir, **hablul** – **matin** esa, **habl** ip, arqon, ya'ni nodonlik chohiga qulab tushgan kishilarni chiqarmoq uchun **xalaskor arqondir**, degani. Sakkokiy payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v)ga murojaat qilar ekan, gunohkor ummatning panohisiz, ularni shafoat qiluvchisiz, arqonsiz jaholat chohidan chiqaruvchi, deydi.

Keyingi baytda esa:

Yo'lg'a kirg'anlarg'a xulqungdur yaqin sarmoyasi,
Yo'l yangilg'anlarga sha'ring shohrohedur mubin (7-bet).

Hidoyat yo'liga kirganlarga sening xulqing sarmoya – asosdir. Yo'ldan adashganlar uchun esa, sening yo'ling ravshan, shohrohedur – ulug' yo'ldir.

Kun chiqib yulduz qamug' mansux bo'lg'ondek qachon,
Chiqti ersa sunnating mansux bo'ldi o'zga din (7-bet).

Ya'ni Quyosh (kun) chiqib (qamug' – barcha, hamma, bari) barcha yulduzlar mansux bo'lganidek (mansux – amaldan to'xtamoq, ishlamay qolmoq), sening sunnating paydo bo'lgach, boshqa din mansux bo'ldi.

Sen basharsan yo malak, hayron bu yerda aqli kull,
Zarraga bo'lmas bale, xurshed kunhidin yaqin.
Bo'lsa ham oriz erur zotingg'a bu jismu bashar
Bo'ldi ne bo'ldi, necha kun dur sadaf ichra makin(7-bet).

Muallif keyingi baytlarda Nabi (s.a.v) ni ulug'lab, unga murojaat davom ettirar ekan, Sen basharsan yoki malaksan deydi. Bashar – odam avlodi, lug'aviy ma'nosi esa, boshqa hayvonlardek odam jasadini o'rab olgan jun mavjud emas. Shu jihatdan odam boshqa yaratilmishlardan farq qiladi. Malak esa farishtadir. Sen basharsan yoki malaksan, hamda butun yaratilmishlarning aqli hayron (aqli kull), Quyosh (xurshed) mohiyatan (kunhidin) zarraga teng bo'lmasligi aniqdir (yaqin). Agar dur-sadaf kabi yaratilgan bu jism-u bashar mavjud bo'lganda ham, u sen uchun oriyatga, omonatga olingandir.

¹²³ Farhangi zaboni tojiki, nashriyoti sovetskaya ensiklopediya. – Moskva, 1969. Ctp. – 125.

Odam o‘g‘li sen vale, Haq garchi odam suratin,
Qildi rahmat suyini qudrat ili birla ajin (7-bet).

Sen odam o‘g‘lisan, garchand Alloh odam suratini muruvvat suvi hamda qodirlik qo‘li bilan qorigan. “Yaratilishining ilk davridan boshlab inson o‘zining komil va go‘zal suratida bo‘lgan. Balki Alloh taolo uni eng go‘zal suratda, eng chiroyli xilqatda yaratgan”. Bu haqiqatni Alloh taolo Qur’oni Karimda alohida ta’kidlab, shunday marhamat qiladi: Biz insonni eng go‘zal tuzilishda yaratdik (Tiyn surasi, 4-oyat)¹²⁴. Odam alayhissalom bilan yerga, Ka’baga o‘rnatilgan Hajar al-Asvat, ya’ni qora tosh ham tushgan. Odam Ato yer yuzida juda uzoq vaqt (2000 yil atrofida) yashagan va vafotidan keyin Makkada dafn etilgan va toshqindan keyin uning jasadi Quddusga ko‘chirilgan. Xotini eridan 40 yil keyin vafot etgan. Uning qabri Jidda shahrida bo‘lib, Maqbarut ul-Ummi Havva (Havvo maqbarasi) deb nomlanadi. 1975-yilda Saudiya Arabiston hukumati tomonidan qabr ustiga maqbara qurilgan¹²⁵.

Nur bahridin arig‘ zoting erur duri yatim,
Ne deb ayto yin aningdek gavhar aslin movutin (7-bet).

Sening zoting nur ummonidagi bir sadaf ichida yakka o‘zi yetilgan donador dur bo‘lib, bu dur (gavhar) loyqa suvning tingani kabidir. “Batahqiq, sizlarga o‘zingizdan bo‘lgan, mashaqqat chekkaningiz uning uchun og‘ir bo‘lgan, siz (ning saodatga yetishishingiz)ga tashna, mo‘minlarga mushfiq, mehribon Rasul keldi”¹²⁶.

Avval odamg‘a vadi’at qo‘ydi nuringni O‘g‘on,
Ushbu sirni bilmag‘onlar bo‘ldi mardudi lain (7-bet).

Alloh (O‘g‘on) Muhammad s.a.v.ning nurlarini yaratib, uni Odam a.s.ga omonatga (vadi’at) berdi. Va bu sirni bilmaganlar la’natlandi.

“Kunt-u kanzan” din xazoyin Xozini zoting erur,
Ore–ore ul amonatg‘a kerak sentek Amin (7-bet).

¹²⁴ Tiyn surasi (arabcha: ison’am gninimon ، نَبِيٌّ مُّصَدِّقٌ – Anjir[8][9]) – Qur’onnning 95-surasi. Makkiy suralardan biri, 8 oyatdan iborat. Bu sura Qur’onnning 597-sahifasida va 30-juzida joylashgan. 28-bo‘lib nozil bo‘lgan.

¹²⁵ <https://islam-today.ru/istoria/kak-nacinalas-istoria-celovecestva/>

¹²⁶ Tavba surasi, 128-oyat

Kuntu kanzan bir xazina bo‘lsa, xazinachisi sensan va, albatta, bu xazinaga sendek Amin (omonatga xiyonat qilmaydigan, payg‘ambarimizning sifatlaridan biri) kerak. “Kuntu kanzan”¹²⁷ haqida hazrat Navoiy 1499-yil yozilgan “Lison ut-tayr” dostonida ham aytib o‘tgan. Parvardigor o‘z sirlari xazinasini namoyon qilmoqchi bo‘lganda, uni na samo na yer qabul qildi. Insondan o‘zga jamiki jonliyu jonsiz mavjudodlar jaholatga botib uning xitobini anglamadi.

Aylaganda rozning ganjini arz,
Ne samo aylab qabul oni, ne arz¹²⁸.

Binobarin, inson boshqa barcha narsalardan mumtoz qilib yaratildi va “kuntu kanzan...” siridan xabardor etildi. Odamzod boshiga to‘g‘ri yo‘ldan borish toji¹²⁹ kiydirildi. Sharaf me’rojiga yuksalish uning qismati bo‘lib qoldi. Jaholatga botgani uchun osmon-u yer sharaf tojiga munosib ko‘rilmagan ekan, baniy odam orasidagi johil-u nodonlar mumtozlik maqomiga munosibmi? Yo‘q. Faqat “kuntu kanzan” siridan voqif insongina bunday sharafga loyiq. Ammo bu qanday sir? Bu Allohnинг kalomiga ishora bo‘lib, Alloh taolo aytadi: “Men bir maxfiy Xazina erdim, tanilmoqlikni istadim. Olamni yaratdim, to qudratimni namoyon esam, Odamni yaratdim, to o‘zimni (rahmatim va mag‘firatimni) oshkor etsam”¹³⁰.

“Li ma’alloh” hujrasinda sendin o‘zga sig‘madi,
Mahram ermas sir saroyinda sanga Ruhul – amin (7-bet).

Sendan o‘zgasi Alloh dargohida bo‘la olmadi, hattoki, Jabroil a.s. ham. Jabroil a.s.ning yana bir nomi Ruhul–amindir. Farishtalar bajaradigan ishlarning eng ahamiyatlisi, Allohnинг vahiysi payg‘ambarlarga yetkazishdir. Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomga Qur’on oyatlarini keltirgan farishtaning ismi Jabroildir. Qur’on uni “Ruhul amin” va “Ruhul qudus” deb ham ataydi. Farishtalarning vazifalaridan yana biri payg‘ambarlarni qo‘llab–quvvatlash, ularning og‘irini yengil qilishdir. Bu baytda Muhammad s.a.v.ning me’roj kechasidagi haqida gap ketadi. Me’roj kechasida payg‘ambarimiz Buroq otiga minib, Jabroil

¹²⁷ Farhangi zaboni tojiki, nashriyoti sovetskaya ensiklopediya. – M., 1969. – B. 89.

¹²⁸ Mamadaliyeva Z. Lison ut– tayr obrazlari: ramz va majoz olami. – T.: Fan, 2022.

¹²⁹ Toji Lavlok – Agar sen bo‘lmaganingda. (qisq. Lavloka lamo xalaqtul-afloka, agar sen bo‘lmaganingda falaklarni yaratmagan bo‘lur edim) Muhammad s.a.v. uchun aytilgan.

¹³⁰ <https://www.musulmonlar.com/sidratul-munta-o-nima/> – B. 162.

a.s. uni yetti qavat osmonni sayr qildirib, “sidrat ul-muntaho”¹³¹ degan manzildagi daraxtgacha yetkazdilar. (Sidr daraxti asosan Arab o’lkalarida o’sadigan daraxt bo‘lib, u biroz tikonli bo‘ladi. Insonlar uning mevasidan ko‘ra soyasidan ko‘proq foydalanishadi. Suvda o’sadigan gulga ham sidr deyiladi. Sidra kalimasi Qur’oni Karimning 4 oyatida hammasi bo‘lib 4 marta keltirilgan. Ular orasidan Najm surasida aynan “Sidrat ul-muntaho” deb keltirilgan. Sidrat ul-muntaho daraxti qayerdagи va qaysi daraxt ekani haqida esa quyidagi oyat va hadislardan bilib olamiz. Aloqador oyat va hadislар quyidagicha: “Muhammad s.a.v. (vahiyini o’rgatgan malakni) o’zgacha bir tushishda ham ko‘rdi. O’shanda u Sidrat ul-muntahoni yonida edi. Jannat ul-Ma’vo esa, Sidrat ul-muntahoni yonida edi. O’shadamda, Sidrat ul-muntahoni nimalar qoplagan edi, nimalar! Ko‘zi hech qayerga burilgani ham yo‘q, haddan oshgani ham yo‘q. Haqiqatda, u Rabbining buyuk oyatlaridan bir qismini ko‘rdi.” (Najm 53/13-18). Sidrat ul-muntaho yettinchi qat samodadir. (Buxoriy, Bad’ul Xalq 6.)

Shu joyda Jabroil a.s. qolib, payg‘ambar s.a.v. yolg‘iz o‘zi Alloh dargohi tomon yuradi. Sakkokiy aytadiki, sen sir saroyiga borganda hatto Ruhul Amin (Jabroil a.s.) ham senga hamroh bo‘la olmadi.

Sen basharsan, ming malak bandangdurur, ey joni pok!

Ofarin ul pok joningg‘a, hazoron¹³² ofarin(7-bet).

Bu misrada muallif Hazratga “ey joni pok” deya murojaat qiladi. Sen odam avlodisan va barcha farishtalar senga xizmatkordir. Sening bu pok joningga ofarin, ming bor (hazoron) ofarin (M.Hasanova, H.Sheraliyev tomonidan tayyorlangan nashrida “xazoron” shaklida berilgan).

Anbiyo-yu mursalin xalqa tutub o‘ltursalar,

Barcha bir angushtari-yu sen ular aro nigin(7-bet).

Shu o‘rinda anbiyolar bilan mursalinlarning farqlarini tushunib olsak. Anbiyo¹³³ – payg‘ambarlar demakdir. Mursalin ham – payg‘ambarlar, o‘zagi “rasala” – yuborilgan degani. Ammo anbiyo bilan mursalinni farqi bor. O‘zi bilan

¹³¹ <https://www.musulmonlar.com/sidratul-munta-o-nima/>

¹³² O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. – T., 2000. – B. 717.

¹³³ arabcha nabiy, payg‘ambar so‘zining ko‘pligi

shariat olib kelgan anbiyolar “mursalin” deyiladi. Demak, baytda barcha payg‘ambarlar, anbiyo–yu mursalinlar uzukka o‘xshab xalqa hosil qilib o‘tirsa, sen o‘sha uzukning ko‘zisan deyiladi.

Ne bashar topti bu joh-u manzilatni ne malak,

O‘z qulig‘a Xojadin izzat hamin bo‘lg‘ay hamin (8-bet).

Yer yuzidagi barcha insonlar o‘z martabasini topa oladimi, sensiz qanchadan qancha farishtalar o‘z manzilini topa oladimi?! Xo‘jayindan o‘z quliga hurmat bo‘lsa, shunchalik bo‘lar!

Ey Muhammad, otingu Mahmud zotingga maqom,

Qullaringg‘a kamtarin nuzli erur Xuldi barin (8-bet).

Bu baytda esa, ey Muhammad isming jismingga mos mahmuddir¹³⁴. Qullaring uchun jannatdan kelgan mehmonsan, deydi.

Qul qilur G‘ilmon o‘zin, topsa Buroqing soyasin,

Subsa qilg‘oy zulfini, qilsang kanizak Huri iyn(8-bet).

Bu bayt yanada ta’sirli yozilgan. Agar g‘ilmonlar¹³⁵ buroqingni gar soyasini ko‘rsa o‘zini uning uchun qul qilmoqqa tayyor bo‘ladi. Nafaqat g‘ilmonlar, balki Huri iynlar¹³⁶ ham zulfini (sochlarini) subsa (supurgi) qilishga tayyordir, deydi Sakkokiy.

Beli bog‘liq bandadur shirin so‘zingga nay shakkar,

Xalqa dar go‘shi erur alfozingg‘a duri samin (8-bet).

Bu o‘rinda Sakkokiy ajoyib tashbeh ishlataladi: shakarqamishdan yasalgan nay kabi so‘zlarining bilan belini bog‘laganlar sening shirin so‘zingga tobedur. Qimmatbaho dur kabi so‘zlarining ularning qulog‘idagi halqadir.

Ul javod ilging kafidin kon-u daryog‘a yasor,

Bosqon izing tuprog‘idin Arsh-u kursiga yamin (8-bet).

Chap tomoningda javod¹³⁷ qo‘llaring kaftidagi kabi daryolar bor, o‘ng tarafingda esa sen bosgan tuproqdan yasalgan Arsh-u kursi bor.

¹³⁴ maqtalgan, maqtovga sazovor bo‘lgan.

¹³⁵ o‘g‘il bolalardan bo‘lgan jannah xizmatkorlari.

¹³⁶ qiz bolalardan bo‘lgan jannah xizmatkorlari.

¹³⁷ saxiy, saxovatli, qo‘li ochiq.

Barmoqing qilsa ishorat ikki bo‘lur ko‘kda oy,

Bir ovuch tuproqni sochsang, tortar a’loning ko‘zin (8-bet).

Ushbu misrada “agar barmog‘ing bir ishora qilsa, oy ikkiga bo‘linadi”, deyilgan. Shu o‘rinda misra tushunarli bo‘lishi uchun payg‘ambarimizning oyni ikkiga bo‘lganligi mo‘jizasi haqida ma’lumot berishni lozim topdik. “Shaqqi qamar¹³⁸ mo‘jizasi Sarvari Olam (s.a.v.) payg‘ambarlik bilan vazifalantirilganlaridan so‘ng voqe bo‘ldi. Quraysh qabilasining peshvolaridan bir guruh mushriklar Allohning rasulidan payg‘ambarligini isbotlaydigan bir mo‘jiza ko‘rsatishlarini so‘rashga kelishib olib, bir joyga to‘planishdi. Kechaning ilk soatlari edi. Payg‘ambarimiz (s.a.v.) porloq oyning yorug‘i ostida Hazrati Ali, Huzayfa ibn Yamon, Abdulloh ibn Mas’ud, Anas ibn Molik, Abdulloh ibn Abbos, Jubayr ibn Mut’im va Abdulloh ibn Umar (r.a.) kabi sahabalar davrasida suhbat qurib o‘tirar edilar. Mushriklar nurli halqa atrofini o‘rab olib, payg‘ambarimizdan mo‘jiza ko‘rsatishlarini qayta-qayta talab etishdi. Nihoyat, Faxri Koinot (s.a.v.) o‘rinlaridan turib, muborak qo‘llarini osmonda oltin tovoq bo‘lib nur sochayotgan oyga qaratdilar. Yaratilganidan beri vazifasidan bir soniya ham adashmagan oy koinotning yaratilishiga sabab bo‘lgan u Zotning (s.a.v.) bir ishoratlari ila shu zahoti ikkiga bo‘lindi. Mino tog‘i oyning ikki parchasi o‘rtasida qolib, muhtasham bir manzara yuzaga keldi. Sarvari Koinot (s.a.v.) atroflaridagi sahabalariga “Shohid bo‘linglar! Shohid bo‘linglar!” deya takrorlar ekanlar, Quraysh kofirlari hayronlik bilan bir-biriga qarar, “Muhammad bizni sehrlab qo‘ydi”, der edi. Mushriklardan biri: “Muhammad (s.a.v.) bizni sehrlab qo‘ydi, xolos: U ko‘zimizga oyni ikki parcha qilib ko‘rsatdi. Bu hodisani atrofdan kelayotgan qabila va karvonlardan so‘rash kerak”, – dedi. Tabiiyki, bu taklif boshqalarga ham ma’qul bo‘ldi. Ertasi kuni ertalab Yaman va boshqa taraflardan kelgan karvonlarga savollar yomg‘irdek yog‘ildi. Karvonlar, asosan, kechalari yo‘l yurgani uchun, Oyning ikkiga bo‘linganiga ular ham guvoh bo‘lgan edi. Makkalik qaysar mushriklar endi: Abu Tolibning asrandisi ko‘rsatgan sehr samoga ham ta’sirini o‘tkazdi, deya boshlashdi. Va garchi Sayyid ul-Basharning (s.a.v.) yonlarida hozir

¹³⁸ Sulton I. Navoiyning qalb daftari. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMU, 2010. – B. 299.

bo‘lishlariga qaramay, bu mo‘jizani ko‘rgan boshqa mushriklar kabi, kufrlarida sobit qoldilar. O‘sha asnoda Allohning kalomi nozil bo‘ldi: “(Qiyomat) soati yaqinlashib qoldi va oy ham bo‘lindi. Agar ular (Quraysh kofirlari Muhammad alayhissalomning haq payg‘ambar ekanliklariga dalolat qiladigan) biron oyat-mo‘jiza ko‘rsalar (ham, u payg‘ambarga iymon keltirish o‘rniga) yuz o‘girurlar va “(Bu) har doimgi sehr-ku!” derlar. Ular (payg‘ambarni) yolg‘onchi qildilar va havoyi nafslariga ergashdilar. Har bir ish o‘z joyini topguvchidir (ya’ni garchi kofirlar yuz o‘girsalar-da, bu haq din Yer yuzida qaror topur)¹³⁹.

Keyingi misrada bir hovuch tuproqni sochib, dushmanning ko‘zlarini ko‘r qilgansan, deyilmoqda. Bu o‘rinda esa, “Husayn g‘azoti” haqida gap ketmoqda. Alixonto‘ra Sog‘uniyning “Tarixi Muhammadiya” asarida shu haqda ma’lumot berilgan: Makkaning fath bo‘lgani, Quraysh mushriklarining yengilgani butun Arabistonga tarqalib ma’lum bo‘ldi. Shu bilan Islom dinining shon-shavkati ko‘tarildi. Barcha arab qabilalariga qo‘rqinch tushdi. Butparastlik davlati yiqilib, Islom davlati rivojga kirdi. Arab qabilalari ersa, qaysi biri qo‘rqqanidan, qaysi biri suyganidan dinga kirisha boshladilar. Yolg‘izlanib qolgan toyifliklar va uning atrofidagi Havozin, Saqif qabilalari tushunmaslikdan, o‘jarlik qilishib, Rasulullohga qarshi urushmoqchi bo‘ldilar. Aynan shu urush tarixga “Husayn g‘azoti” nomi bilan kirgan bo‘lib, dushman g‘olib kela boshlagan paytda edi: Mana shu chog‘da Rasululloh sollallohu alayhi vasallam yerdan bir hovuch tuproq olib: “Yuzlari qora bo‘lsin!”, deb hujum qilib kelayotgan qalin dushmanga qarab otdilar. Alloh amri bilan bir changal tuproq butun dushman askarining og‘iz-ko‘zlarini to‘ldirdi. Ilohiy kuch bilan otilmish bir siqim tuproqqa qarshi turolmay, seldek kelayotgan dushman askari orqa o‘girib qochdilar. Rasululloh ersalar bu holni ko‘rgach: Men Abdulmuttalib o‘g‘li, shaksiz Allohning payg‘ambariman, degan so‘zлarni aytib, askarni urushga qizdirdilar¹⁴⁰. Bu haqda shu oyat nozil bo‘ldi: Va yavma Hunaynin iz a’jabatkum kasratukum falam tug‘ni ankum shay’an. Ya’ni

¹³⁹ Qamar surasi, 1-3 oyatlar.

¹⁴⁰ Sulton I. Navoiyning qalb daftari. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2010. – B. 299.

Husayn urushida ko‘pchilik bo‘lganlaringga ishondinglar, u ersa sizlarga foyda bermadi¹⁴¹.

Vuslatingdin goh kirur tilg‘a pishiq buzg‘olai,
Furqatingdin goh qilur Hannona zori-yu anin (8-bet).

Seni ko‘rgach (vuslat – o‘zagi vasl) pishirilgan echki ham tilga kirgan. Pishirilgan echki go‘shtining tilga kirishi Xaybar jangida¹⁴² bo‘lgan. 628–yili Muhammad s.a.v. boshchiligidagi musulmonlar bilan Xaybar vohasida yashovchi yahudiylar o‘rtasida jang bo‘lib o‘tadi. Musulmon qo‘sishnlari Xaybarga yurish qilib, musulmonlar bilan kelishuvni buzganidan keyin qal’alarda to‘sinq o‘rnatgan yahudiylar bilan jangga kirishgan. Xaybar urushida musulmonlar g‘alaba qilishgan, mag‘lub tomon echki go‘shtini pishirib, unga zahar solib, Rasullullohga jo‘natadi. Shunda echki tilga kirib, “men zaharlanganman”, – deydi.

Ikkinchisi misra Rasulullohdan ayrilishni istamagan “Hannona” – “Yig‘laguvchi” (masjid ustunining nomi) haqidadir. Alixonto‘ra Sog‘uniyning “Tarixi Muhammadiya” asarida Payg‘ambarimiz bilan bog‘liq jami ellik ikkita mo‘jiza sanalgan. Ushbu mo‘jizalardan o‘n to‘rtinchisida Hannona degan ustunning yig‘lagani haqida aytildi. Imom Buxoriy ham buni “Mutavotir¹⁴³” hadis deb atagan. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Makkadan Madinaga hijrat qilib kelganlarida, dastlab bir masjid bino qildilar. Uning uzunligi yuz gaz, eni qirq gaz kelur edi. Bunga xurmo yog‘ochidan bir necha ustun qo‘yilg‘on edi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam har vaqt juma namozi o‘qisalar, shu ustunlarning biriga suyanib turib, shu yerda xutba o‘qib, xalqqa va’z aytur edilar. U kunlarda minbar qo‘yish rasm bo‘lmagan edi. Sahobalardan Tamimud–doriy roziyallohu anhu: – Yo Rasulalloh, siz uchun bir minbar yasasak, ustida va’z aytgudek bo‘lsangiz, qanday bo‘lur? – deb so‘radi. – Yaxshi bo‘lur, – deb ruxsat berdilar. So‘ngra bir minbar yashashdi. Uni keltirib, imomning o‘ng tomoniga qo‘ydilar. Islom olamida eng avval yasalgan va masjidga qo‘yilgan minbar shul

¹⁴¹ “Tavba” surasi, 25-oyat.

¹⁴² https://uz.wikipedia.org/wiki/Xaybar_jangi

¹⁴³ Mutavotir hadisga ulamolar shunday ta’rif berganlar: Yolg‘onga kelishib olishlari mumkin bo‘lmagan darajada ko‘p roviydan rivoyat qilingan hadis mutavotirdir”.

edi. Juma kuni kelgach, jamoat namozga yig‘ildi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam odatlaricha xutba o‘qimoqqa turib, ustun oldidan to‘xtamay o‘tib ketdilar. Mana shu chog‘dayoq ul ustun ingray boshladi. Bo‘talog‘idan ajragan tuya singari bo‘zlagani turdi. Rasululloh minbar ustiga chiqib edilar, bola baqirgandek bo‘lib yana qattiqroq yig‘ladi. Silkinib ketib, yorilishga yaqinlashdi. Buni ko‘rib, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam darhol minbardan tushib ul ustunni quchog‘lab turdilar. Uzoqroq yig‘lab qolgan yosh bolani onasi olib ovutganda o‘ksib-o‘ksib yig‘lagandek, Rasululloh quchog‘larida turib, bu ustun ham shuning singari o‘ksib yig‘ladi. Anda Rasululloh: –Buning oldida har juma Alloh zikri aytilib, andin bahra olur edi. Shundan ajrab qolganiga yig‘laydi, –dedilar. Buni ko‘rib sahobalar barisi yig‘lashgali turdi. Masjid ichi larzaga kelib yig‘i-sig‘iga turdi. Anda Rasululloh: –Qasam Allohgakim, buning yig‘isini o‘zim kelib to‘xtatmasam, qiyomatgacha shu ahvolda bo‘zlab yig‘lar edi, – dedilar. Shundan keyin bu ustun oti “Hannona”, ya’ni “Yig‘laguvchi” bo‘ldi. U yig‘idan to‘xtagach, unga Rasululloh aytdilar: – Ey Hannona! Xohlasang qaysi chorborg‘dan seni kesib kelgan bo‘lsalar, o‘shal bo‘stonga eltib o‘ltirgizay, yangidan ildiz olib ko‘karursan. Agar buni xohlamasang, seni jannatga ko‘chat qilib o‘ltirgizurman. Jannat ahllari, Xudoning do‘satlari mevangdan yegaylor, bu ikki ishdin birini ixtiyor qil, – deb uning javobiga quloq solib turdilar. Anda ul: – Yo Rasulalloh, meni jannatga ko‘chat qilib o‘ltirgizing, shuni xohlayman. Mening mevamni Allohnинг do‘satlari yegaylor, foniy dunyo bo‘stonida bo‘lishni istamayman, eskirmaydigan jannatda turishni tilayman¹⁴⁴, – dedi.

Do‘satlaring oldida yerdek past Xaybar qal’asi,
Dushmaning daf‘ig‘a o‘rgamchi o‘yi Hisni Hasin (8-bet).

Birinchi misra Rasululloh s.a.v.ning Xaybar qal’asini ishg‘ol qilishi haqida bo‘lsa, ikkinchi misra Hisni Hasin haqidadir. Hisni Hasin – o‘rgimchak to‘rlaridan yasalgan mustahkam qal’a. Bu haqda imom Ahmad ibn Hanbal Abdulloh ibn Abbas¹⁴⁵ roziyallohu anhudan quyidagi rivoyatni keltiriladi: Quraysh bir kecha

¹⁴⁴ Sulton I. Navoiyning qalb daftari. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMU, 2010. – B. 299.

¹⁴⁵ hadis va fiqh sohasidagi olim, shuningdek, hanbaliyya mazhabining asoschisi.

Makkada mashvarat qildi. Kimdir “Ertalab Muhammadni ushlab, bog‘lab qo‘ying-lar”, dedi. Boshqalari esa “Yo‘q, uni o‘ldirish kerak”, deyishdi. Ba’zilari “Makkadan chiqarib yuboringlar”, dedi. Alloh taolo Payg‘ambari sollallohu alayhi vasallamga buni bildirdi. Hazrati Ali Rasulullohning to‘shaklariga kirib, yotdi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam esa Makkadan chiqib, g‘orgacha yetib oldilar. Mushriklar Ali roziyallohu anhuni Rasululloh sollallohu alayhi vasallam deb o‘ylab, kechasi bilan poylab chiqdilar. Ertalab yopirilib kirib, Alini ko‘rganlarida Alloh ularning makrlarini o‘zlariga qaytardi. Ular: Og‘ayning qani? deb so‘radilar. Hazrati Ali: “Bilmayman”, dedi. Ular Rasulullohning izlaridan axtarib ketdilar. Toqqa yetganlarida adashtirib yubordilar. Tog‘ tepasiga chiqib, g‘or yonidan o‘tdilar. G‘orning og‘zida o‘rgimchak uyasini ko‘rib: Agar u bu yerga kirganida, o‘rgimchak uyasi bo‘lmas edi, deb, o‘tib ketdilar. Rasululloh o‘sha joyda uch kun qoldilar¹⁴⁶. Kufr keltirganlarning seni qamash, o‘ldirish yoki chiqarib yuborish uchun makr qilganlarini esla. Ular makr qildilar va Alloh ham “makr” qildi. Alloh “makr” qilguvchilarning eng yaxshisidir¹⁴⁷

Ikki dunyoni sening haqqiningda paydo qildi Haq,

Xud na bo‘lg‘ay xidmat¹⁴⁸ingda Turk-u Hind-u Rum-u Chin (8-bet).

Alloh taolo ikki dunyoni sen uchun yaratdi¹⁴⁹ hamda Turk, Hind, Rum va Chin, xud (albatta), xizmatingda bo‘ladi. Dunyo xaritasidan qarasak, Rum g‘arbda, ularga nisbatan turklar esa shimalroqda, hindlar janubda, Chin diyori esa sharqda joylashganini ko‘ramiz. Ikkinci misrada kelgan Turk, Hind, Rum hamda Chin so‘zlari ramziy ma’noda dunyoning to‘rt tomoni degan taxminni ilgari sursak, noto‘g‘ri bo‘lmaydi.

Barcha olam osiy sen qo‘lsang, bag‘ishlar Haq senga,

Chun tufaylingdur bu xalqi avvalinu oxirin.

Pok joningni haqqi ulkim, erur o‘z nuridin,

Ul O‘g‘on haqqi seni kim qildi barchadin guzin (8-bet).

¹⁴⁶ Alixonto‘ra Sog‘uniy. “Tarixi Muhammadiya”. <https://forum.ziyouz.com/index.php?topic=436.0> Doniyor va Laylo tayyorlagan. www.ziyouz.com 2007.

¹⁴⁷ “Anfol” surasi, 30-oyat.

¹⁴⁸ Hizmat, ish, yumush.

¹⁴⁹ Lavloka lamo xalaqtul-afloka, agar sen bo‘limganiningda falaklarni yaratmagan bo‘lur edim.

Agar sen qo'llasang (shafoat qilmoqchi bo'lsang), Alloh dunyodagi barcha gunohkorlarni senga bag'ishlaydi. Chunki bu xalq – bashariyat avval-u oxir sen tufayli yaratilgan. Alloh taolo seni o'z nuridan yaratib, barchadan ustun (guzin¹⁵⁰) qildi.

Rahm qil, mahshar kuni Sakkokiy osi jonig'a,
Yo shafe'al muznibin¹⁵¹, yo rahmatan lil-olamin¹⁵².

Sakkokiy devonining na't qismi yakunida, muallif Rasulolloh salollohi alayhi vasallamga murojaat etib: “ey shafoat etuvchi, mahshar kuni mening gunohkor joninga rahm qil”, – deydi. Odam atodan to qiyomatgacha yashagan odamlar qayta tirilib yig'iladigan joy mahshar maydonidir. “Sog'lom e'tiqod – mo'minga najot” kitobida shunday savol-javob bor: Agar Odam atodan to qiyomatgacha yashagan odamlar qayta tirilsa, mahshar maydoniga qanday sig'adi? – Javob: trillionlab yulduzlar sig'adigan koinotni yaratgan Zot barcha insonlar sig'adigan maydon yaratishga ham qodirdir. Osmondagi minglab yulduzlarni kichgina ko'zimizga sig'dirgan Zot mashhar maydoniga ham istaganicha insonni sig'diradi¹⁵³. Mavlono Sakkokiy na't qasidasining so'nggi baytida Rasulolloh salollohi alayhi vasallamdan mahshar kuni o'zining gunohkor joniga shafoat so'rab “Senga olamlarning rahmati bo'lsin”, – deya tugatadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Sakkokiy na't qasidasida Muhammad (s.a.v) vasf qilar ekan, Qur'on oyatlari, hadislarga suyanadi va o'ziga xos tarzda obraz tasvirini badiiyat darajasiga ko'taradi. Bizning fikrimizcha, hamd va na'tlar muallif dunyoqarashini oydinlashtirishda muhim ahamiyatga ega. “Hamd” va “na't”da qasida xususiyati bor, ya'ni ta'rif-tavsifi, til uslubi ko'tarinki ruh bilan yozilgan¹⁵⁴. Demak, mohiyat e'tibori bilan Sakkokiy hamd va na't qasidalari yuksak ma'naviy-axloqiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega: ular kishini imonga, har bir ishni bilib qilishga, har bir qadamni o'ylab bosishga chorlaydi va eng avvalo, shoirning diniy

¹⁵⁰ Tanlangan, ma'qul va maqbul bo'ladigan, sara.

¹⁵¹ Shafoat etuvchi.

¹⁵² Olamlarning rahmati bo'lsin, payg'ambarimizning muborak nomlariga qo'shib aytildi.

¹⁵³ Sayfuddin Sayfulloh Odilxon qori Yunusxon hoji o'g'li. Sog'lom e'tiqod – mo'minga najot. – T.: Sharq, 2014.

¹⁵⁴ Muhiddinov M. Komil inson-adabiyot ideali. – T.: Ma'naviyat, 2005. – B. 208.

– so‘fiyona qarashlarini o‘zida mukammal aks ettirgan islom va tasavvuf falsafasi g‘oyalarini badiiy-teran umumlashtira olgan san’at asarlaridir.

Bob bo‘yicha xulosalar

1.Mavlono Sakkokiy hayoti, uning ijodiy faoliyati haqidagi ma’lumotlar juda kamligi va borlari ham uning tarjimayi holi hamda ijodkor shaxsini to‘liq tavsiflash uchun yetarli emasligi aniqlandi. Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois”, “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarlarida XIV asrning oxiri va XV asrning birinchi yarmida yashab o‘tgan turkiygo‘y shoir Sakkokiy mumtoz o‘zbek adabiyotida qasidanavislik asoschisi ekanligi haqida qimmatli ma’lumot beruvchi ilk manba hisoblanadi.

2.XV asrgacha mukammal tartib berilgan devonlar u qadar ko‘p emas. Sakkokiy “Devon”i Sharq xalqlari adabiyoti tarixidagi devon tuzishning odatiy talablariga mos keladi. Biroq Britaniya Muzeyida (taxminan XVI asr o‘rtalarida ko‘chirilgan nusxa) 2079, O‘zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida (1937-yil Shoislom kotib tomonidan ko‘chirilgan nusxa) 7685 raqami ostida saqlanayotgan nusxalar to‘liq va mukammal nusxasi emasligi kuzatilgan.

3.“Devon”da o‘sha davr adabiy hayotida mavjud bo‘lgan she’r shakllari: g‘azal – 57 ta, 1 hamd, 1 na’t va 11 madh qasidani ko‘rish mumkin. “Devon”dagi hamd va na’t qasidalarida qo‘llanilgan poetik vositalar, ifoda usullari, badiiy san’atlar shoirning badiiy mahorati va ijodining o‘ziga xos qirralarini yorqin ko‘rsatishga asos bo‘ladi.

4.Islomiy qadriyatlar yoritilgan hamd va na’t qasidalarini bilan Sakkokiy o‘zbek falsafiy-didaktik she’riyatini boyitdi. Hamd va na’t qasidalarini mazmuniga singdirilgan fikrlar faqat o‘tmish uchun emas, balki hamma davrlar uchun ham tarbiyaviy va ta’limiy qimmatga egadir. Asar bugungi kunda ham insonlarning ma’naviy-ruhiy ehtiyojlariga mos keladi, ularning diniy-ma’rifiy jihatdan yuksalishlarida va jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashishda muhim ahamiyat kasb etadi.

II BOB. TURKIY SHE'RIYAT AN'ANALARINING SAKKOKIY IJODIDAGI BADIY SINTEZI

2.1.§. Obrazlar tizimida majoziy tasvir

XV asrning birinchi yarmida yashab o'tgan turkiy shoirlar adabiyot, san'at va madaniyatni boyitishga munosib hissa qo'shishgan. Shunday ijodkorlardan biri o'zbek mumtoz she'riyatining Navoiyga qadar yetishgan yirik turkiygo'y shoiri Sakkokiydir. Shoirning o'zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyoti, ravnaq topishi, badiiy so'z san'atida ma'lum darajada munosib o'rni bor. Bunga asos, nazarimizda, uning xalq og'zaki boy ijodidan yaxshi xabardorligi, shuningdek, salaflari asarlarini puxta o'rgangani va ulardan ijodiy oziqlanganligi, deb o'ylaymiz. Sakkokiy ijodini kuzatar ekanmiz, uning o'zbek va fors-tojik tilidagi manbalarni puxta o'rganib chiqqanligi va ulardan o'z asarlarida ijodiy foydalanganligini ko'rishimiz mumkin.

Zero, so'z san'atining bor jozibasi-yu go'zalligi, sir-u sinoati aynan lirkada namoyon bo'ladi. "Adabiy turlarning biri lirkaga mansub asarlarning serta'sirligini ta'min etadigan va uni tavsiflaydigan eng muhim xususiyati ijobiy ma'nodagi subyektivligidir. Lirk asarda dunyo ijodchining ichki dunyosi orqaligina o'z ifodasini topadi. Shuning uchun lirika shoirni o'quvchi bilan sirdosh qilib qo'yadi. Sirdoshlik esa o'ta yaqinlidir"¹⁵⁵. Ma'lumki, mumtoz adabiyotimizda g'azal mudom yetakchi janr bo'lib kelgan va bu janr inson tuyg'ulari, ayniqsa, ishq-muhabbatni ifodalashga qulay imkoniyatlar yaratdi.

Fors-tojik g'azalchiligi juda katta va ibratli tarixga ega bo'lganidek, turkiy tilda ijod qilgan shoirlarning g'azaliyoti ham alohida nufuzga loyiqligi professor A.Hayitmetov, N.Mallayev, Y.Is'hoqov, R.Orzibekov, O.Nosirov, N.Rahmon¹⁵⁶ kabi o'nlab olimlarimiz tadqiqotlarida atroflicha yoritib berilgan. Ustoz Maqsud Shayxzoda g'azallarni oshiqona, orifona, rindona turlarga ajratgan. Shu tasnifning o'ziyoq g'azalning tasavvuf ta'limoti bilan bog'langani, unda diniy-irfoniy

¹⁵⁵ Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – T.: O'qituvchi, 1980. – B. 251.

¹⁵⁶ Hayitmetov A. Navoiy lirkasi. – T.: Fan, 1961; Mallayev N. So'z san'atining gultoji. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991; Is'hoqov Y. Navoiy poetikasi. – T.: Fan, 1983; Orzibekov R. O'zbek lirk poeziyasida g'azal va musammat. – T.: Fan, 1976; Nosirov O. O'zbek adabiyotida g'azal. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1972; Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi. – T.: Sano-standart, 2017.

g‘oyalar ham muhim o‘rin egallashidan guvohlik beradi. Demak, g‘azal janrini jo‘sinqin bir daryo, deb tasavvur etadigan bo‘lsak, uning bir sohili majoz, ikkinchisi ilohiy ishq sohiblariga tegishlidir. Mumtoz adabiyotimizning barcha vakillari kabi Sakkokiy ham bu janrda sermahsul ijod qilib, adabiyotimiz xazinasini o‘ziga xos go‘zal lirik asarlar bilan boyitgan.

Mavlono Sakkokiy ijodi haqida so‘z borganda, shuni alohida e’tirof etish lozimki, hali turkiy tillar huquqlari tiklanmagan, Husayn Boyqarodek shohlarning turkiy tilda ijod qilishga da’vat qiluvchi farmonlari berilmagan, barcha fors-tojik tilida ijod etayotgan davrda Sakkokiyning turkiy tilda ijod qilishi, turkiy tilning go‘zal va jozibador xususiyatlarini ijod namunalarida ko‘rsata bilishini katta bir jasorat deyish mumkin. Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” nomli tazkirasida to‘rt yuz ellik to‘qqiz shoir haqida ma’lumot bo‘lib, shulardan bor-yo‘g‘i o‘n oltitasigina turkiy shoirlar bo‘lsa, ularning eng peshqadami Sakkokiy ekanligi yuqoridagi qarashimizni ilmiy asoslaydi.

Darhaqiqat, XIII-XIV asrlar va XV asrning birinchi yarmida yashab ijod qilgan Rabg‘uziy, Xorazmiy, Xo‘jandiy, Atoiy, Sakkokiy, Gadoiy, Lutfiy g‘azallari ko‘zdan kechirilsa, ular, asosan, o‘zbek tili imkoniyatlaridan foydalanib yaratilganini, sodda, ravon, badiiy yetuk, hozirgi o‘quvchilarga-da g‘oyatda tushunarli ekanligini ko‘rish mumkin. Ular o‘z g‘azallarida, avvalo, turkiygo‘y salaflarining, so‘ng bir-birlarining va nihoyat fors-tojik g‘azalchiligining eng yaxshi an‘analarini rivojlantirib, she’riyatimiz taraqqiyotiga katta hissa qo‘shdilar¹⁵⁷.

Sakkokiy she’rlarining ko‘pchiligi boshqa g‘azalxon shoirlarda bo‘lganidek, u yetti baytlidir. Shular qatorida besh, to‘qqiz baytlilari ham kam emas¹⁵⁸. Kuzatishlarimiz natijasida shoir devonidagi g‘azallarni quyidagicha tasnifladik:

¹⁵⁷ Fayzulloev B. O‘zbek she’riyatida tatabbu’ tarixi va mahorat masalalari. (XVII-XIX asrlar va XX asr boshlari g‘azalchiligi asosida). Filol.fan.b.fals.dokt. ...diss.– T., 2002. – B. 28.

¹⁵⁸ Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi (Eng qadimgi davrlardan XVI asr oxirgacha). – T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi, 2006. –B.182-183.

* Kamal Eraslan tomonidan 1999-yil Anqarada nashr etilgan “Mevlana Sakkaki divani”da Sulaymoniya kutubxonasi, Ayosofiya bo‘limida 4757 raqam ostida saqlanuvchi bir majmuadagi Sakkokiy taxallusi bilan yozilgan 3 ta g‘azal matni keltirilgan. Ulardan bittasi 6 baytli, ikkitasi 7 baytlidir.

№	G‘azallar	G‘azallar soni	Bayt soni	Misra soni
1.	5 baytli	3	15	30
2.	6 baytli	2*	12	14
3.	7 baytli	52	364	728
4.	9 baytli	3	27	54
	Jami:	60	418	836

Shu o‘rinda aytish mumkinki, shoir she’riyatida turkiy she’riyat an’analari, obrazlar tizimi, janr, til va uslub xususiyatlarini aniqlash muhim. Sakkokiy g‘azallarining tili va uslubi sodda. Bu xususiyatlarni ta’milagan asosiy omil ularning vazni hisoblanadi. Sakkokiy g‘azallarining ko‘pchiligi turkiy she’riyatda “ko‘p va xo‘p” qo‘llangan ramal bahrinda yozilgan. Mazkur bahr xalq she’riyatiga yaqin bo‘lgan xususiyatlarni o‘zida aks ettirganligi bilan boshqa bahrlardan farq qiladi. Alisher Navoiy “Mezon ul-avzon” asarida ramal bahrining xususiyatlari haqida quyidagilarni yozadi: Yana surudedurkim, ani “turkiy” debdurlar, bu lafz anga alam bo‘lubtur va ul g‘oyatdan tashqari dilpisand va ruhafzo va nihoyatdin mutajoyiz aysh ahliga sudmand va majolis oro suruddur...¹⁵⁹.

Ramal bahrini hosil qilgan foilotun rukni xalq qo‘shiqlariga xos ravonlik, o‘ynoqilikni ta’min etadi. Demak, bunday xususiyat Sakkokiy she’riyati turkiy adabiyotning ildizi bo‘lgan xalq og‘zaki ijodidan oziqlanganligidan dalolat beradi. Sakkokiy devonidagi g‘azallar turkiy she’riyatida ko‘p qo‘llangan hazaj, rajaz bahrlarida ham yozilgan. Bunday bahrlar sodda bahrlar sanaladi. Biroq shoir devonida murakkab bahrlarda yozilgan g‘azallar ham uchraydi. Masalan, mustaf‘ilun + foilotun ruknlarining birikuvidan hosil bo‘lgan mujtass bahridagi g‘azallar ham shoir devonida mavjud. Bunga misol qilib quyidagi baytni keltirishimiz mumkin:

A-gar qo-shim/da o‘-shal gul/ uzor(i) bo‘l/sa edi,
G‘ame yo‘q er/di,g‘amim gar/ hazor bo‘lsa edi.

¹⁵⁹ Navoiy A. Mezon ul-avzon. – Toshkent. 1967. – B. 181

V – V – / V V – – / V – V – / V V –

Mafoilun /failotun / mafoilun/ failun

Sakkokiy g‘azallarining vaznini kuzatganimizda, ularda aruzga xos fonetik hodisalar u qadar ko‘p kuzatilmaydi. Mumtoz she’riyatda tez-tez ko‘zga tashlanuvchi vasl, imola, iste’lof kabi hodisalargina Sakkokiy g‘azallarida uchraydi. Buni esa shoir g‘azallaridagi ohangdoshlik va o‘ynoqilikni ta’minlagan muhim omil sifatida baholashimiz mumkin.

Turkona uslubning asosiy sifatlaridan biri bo‘lmish xalqchillik tushunchasi Sakkokiy ijodida yangi mazmun va ruh kasb etganligi, o‘z davri uchun zamonaviy, xalqchil qiyofada namoyon bo‘lganligini ko‘rish mumkin. Shuni qayd etish kerakki, Sakkokiy ijodida turkiy she’riyat an’analarining badiiy sintezi og‘zaki ijod, ya’ni folklor bilan uyg‘unlashganida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Xalq og‘zaki ijodi, xalq badiiy ijodining ajoyib yodgorliklari barcha davrlarda insonlarning doimiy yo‘ldoshi bo‘lib, barcha avlodlarning tafakkurini o‘stirish, ularning estetik didini tarbiyalash, ma’naviy dunyosini boyitishda mislsiz katta ahamiyat kasb etgan. Darhaqiqat, “So‘z san’ati yozuv va yozma adabiyotdan ko‘p zamonlar ilgari og‘zaki ijod sifatida vujudga keldi. Uning ijodkori, barcha moddiy boyliklarning ham, ma’naviy boyliklarning ham “yagona va bitmas manbayi bo‘lgan”¹⁶⁰ xalqdir¹⁶¹. Sakkokiy ijodining gurkirab ketishida muhim omil ham uning xalq og‘zaki ijodidan bahramandligidir. Hech kimga sir emaski, Sakkokiy – g‘azalnavis shoir. Uning g‘azallarida ishq, oshiqlik, hijron iztiroblari, visol lazzati, oshiq qalb kechinmalari juda ustalik bilan, xalqona ohangda tasvirlanadi. Sakkokiy ijodida yor, ma’shuqa tushunchasini ifodalashda gul metaforasidan tashqari yana oy, jon, sarvi noz, sulton, pari, sanam, husn ganji, shah kabi ko‘chma ma’noli so‘zlardan foydalangan.

Kim ermas ul oy mubtalosi,
Yolg‘uz manga yo‘q aning balosi.
Tushti bu zaif jonimg‘a dardi,

¹⁶⁰ Горький М. О литературе. Литературно-критические статьи. Советский писатель. – М., 1953. Стр.48.

¹⁶¹ Mallayev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, 2015. – 432 b.

O‘lmaktin azin yo‘q ul davosi¹⁶².

Ko‘rinib turibdiki, Sakkokiy g‘azallar yaratishda, uning boy ichki imkoniyatlaridan samarali foydalana olgan, ya’nikim inson muhabbatı, orzutilaklarini, dard-alamlarini, tabiat go‘zalliklarini xalqqa yaqin holatda badiiy bo‘yoqlarda, xalq qo‘shiqlari ohangiga yaqin yo‘lda, sodda ifodalay olgan.

Badiiylikning muhim shartlaridan biri mazmun va shaklning uyg‘un birligi, ularning o‘zaro muvofiqligidir. Badiiylikning mazkur sharti inson uchun (insoniyat uchun) ahamiyatli mazmunning go‘zal shaklda ifodalanishi, badiiy mukammal asarning organik butunlikka aylanishi¹⁶³, – ekan Sakkokiy bunga to‘liq amal qilganligini yuqorida tahlilga tortilgan g‘azal ham to‘liq tasdiqlaydi. Xususan, ikkinchi baytdagi “O‘limdan boshqa ilojim qolmadi” kabi xalq ta’birlari bilan o‘z g‘azallarining mazmunini ham, tilini ham boyitadi.

Turkiy tilning rangin jilvalarini, boshqa hech kimda ko‘rinmagan ifodalarini faqat Sakkokiy lirikasidagina uchratish mumkin. Shoир ijodi badiiy san’atlarning serjiloligi bilan ham o‘quvchining dilidan joy oladi. Qolaversa, so‘z qo‘llash mahorati bilan muallif o‘zining ichki hissiyotlarini oshkor etadi. Ma’lumki, ma’shuqaning oshiqqa noz-u firog‘i tasviri barcha shoirlarda uchraydi, lekin Sakkokiy ijodida bu noz-u firoqni hech kimga o‘xshamaydigan, o‘zgacha tasvirini uchratish mumkin:

Turkona ir irlag‘uncha oning,

Kuydirdi meni “yalay bulosi” (66-bet).

Ikkinci misradagi “yalay bulosi” so‘zi qatiga shoир bir necha ma’nolarni yuklaydiki, bu kitobxonni hayratga solishi tabiiy. Shoир nazdicha, ma’shuqa oshig‘iga so‘zda jabr, jafo qilsa-da, lekin nigohlari oshiqqa vasl va’da etayotganday, uni umidvor qilishga qodir. Ko‘rinib turibdiki, shoир ta’rifidagi ma’shuqa “yalay bulosi”da ham ana shunday ma’no nozikliklari bilan jilva ko‘rsatishi tasviri shoirni turkiy til ustasi sifatida to‘liq namoyon qilgan. Va aytish

¹⁶² Mavlono Sakkokiy devoni. Nashrga tayyorlovchilar Hasanova M., Sheraliyev H. – T.: MUMTOZ SO‘Z, 2017. – B.66 (Keyingi iqtiboslar shu asardan olinadi va beti qavs ichida beriladi).

¹⁶³ Jabborov N. Zamon. Mezon. She’riyat. –T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashr., 2015. –B. 304

joizki, shoir, ayniqsa, xalq qo'shiqlariga katta e'tibor bergan, shu bois uning g'azallari xalq tiliga yaqin va jozibador:

Oyina sening yuzung ko'rubon,
Lof ursa, yuzunda yo'q safosi (66-bet).

Shoir g'azali xuddi "turkiy" xalq qo'shiqlari kabi hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf (maf'ulu / mafoilun / faulun -- V / V - V - / V --) vaznida bitilgan.

Sakkokiy she'riy asarlarining yana bir o'ziga xos bo'lган xususiyati turkiy tilda bitgan g'azallariga forscha va arabcha so'zlar orqali o'z misralarini "yaltiratish" (mulamma') vositasidan foydalana olganligidir. Jumladan, arabcha so'z bo'lган "havo" so'zi shoir ijodida ko'chma: orzu, havas; ishq, muhabbat; uchish, parvoz kabi ko'chma ma'nolarda qo'llangan:

Bergusi g'arib boshimni elga,
Ruxsora-u zulfining havosi (66-bet).

So'zning istioraviy ko'chimiga asoslangan badiiy tasvir va ifoda o'ta darajada favquloddalik kasb et¹⁶⁴gan havo so'zi yuqoridagi baytda orzu-havas ma'nosida kelsa, quyidagi g'azal baytida uchish, parvoz ma'nonisini bildirgan.

Ey Sakkokiy, bu shah qobqin g'animat tut chu zulfin 'a,
Azoqin bog'lag'on qushsen, ucharg'a hech havo qilma (46-bet).

Ko'rinish turibdiki, bu shoirni yuksak mahorat ustasi deyishimizga asos bo'ladi. Shuningdek, Sakkokiy ba'zan yor husn-u jamolini vasf etish uchun harf san'atiga she'riyatida murojaat qilgan:

Barcha xaloyiq to'p bikin tashlor ayoqing uza bosh,
Bu ishga zulfung dol erur, sen oni chavgon aylama (58-bet).

"Rajazi musammani solim" (Mustaf'ilun / mustaf'ilun / mustaf'ilun / mustaf'ilun -- V - / - - V - / - - V -) vaznida bitilgan ushbu g'azal baytida lirik qahramon ma'shuqasiga murojaat qilar ekan, sening husn-u jamolingga xushtor bo'lganlarning barchasi oyoqing ostiga to'p kabi bosh qo'yadilar, deydi. Bunga, albatta, sening gajak zulfin dol ekanligi sababchi, lekin

¹⁶⁴ Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – T., 2004.– B.43.

sen uni uchi egri qilib tayyorlangan tayoq, ya’ni chavgon kabi ot ustida o‘ynaladigan o‘yinga aylantirma, deya o‘tinadi. Bayt mazmun-mohiyatidan ko‘rinib turibdiki, yorning oshiqni mast qilgan, aql-u hushidan ayirgan zulfi bilan arabiyy harfning yozilishi qiyoslangan. Natijada, noyob topilma qayrilgan yor zulfining holati dol harfining yozilishiga o‘xshatilgan. Majoziy ma’noda qo‘llagan dol harfi va ma’shuqaning gajak zulfi baytda badiiy tasvir mukammalligiga asos bo‘lgan, deyish mumkin.

Sakkokiyning ushbu “Rajazi musammani maxbuni axazz” (Mustaf ilun / mustaf ilun / mustaf ilun / faal – – V – / – – V – / – – V – / V –) vaznida yozilgan g‘azalida ham arabiyy “mubtalo”, “qahrabo”, “irning” forcha “mengizli” kabi so‘zlari ishlatilgan:

Sentek ja-hon/da ko‘zlar/ ayni balo/ qani?

Mentek aning balosi bila mubtalo qani?

Irning aqiqi garchi jahonda yagonadur,

Chehram mengizli ham yana bir qahrabo qani? (94-bet).

Ma’lumki, g‘azaliyotda yor tasvirini berishda shoirlar, uning tik qomatini sarv daraxtiga muqoyasa qilishgan. Sakkokiy ijodida ham xuddi shunday holatni ko‘rish mumkin. Lekin yana shuni alohida e’tirof etish lozimki, shoir ba’zi holatlarda ma’shuqa qomatini tol daraxtiga o‘xshatadi. Bu ijodkorning o‘ziga xos mahorat egasi ekanligini ko‘rsatadi. She’riyatida badiiy ko‘chimlar o‘ta betakror va individual xarakter kasb etadi, biroq bu badiiy ko‘chim uchun tanlangan narsa bilan uning hayotiy vazifasini uzviy-mantiqiy bog‘liqlikda tasvirlashga intiladi:

Ey gul, yuzingga hur-u pari bandayi joni,

Toltek bo‘yung ozodi erur sarvi ravoni (76-bet).

Istiora uldurkim, yasoq va iroda etilgan ma’no orasindag‘i aloqa o‘xshashliqtur. Istiora... so‘zning mukammal ziynatidur va fasohat-u balog‘at arbobi qoshinda haqiqattin yaxshiroqtur¹⁶⁵. Ya’ni istiora: bir so‘zning o‘z ma’nosidan boshqa bir ma’nosи uchun ishlatilmakidir, shul shart bilankim, u so‘zning o‘z ma’nosи bilan yangi ma’nosи o‘rtasida bir turli o‘xshashlik

¹⁶⁵ Husayniy A. “Badoye us-sanoye”. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. – 1981.– B. 219.

bo‘lsun¹⁶⁶ligini yuqoridagi baytda shoir yorga nisbatan qo‘llagan forsiy so‘z “gul” to‘liq isbotlab turibdi. Darhaqiqat, g‘azal baytida qo‘llangan mazkur “gul” so‘zi boshqa shoirlar ijodida ham uchraydi. Shoir bir necha san’atlarni, xususan, nido “ey gul”, tashbeh “toldek” tik qaddi-qomati-yu, hur-u parilardan ziyoda bo‘lgan go‘zal yuzi mubolag‘asidan unumli foydalanib, oshiqning holati tasvirini beradi. Ya’ni benuqson bo‘lgan mahbubasi ishqida qul ekanligini oshiq yoniq so‘zlarda izhor etadi.

Oydur sening ollingda bu kun bir habashiy qul,
Tonsa yuzida zohir o‘lur dog‘i nishoni (76-bet).

Ko‘pchilik shoirlar yor yuzini oyga qiyos etadilar. Yoki istiora yo‘li bilan mahbubaga “ey moh” deb murojaat etadilar. Yor qoshini esa yangi chiqqan oyga – hilolga tashbeh etadilar. Sakkokiyda ma’shuqa yuzi ba’zi o‘rinlarda oyga o‘xshatilmaydi, chunki yor yuzi oldida oy yuzida dog‘i bor. Mahbuba jamoli oydan-da yorug‘, oydan-da sirliroqdir. Baytda husni ta’lil san’ati vositasida yor jamoli oydan baland qo‘yilmoqda.

Sakkokiy ijodida yorga maftun oshiq bo‘lgan lirik qahramon tasvirini berishda, ba’zan majoziy ma’noda qul, it, gado kabi so‘zlarga murojaat qilingan holatni ko‘rish mumkin. Shu bilan birga, shoir g‘azaliyotida oshiq va ma’shuqa holat tasvirini berishda badiiy tasvir vositalardan unumli foydalanish orqali g‘azallarining ta’sirchanligini oshirilgan holatini kuzatish mumkin. Jumladan, ag‘yor-raqib-dushman, dunyo-jahon, xaloyiq-ulus kabi so‘zlar (tanousub san’ati) va do‘st-dushman, dono-nodon, kecha-kunduz, toza-kir, saxiy-xasis, oz-ortiq, bevafo-vafodor, davlatmand-faqir kabi (tazod san’ati) so‘zlar g‘azallarning jozibadorligini oshirishga xizmat qilgan, deb hisoblash mumkin. Quyidagi baytda qo‘llangan tazod badiiy san’ati, shoir badiiy mahoratini aniq namoyon bo‘lishi uchun vosita ekanligi yuqoridagi fikrimizni yaqqol dalillaydi:

Biror ko‘ngul g‘amidin bo‘lsa edi, voqif do‘st,
Ne qayg‘u, dushman agar sad hazor bo‘lsa ned? (75-bet).

¹⁶⁶ Fitrat A. Tanlangan asarlar. 4 jildlik. 4-jild. Adabiyot qoidalari. – T., – B.64

Shoir g‘azallarida ma’no va shakl birligini saqlab, so‘z o‘yinlari va qochirimlardan unumli foydalangan. Sakkokiy g‘azallarini o‘rganar ekanmiz, ularda xalqona ibora va ifodalar, maqol va hikmatli so‘zlarni ko‘plab uchratamiz:

Bale, bu ranj-u baloni men ixtiyor etdim,
O‘zimga ishni o‘zum qildim, emdi ne chora...
Kecha-yu kunduz ishim yig‘lamoq, kuchum zori,
G‘amingdin o‘zga kishi yo‘q qoshimda g‘amxora (44-bet).

Shoir e’tirof etadigan ranj-u balo – oshiqlikdir. Ya’ni yorni sevish, unga muhabbat bog‘lash lirik qahramonning ixtiyoriy ishi ekan, lirik qahramon o‘zimga o‘zim qildim, endi na chora demoqda. Barchamizga yaxshi ma’lumki, endi ne chora, o‘zimga ishni o‘zim qildim kabi ifodalar xalq og‘zaki ijodida, og‘zaki so‘zlashuvda tez-tez qo‘llanishi bilan e’tiborni tortadi. “O‘zimga o‘zim qildim”, “ko‘zi chiqsin”, “eson qol” singari xalqona ifodalar Sakkokiy g‘azallarining tiliga o‘ziga xos tarovat bag‘ishlagan.

Shoir ijodida she’riy san’atlar qo‘llanishida o‘ziga xos uslubni ko‘rish mumkin. Deyarli barcha g‘azallarida badiiy san’atlar, jumladan, tashbihdan ham unumli va original foydalanganligi sababli, go‘zal tasvirlar yaratilgan. Shoir tashbehlarining o‘ziga xosligi shundaki, ularda hayotiy voqeа va hodisalar misra mazmuniga singdirib yuboriladi. Natijada bunday tasvirlar o‘quvchi ko‘z o‘ngida hayotiy lavhaning yorqin manzarasini hosil qiladi. Shoir lirik qahramonining ichki kechinmalarini tasvir etishda hayotiy lavhalarni yondosh qo‘yadi. Ba’zan bunday lavhalarni ketma-ket qo‘llash orqali ajoyib kashfiyat yaratadi:

Jon hajr o‘tina tushti, yano bizni unutma,
Zulfung biki qad bo‘ldi duto, bizni unutma...
Nortek yangoqing furqati ichra ko‘ngul-u jon,
Ul kuydi judou bu judo, bizni unutma (51-bet).

Sakkokiyning she’riyatida an’anaviy obrazlar ham ko‘plab uchraydi. Shunday obrazlardan biri Farhod obrazidir. Ma’lumki, Farhod – oshiq inson. U Shirin yo‘lida tog‘ qazishga majbur bo‘ldi. Sakkokiy lirik qahramoni esa yori uchun jonini qazishga, “jonkan” bo‘lishga rozi:

Agar Shirin uchun Farhod ishqisi ko‘hkan bo‘lsa,

Netong Sakkokiy ham, jono, yo‘lungda jonkan bo‘ldi (72-bet).

Shoiryuqorida keltirilgan misolda Shirin, Farhod, Ko‘hkan timsollariga ishora qilib, ularga yangicha mazmun baxsh etadi. Boshqacha aytganda, shoir talmeh san’ati imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanadi. Shirin va Farhod boshidan o‘tgan ko‘rguliklar o‘zi chekkan g‘am-hasrat oldida yuzdan bir ham emasligiga ishora qiladi. Bunda ohorli mazmun va go‘zal badiiyat uyg‘unligi kuzatiladi.

Mumtoz ijodkorlar o‘z lirik qahramonlarining ichki kechinmalari va ruhiy holatlarini mubolag‘ali usulda tasvirlash uchun talmeh san’atiga ko‘p murojaat qilgan. Jumladan, ijodkor g‘azallarida Masiho (Iso) haqidagi diniy afsonalardan foydalanib, oshiq va yor munosabati bayonida juda go‘zal manzaralar yaratgan:

Iso damining bor asari har nafasingda,

Jon dardina, ey xulqi davo, bizni unutma (51-bet).

Shoirning tasvirida yor – go‘zal, latofatli va dilrabo. Uning husn-jamoli oy va quyoshdan, chamanzor gullaridan ham ziyoda, yorning qomatiga na sarv va na sanobar, uning og‘ziga na pista va na g‘uncha, labiga na la’l va na yoqut, ko‘ziga na ohu va na nargis, zulfiga na sunbul va na rayhon tenglasha oladi.

O‘zbek mumtoz adabiyotida Majnun oshiqlik, ishq va junun ramzi sifatida namoyon bo‘lgan. Va Layli va Majnunning fojiaviy muhabbatlari, asar qahramonlari chekkan kulfat-u ichtiroblarni g‘ayritabiiy sharhlash ham she’riyatimizga xos an’analardan. Sakkokiy g‘azallarida sevikli yor hajri bilan bog‘liq tuyg‘ularini Layli va Majnun taqdiriga qiyosan tasvirlar ekan, ular qissasi bizning muhabbat oldida eskirdi, deydi:

Devonaliqqa soldi meni zulfungu ko‘zung,

Bo‘ldi magar bu yo‘lda menga Haq hidoyati.

Bizdin eshitsun emdi jahon toza qissalar,

Chun ko‘hna bo‘ldi Layli-yu Majnun hikoyati (82-bet).

Ko‘rinib turibdiki, shoir ilohiy ishq hamda insonning insonga bo‘lgan samimiy sevgisini yonma-yon qo‘yib kuylaydi va sharaflaydi. Shu o‘rinda aytish

joizki: ko‘proq o‘xshashlik, analogiya tamoyiliga, qisman hodisalarning qaramaqshiligiga asoslanadigan eng ko‘p tarqalgani – ko‘chim¹⁶⁷ni shoir misralarda o‘ziga xos tarzda bayon etadi:

Ey noringga qul, olma yuzungdin niqobni,
Ko‘ying o‘tung‘a solma yana shayx-u shobni...
Sakkokiyning azobi raqib bo‘ldi ko‘p, vale,
Yolg‘iz joniga oz qil, ey sulton, azobni (96-bet).

Sakkoiy ma’shuqaning qosh-u ko‘zлari, kipriklarini, ayni paytda nozkarashmalarini tasvirlar ekan, bu oshiq uchun nihoyatda totli azoblardir, ma’shuqadan jabr tortish oshiq uchun lazzatli damlardir, – deya ta’riflaydi. Ba’zi g‘azallarida shoir tazod san’atidan unumli foydalanib, dilbar hayotiy manzara yaratganligini ham ko‘rishimiz mumkin. U bemorga shifo, o‘likka jon ato qiladi. Bunday tasvirlar shoir g‘azallarida ilohiy ishq bilan majoziy ishqning bir o‘zanga birlashishiga sabab bo‘ladi. Aslida ham bu ikki ishq bir-birini taqozo qiladi.

G‘am mening zotimg‘a vojib bo‘ldi, bo‘lmas mumtani’,
O‘zga haml etma, jafo ko‘trurga imkon qolmadi.
Chunkim ul Iso nafas qasd etti, Sakkokiy, senga,
Dardi dil birla o‘lardin o‘zga darmon qolmadi (65-bet).

Iso dami (nafasi) oshiqqa shifo berar ekan, yorning so‘zi yo hayot, yo mamot demakdir, degan xulosaga keladi. Shu o‘rinda alohida e’tirof etish kerakki, Sakkokiy turkiy tilda asarlar yaratish, uning boy ichki imkoniyatlaridan foydalanish borasida ko‘p mehnat qilgan. Shoiring g‘azallari ramal, hazaj va aruzning yana bir qator bahrlarida bo‘lganini ko‘rsatish mumkin.

Ishq oshiq uchun tunganmas dard, ammo oshiq bu dardning tunganmasligini istaydi. Oshiq ma’shuqaga yetishish uchun har qanday jabr-u jafolarga ham tayyor. Shu bilan birga, yor oshiqqa hayot va umid, shodlik va quvnoqlik bag‘ishlaydi:

Meni o‘lturdi ko‘zi, irni himoyat qilmadi,
Iglik o‘ldi go‘yiyo, Iso rioyat qilmadi.

¹⁶⁷ Литературная энциклопедия терминов и понятий // под ред. А.Н. Николюкина. Институт научной информации по общественным наукам РАН. – М.: НПК “Интелвак”, 2003. – С.5.

Nargisi bir g‘amza birla qutqorur jondin meni,

Muncha ishimni ne bo‘ldi, ul kifoyat qilmadi (62-bet).

Sakkokiy ijodiga nazar tashlar ekanmiz, g‘azallarining asosiy mazmunini samimiy sevgi, real borliqqa muhabbat bilan qarash va uni ulug‘lash tashkil etishini ko‘rishimiz mumkin. Darhaqiqat, shoir g‘azallarida sevgiga sadoqat va vafodorlik ulug‘lanadi, hayot lazzatlaridan zavq va bahra olish targ‘ib qilinadi. Sevishganlar, oshiq-ma’shuqlarning ishq yo‘lidagi hijron dardi-yu firoq, ayriliq alam-iztiroblarini, visol zavq-shavqlari va nashidalarini shoir zo‘r hayajon bilan, nihoyatda original, sodda va o‘ta ta’sirchan misralarda ifodalab beradi.

Bunga, yuqorida ta’kidlaganimizdek, uning boy xalq og‘zaki ijodini, xususan, salaflari asarlarini puxta o‘rgangani va ulardan ijodiy oziqlanganligi asos bo‘lgan, deb o‘ylaymiz.

Ey yuzi gul, g‘uncha bo‘ldum javrdin har dam mening,

Ko‘zlarim qon yoshidin olamni gulzor aylama (55-bet).

Sakkokiy g‘azallarining qofiyalari, asosan, to‘q qofiya bo‘lib, ko‘proq muqayyad, qisman mutlaq qofiya ekani kuzatiladi. Shoirning o‘ylashicha, yor faqat tashqi go‘zalligi bilangina emas, balki ma’naviy olami bilan ham oshiqni maftun qiladi. Biroq yor rahm-shafqat, lutf-karam, vafo va sadoqatda izchil emas. U oshiqqa jabr-sitam ko‘rgazadi, va’dasiga vafo qilmaydi:

Ko‘p musulmon din qo‘yub, tarso bo‘urni kovlasang,

Sen bu kundin so‘ngra hech zulfign ni zunnor aylama.

Qilding avval bargi gul yanglig‘ ko‘ngulni lutf etib,

Bo‘lmasun emdi dilozor, oxir ozor aylama.

Bosqon iz tufroqitek Sakkokiyni xor aylading,

Supra oyin yuz edib andin dag‘i xor aylama (55-bet).

So‘zga zeb berish, chiroqli va ohangdosh kalimalarni qaldirg‘och bolalaridek tizib qo‘yishga intilish natijasida she’rning tug‘ilishiga sabab bo‘lgan ilk tuyg‘u – darddan uzoqlashish bor. Shu bois bo‘lsa kerak, ba’zi she’rlar zo‘rma-zo‘raki, jiddiy bir yuksiz, faqat she’r yasash-u mahoratni namoyish qilish uchungina

yozilgandek taassurot qoldirishi¹⁶⁸ni kuzatsak, Sakkokiy ijodida buning aksi, ya’ni tuyg‘u va dardning borligi diqqatga sazovor.

Shoir lirikasi haqida, unda oshiq timsolining ifodasi darajasi haqida, shoirning san’atkorligi haqida to‘liqroq tasavvurga ega bo‘lish uchun uning yana bir g‘azali tahliliga tortamiz. “Ramali musammani mahzuf” (fo-i-lo-tun / fo-i-lo-tun / fo-i-lo-tun / fo-i-tun / – V – – / – V – – / – V – – / – V –) vaznida yozilgan g‘azal quyidagi matla’ bilan boshlanadi:

Furqatingda, ey pari, tan kuydi-yu jon yig‘ladi,

Dam-badam ikki ko‘zum xud qayg‘udin qon yig‘ladi (70-bet).

G‘azalda “yordin ayr-u ko‘ngul”ning holati “yig‘ladi” radifi orqali ifoda qilingan. Hijron balosi shunday baloki, u oshiqning o‘zinigina emas, tanini, jonini yig‘latadi. Uning mahzun holati, dardmand qalbini ko‘rgan, tushungan tabib-u, ko‘kdagi bulut, sham, kofir-u musulmon, hatto raqib ham yig‘laydi. Oshiq holati shu darajadaki, undan hol so‘rab o‘tirishning hojati yo‘q, uning ahvoli yuzidanoq bilinib turibdi. Uning mahzun holatini ko‘rgan ilmli va omi, shaharlik va qishloqlik, dono-yu nodon – boringki barcha-barcha yig‘ladi. Yuqoridagi dardmand holat she’riy san’atlar vositasida yanada yorqin, yanada mahzun tarzda o‘z ifodasini topadi. Matla’dagi “ey pari” so‘zida istiora mavjud bo‘lib, tanining kuyishi (istiora), jonning yig‘lashida esa jonlantirishning intoq shakli qo‘llanilgan. Oshiqning ikki ko‘zidan yosh o‘rniga qon oqmoqdaki, bu ig‘roqdir. “Tan” va “jon” so‘zlari esa bir-biriga bog‘liq tushunchalar bo‘lgani uchun tanosub san’ati sanaladi. Qofiya bo‘layotgan “jon” va “qon” so‘zlari ohang, o‘lchov jihatidan bir-biriga shu qadar moski, ular faqat birinchi tovushdangina farq qiladi. Bu saj’ san’atining saj’i mutavozi ko‘rinishidir.

Hech davo yo‘q dardkim jonimda bir oni ko‘rib,

To‘nni chok etti tabib-u dori-darmon yig‘ladi (70-bet).

Oshiq jonidagi “davosiz dard” (o‘xshatish)ni ko‘rgan tabib, unga dosh berolmay, to‘nini yirtadi (ig‘roq), hatto dori-darmonlar ham yig‘laydi (jonlantirish-intoq). Sevgisining zavq-shavqi va yorning lutf-inoyatini orzu qilgan

¹⁶⁸ Hamdamov U. Badiiy tafakkur tadriji. – T.: Yangi asr avlod, 2002. – B. 172.

oshiq turli-tuman moneliklarga, azob-uqubatlarga giriftor bo‘ladi. Shu bilan birga, yor oshiqqa hayot va umid, shodlik va quvnoqlik bag‘ishlaydi.

Ko‘pgina holatlarda, shoир g‘azallarida mahbuba tishlari durga, yuzi, yanog‘i gul, anor, olma, oyga, qaddi-qomati tol, chinor, sarv daraxtiga, og‘zi pistaga, ko‘zi bodomga, zulfi tuzoqqa tashbih etilgan tasvirlarni ko‘rish mumkin.

Dur tishingu gul yuzingni ongib¹⁶⁹ onga yig‘ladim,

Kim menga ming navha birla abri nayson yig‘ladi (70-bet).

Kecha (tun) kechqurun yor yuzi haqida gap borar ekan, sham ham kuyib, yanada alanga olib yig‘lay boshladi (husni ta’lil). Sakkokiy o‘z g‘azallarida hayotga, zamonasiga xos lavhalarga e’tibor beradi. Masalan, uning g‘azallaridan birida o‘sha davr hayotida juda keng tarqalgan yig‘ilishlar, majlislar haqida so‘z yuritiladi va bu manzaradan quyidagi majoz yaratiladi:

Tun kecha majlista yuzing vasfidin kechti hadis,

Sham’ g‘ayrat o‘tina yondi-yu, so‘zon yig‘ladi (70-bet).

Oshiq ma’shuqa eshigida kecha yig‘lab, yonib, it misol (tashbeh) yuradi, uning bu holini ko‘rib, kofir ham, musulmon ham (tazod) yig‘ladi. G‘azal mazmunidan ko‘rinib turibdiki, “lirik qahramon “men”ida, uning xarakter xususiyatlarida botiniy tuyg‘u, his va zohiriy ohang uyg‘un”¹⁷⁰.

Eshicingda it bikin yottim necha yil qovrilib,

Ushbu holimni ko‘rib, kofir musulmon yig‘ladi.

G‘azalning keyingi bayti yuqoridagi baytning so‘nggi so‘zi bilan boshlangan bo‘lib, bu holat mumtoz adabiyotda tasbe’ san’ati deyiladi. Bu san’at baytlardagi mazmunni chuqurlashtirib, baytlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’minlab, g‘azal kompozitsiyasini bir butunlikka olib kelgan:

Yig‘ladi hatto raqibning rahmi kelgandin menga,

Bori ul qattiq ko‘ngullik chinmu yolg‘on yig‘ladi (70-bet).

Hijronzada oshiq holatini ko‘rib, qattiq ko‘ngil (o‘xshatish) raqib ham “chinmi yolg‘on” (tazod) yig‘lamoqda.

¹⁶⁹ anglab

¹⁷⁰ Rajabov D. Badiiy obraz va ritm tabiat. – Buxoro, 2002. – B. 56-57.

Bildilar yuzin ko‘rib Sakkokiy holin so‘rmayin,

Xos-u omu, shahr-u deh dono-u nodon yig‘ladi (70-bet).

Xalqimizda “rang ko‘r, hol so‘r” degan maqol bor. Shoir birinchi misrada o‘sha maqol mazmunini satrga singdirgan (irlsol san’ati). Oshiqning yuzini ko‘rgan kishi undan hol so‘rab o‘tirmaydi, chunki uning ahvoldidan ma’lum. Shu bois unga rahmi kelgan barcha uning holiga yig‘lashdan o‘zga chorasi qolmaydi. Bunday chiroyli qiyoslov shoir g‘azalida furqatda qolgan oshiq holatining mohirona ifodalanganini ko‘rsatadi. Sakkokiyning ushbu g‘azali matla’sidagi fikr xalq urf-odati bilan bog‘langan:

Ol ilga oyina, yuz ko‘r bu rasm-u oyinda,

Tarovatim-u ko‘rungay pari chiroyinda (48-bet).

Shoir bu o‘rinda xalq orasidagi mayjud an’analardan biri – yosh kelin-kuyovga oyna tutib, yuz ko‘rishga ishora qilib, oynada go‘zallik to‘la aks etmaydi, haqiqiy chiroy tarovati yorni o‘zini ko‘rganda namoyon bo‘ladi, deydi. Baytda she’riy san’atlardan ham mohirlik bilan foydalanilgan. Chunonchi, birinchi misradagi oyina va oyin so‘zlari ham ishtiqoq, ham tajnis bo‘lib kelgan. Yuz ko‘r iborasida ilhom qo‘llanib, u ham yuz-bet ko‘rish, ham yuz marta ko‘rmoqni ifodalagan.

Sakkokiy g‘azallarida uch obraz: oshiq, yor va raqib obrazlari¹⁷¹ ko‘zga tashlanadi. Qolgan barcha timsollar mana shu uch timsol doirasida, ularga bog‘liq ravishda beriladi. Sakkokiy o‘z ijodida it timsolidan unumli foydalanadi. It timsoli shoir ijodida turli holatda ko‘zga tashlanadi. Oshiq bevosita o‘zini itga tenglashtiradi. Ma’shuqa oldida o‘zini o‘ta xokisor sezadi:

Qilichingni chiqor, chop sol itingg‘a,

Meni tutquncha mundoq qin ichinda (47-bet).

Baytning asosiy ifoda va tasvir vositasi bo‘lgan badiiy majoz “iting” so‘zi lirik qahramon ko‘nglidan o‘tkazayotgan ishq iztirobining badiiy bo‘yoqlarda tasvirlanishga asos bo‘lgan. Shoir badiiy majoz vositasida oshiq holati, hijron g‘amlarini qalamga olgan. Sakkokiy g‘azallarida oshiqni bevosita itga

¹⁷¹ Mallayev N. O‘zbek adabiyoti tarixi. V tomlik, I tom. – T.: O‘qituvchi, 1965. – B. 314.

tenglashtirish holati, yor oldida o‘zini qul sanabgina qolmasdan, yor oldida o‘zini it deb atashdan ham or qilmasligi rangin bo‘yoqlarda ta’sirchan berilgan holatni ko‘rish mumkin. “It oshiq”ning bir sharti borkim. Uni zanjir, arg‘amchi bilan emas, yor sochlari bilan bog‘lamoq shart. Yor zulfi oshiq bo‘yniga o‘raldimi, demak, u visolga erishgan bo‘ladi.

Eshiking itlari Sakkokiydan qilur faryod,

Kim uyqu bizga harom o‘ldi ushku poyinda (48-bet).

Obrazlar tizimida majoziy tasvir ijodkorning olamni idrok etish tarzi, poetik fikrlash jarayonida tabiiy holda yuzaga chiqadi. Sakkokiy g‘azaliyotida it timsolidan foydalanishning ikkinchi holati shundaki, it timsoli oshiq timsolining sadoqatini, fidoiyligini berishda vosita sifatida ishlatiladi. Oshiq yor itiga shunchalar hurmat, e’tibor ko‘rsatadiki, yor itiga ko‘rsatilgan sadoqat shuncha bo‘lsa, o‘ziga ko‘rsatiladigan sadoqat qanday bo‘lar ekan?

Eshiging iti uni yoqar xush qulog‘img‘a

Oshiq kishiga yoqqanitek changu chag‘ona (45-bet).

Ushbu baytda oshiqning ma’shuqa g‘amida o‘rtanib yonib, uyiga borganda, uning hatto itining hurishi ham qulog‘iga yoqimli kuy kabi manzur bo‘lishi ta’sirchan lavhalarda ifodalangan. Shoir lirik qahramonning ruhiy holatini poetik bo‘yoqdor misralar qatiga mohirona singdiradi.

Boshim tushar eshiking itlari ayoqing‘ga

Aning chu yo‘q bu eshiktin jahonda hech guzari (78-bet).

Shoirning so‘z qo‘llashdagi mahorati, so‘zlarning turli ma’no nozikliklarini g‘azalda bera olishi diqqatga loyiqidir. Oshiq sadoqatini it timsoli vositasida bu tarzda berishning go‘zal namunalarini badiiy g‘oya va maqsadni ifodalash, badiiy-estetik ta’sirchanlikni oshirish, uslubidagi individuallik va badiiy mahoratni belgilashda majojiy tasvirlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Kim bizni firoqida munungtek qiynag‘uncha,

Chiqsun dag‘i solsun itiga yor qoshinda (52-bet).

Ijodkor she’riyatida obrazlar tizimini ifodalashda majoziy tasvir tanlar ekan, unga o‘xshaydigan yoki uning ekvivalentlaridan birini umumdan ajratib oladi.

Shoirning o‘zi ko‘ngil, borliqdagi voqea-hodisa, narsa, odamlar, munosabatlar to‘g‘risida fikr yuritar ekan, o‘z-o‘zidan obrazli fikrlaydi. O‘zini qiziqtirgan, diqqat-e’tiborini tortgan, yuragini “jiz” ettirgan, ko‘ngliga yaqin yoriga arz qilar ekan, eshicingga gadodek tilanib borib, raqiblarim tomonidan tishlanishimni bilsam ham, o‘zimga itlikni ma’qul ko‘rdim, deydi:

Tishlar raqibing borsam eshikingga gado deb,
Itlikni magar o‘zina ul qildi qabola (56-bet).

Sakkokiy so‘z yordamida o‘zi anglagan, tushungan va his etgan voqelikni shakl va mazmunga muvofiq, ma’lum bir mutanosiblikda ifodalay olganligi sababli poetik obraz majoziy tasvirda maromga yetkazilganligini kuzatish mumkin:

Bizni raqiblar o‘ltiradur, yo‘q senga xabar,
Ey voy, necha tortali itlar majolini (71-bet)

Tahlillarimizga ko‘ra, shoir o‘zi yaratgan poetik obrazni an’anaviylik doirasidan yangicha mohiyatga olib chiqqa olgan.

O‘larda qolmag‘ay erdi ko‘ngulda bu hasrat,
Raqib it bikin eshikta zor bo‘lsa ned? (75-bet).

It timsolidan foydalanishdagi uchinchi holat shundayki, shoir raqibni bevosita it deb ataydi, uni itga tenglashtiradi. Sakkokiy yozadi:

Raqibing orimi ko‘rsa eshikta, beshur it yanglig‘,
Asilim, netti quvlotsang eshiktin ushbu nokasni (87-bet).

Sakkokiy g‘azalida raqibini itga tenglashtirar ekan, odam it bilan oshno bo‘lishi nojoiz ekanini aytib, ma’shuqaga raqibni eshikdan haydab yuborishni maslahat beradi. Raqibni eshicingdan haydab yuborsang, tangriga ham xush keladi, chunki odam it bilan oshno bo‘lmaydi, deydi.

Tengrilik bo‘lg‘oy raqibni majlisingdin qovlasang,
Xayf erur xud odamiy sak birla bo‘lsa oshnoy (63-bet).

Sakkokiyning lirik qahramoni ayriliq azobida qiynalganligi uchun ham bechora, g‘amgin oshiqqa raqibni ko‘rib, nochor deb xursand bo‘lmaslikni, olamdagи qismat barcha uchun bir dam ekanligini izhor qiladi:

Falak Sakkokiyg‘a bukun “qulungmen”, – der jihat zohir,

Tun axshom itlaring birla o‘turmish bir zamon, ey jon (43-bet).

Ushbu baytda shoir oshiqning baxtiyor oni mubolag‘a, tasbeh, tajnis va nido san’ati asosida tasvirlanmoqda. Ya’ni bu kun hatto falak ham Sakkokiya “qulingman” deya, oshiq kecha tunda ma’shuqa itlari bilan bir dam birga bo‘lganidan shu qadar baxtiyor ekanligini, agar ma’shuqa visoli nasib esa, uning baxtiyorligi qanday bo‘lishi faqat Yaratganga ayonligini lof uradi.

Shoirning ba’zi g‘azallarida muhabbat dardida yongan oshiqning ko‘z yoshlari yulduzga, usiz o‘tayoygan umri shamga, o‘ksik qalbi esa ona yurtga qiyoslangan holatni ko‘rish mumkin:

Quyoshga ta’nalar urur bukun yuzing qamari,

Kuyurdi yuzingga boqsam meni ko‘zum qamari (78-bet).

Yor ko‘zining qamari bu qosh bo‘lib, mukammallikda quyoshga ta’na qiladi, quyoshga ta’na qilgudek darajadagi yuzingga boqsam mening, oshiqning ko‘z qamari kuyib ketadi, degan go‘zal ifoda paydo bo‘lmoqda. Bunday badiiy ifoda boshqa mumtoz shoirlarda bu shaklda uchramaydi. Oshiq holatining mubolag‘ali tasviri quyidagi baytda o‘z tajassumini topgan:

Ko‘zimning yoshi dur yanglig‘ ayog‘ingga tushar har dam,

Bu bir gustohliqin kechrub yop oning aybina zayli.

Yuzungni ko‘rsa Sakkokiy ko‘zi yoshin tiya bilmas,

Bale, gul mavsumi bo‘lsa tengizlardin oqar sayle (79-bet).

Xuddi bahorda, ya’ni gul mavsumida, erta bahorda gullar ochilgan mahalda yog‘ingarchilik bo‘lgani kabi ma’shuqa yuzini ko‘rganda oshiq ko‘z yoshlarini tiya olmaydi. Sakkokiy lirikasida “ko‘z yoshi”ning ma’shuqa oyog‘iga tushishi qayta-qayta ishlatiladi.

Turkiygo‘y shoirning lirik qahramoni turkiy oshiq bo‘lsa, ma’shuqasi turkiy go‘zal. Hatto u so‘zlaganda ham turkiy so‘zlaydi, qo‘sinq kuylasa turkona qo‘sinq kuylaydi. Bu manzara shoir tomonidan shunday badiiy bo‘yoqlarda ifodalanadi:

Ko‘zung karashma bila: “hoy, yozuqli” Sakkokiy,

Seni men o‘ltirurman”, teb etti turkona (49-bet).

Mumtoz she’riyatda majoziy va haqiqiy ishq bir-biri bilan bog‘liq, aralash holda tasvir etiladi. Chunki har ikkala ishqda ham oshiq qalbida kuchli tug‘yon shakllanib, ma’shuqa tomon talpinadi. Mazkur baytni ham majoziy, ham ilohiy ishq talqini sifatida anglash mumkin. Asosiy mohiyat ishqni alohida farqlash emas, balki ishqning ko‘ngilda yagonaligi va ma’shuqa oshiq ko‘nglining maqsudi ekanligini zikr etmoqlikdir.

Mana shu mavzu shoir Atoiy lirikasidagi bir shoh g‘azalda tasvirlangan. Ushbu g‘azalda yordin ayrilgan ko‘ngil sultonsiz mulkka, jonsiz jiismga, mohi toboni yo‘q tunga, gul-u rayhoni yo‘q qaro tuproqqa o‘xshatiladi. Demak, hijron, ayriliq mavzusi azaliy va abadiy mavzu bo‘lib, har bir shoir o‘z imkoniyati darajasida qalam suradi. Bu mavzuni mahorat bilan ishlagan shoirlardan biri Sakkokiydir. Shoirlarning hayot yo‘li, ijod xususiyatlaridan kelib chiqib, ayrim so‘z, so‘z birikmalari ular she’rlarida qayta-qayta qo‘llanadi.

Ko‘z yoshi yig‘la-yu tushayin deb ayoqingga,
Bilmon nedur tobug‘da bu sayil savolini (71-bet).

Sakkokiy lirik qahramoni yor hajridan boshiga tushayotgan balolarga o‘zi emas, balki ko‘ngli aybdor ekanini ta’kidlaydi. To‘g‘ri, Sakkokiy ushbu baytda “hech narsani yangidan kashf qilayotgani yo‘q... o‘z mehrini bayon qilyapti. Bu qalbga sig‘magan mehr. Toshqin tuyg‘u!”¹⁷², ekanligini ko‘rish mumkin. Bu holatni ifodalashda, shoir oshiq va ma’shuqaga xos ichki va tashqi sifatlarni yoritishda turli an’anaviy obrazlar, xalq maqollari, hikmatli so‘zlar, iboralardan keng foydalangan:

Yuzi qaro bo‘lsun ko‘zum, andin ko‘rarmen bu balo,
Yo‘q bo‘lsun ul ko‘nglum mening, hech kirmadi farmonima (50-bet).

Xalq og‘zaki ijodi yozma adabiyotning sarchashmasigina bo‘lib qolmay, adiblarimiz hamisha suyanib, quvvat olib kelgan bitmas-tuganmas ilhom manbayidir. Jahon adabiyotida bu buyuk manbadan u yoki bu darajada ta’sirlanmagan adib, bu ulug‘ ummondan suv ichmagan adabiy asar yo‘q hisobi¹⁷³

¹⁷² G‘afurov I. She’r – qalb tarixi / Jabborov J. Saylanma. Ikki jiddlik. – T., 1980. I jild. – B. 7.

¹⁷³ Soatova N. An’anaviylik va vorislik. – T.: Mumtoz so‘z, 2019. – B. 6.

ekan, Sakkokiy lirikasida ham xalq maqol va matallarining ko‘plab uchrashi tasodifiy holat emasligi aniq. Shoirning xalq og‘zaki ijodiga murojaat qilishi, maqol va matallarni she’riyatda ko‘plab berish san’atkorlik bo‘lmay, aksincha, o‘sha maqol va matallarni o‘z o‘rnida, g‘oyaviy niyat ifodasiga moslab bera olganligi san’atdir. Ya’ni shoir asar bo‘yoqdorligi, ta’sirchanligi, g‘oyaviyligini oshirish maqsadida ko‘pincha maqol, matal va xalqona obrazli ifodalardan mohirona foydalangan. Va aytish joizki, o‘rinli ishlatilgan maqol va matal, birinchidan, irsoli masal san’atini yuzaga keltirsa, ikkinchidan, asar tilini sodda va zavqbaxsh bo‘lishiga imkon beradi. Xalqimizda “devorning ham qulog‘i bor”, degan gap bor. Sakkokiy ana shu gapdan chiroyli foydalanib, irsoli masal san’ati vositasida go‘zal bayt yaratgan:

Nedin bilur el meni ul oy oshiqidur teb,
Chun so‘zlamadim hech daru devor qoshinda (52-bet).

Shoirlar yor yuzi qizilligini ta’riflashda uni lolaga o‘xshatadilar. Sakkokiy lola yor yuzi qizilligidan rashki kelib, o‘zini qizil o‘tda yondirayotgani uchun qizil bo‘lsa, ma’shuqa qizil yuzidagi qaro xoldan rashki tufayli bag‘rida dog‘ paydo bo‘lgan deb uqtiradi.

Yanoqing rashkidin har dam qizil o‘tda yonar lola,
Ul ol engda qaro mengdin aning bag‘ridagi dog‘i (64-bet).

Sakkokiy lirikasida oshiq va ma’shuqa munosabatlari tasvirida dialogdan foydalanish, ma’shuqa javobiga humor tuyg‘usini singdirish xususiyati bor:

La’lingga “qonimni to‘ktung” – desam, aytur ul kula,
“O‘z ko‘zing to‘kti qoning, qilma menga bo‘htonni” (95-bet).

Baytda majoziy ishq ishqini haqiqiyning bir ko‘rinishi yoki haqiqiy ishq yo‘lidagi o‘ziga xos bosqich sifatida baholanadi. Ruhan pok, ma’naviy komil inson uchun majozning o‘zi ayni haqiqat¹⁷⁴ligi ochiqlanadi.

Ko‘nglum tilar ul pistatek og‘zing yeturkan jomni,
Bu nuql-u mayning hasrati o‘lturdi xos-u omni (88-bet).

¹⁷⁴ Is’hoqov Y. Navoiy poetikasi. – T.: Fan, 1983. – B. 25.

Ayriliq azobidan o‘rtangan ma’shuqaning “**pistadek og‘zi**” “**jom**”ga, undan barcha oshiqlarga yetadigan farah gazak va mayga tengdir, ya’ni may bazmida sharob o‘rniga “ko‘z yosh”larini ichib, g‘am-anduhini “**nuql**”, ya’ni gazak qilgan lirik qahramonning tasviri Sakkokiy tomonidan mahorat bilan aks ettirilgan.

Husni ta’lil vositasida yor og‘zi, ko‘zini tasvirlashda ham an’anaviylik bor. Sakkokiy ushbu g‘azalida yor og‘zini pistaga, ko‘zini bodomga o‘xshatmaydi. Aksincha, pista va bodom o‘zlarini mahbuba og‘zi va ko‘ziga teng ko‘rgani uchun pistaning og‘zini sindiradilar, bodomning o‘rtasidan yoradilar.

Og‘zing, ko‘zingga pista-u bodom o‘zini tutsa teng,

Og‘zini sindur pistaning, yor o‘rtadin bodomni (88-bet).

She’riy asarning tasviriy tili badiiy tasvir vositalarning ishlatilishida namoyon bo‘lishi va bu vositalar lirik xarakterni shakllantirish, uning xususiyatlarini ochib berishda katta rol o‘ynagani pista va bodom detal vositasida yanada yorqin va ta’sirchan ifodalangan.

Sakkokiy g‘azallarida mubolag‘aning ig‘roq shaklidan unumli foydalanish bilan birga ifrot shakliga ham tez-tez murojaat etib turadi. Mumtoz adabiyotda ma’shuqa go‘zalligiga asos belgilardan biri og‘izning kichikligidir. Sakkokiy ta’rifidagi ma’shuqa og‘zi shu qadar kichikki, hatto uni topib bo‘lmaydi.

Bag‘ir qon g‘unchatek og‘zin tilab hargiz topilmastin,

Qachon ul gul bikin kulgay ochilgay bu muammosi (60-bet).

Og‘izga nisbatan ifrot san’atini qo‘llash Atoiy ijodida ham bor:

Tamanno qilg‘ali la’lingni ko‘nglum,

Kishi bilmas onikim qoldi qanda.

Bo‘stonda gul yuzingni ko‘rib ko‘b o‘ftonib,

Yuzi qizardi, ko‘rdum aning infiolini.

Islom dinidagi besh farzdan biri zakotdir. Boyligi ma’lum darajaga yetgan odam zakot berishi shart. Ma’shuqa husn boyi. Oshiq esa yor ko‘yidagi gadodir: shuning uchun oshiq gado husn boyi – ma’shuqadan zakot so‘raydi:

Zakote ber labungdin desam aytur,

“Qavung ketsun bu Sakkokiy gadoni” (92-bet).

Yonayotgan sham oshiqqa o‘xshatiladi. Visol orzusida yongan shoir yor yuragini masjidga, qoshlarini mehrobga qiyos qiladi:

Masjid bulukungda turub, ey yori yagona,

Mehrob bikin qoshingda otoli dugona (45-bet).

Xulosa qilib aytganda, Sakkokiy she’riyatining badiiy qimmati, shoir ijodida turkiy she’riyat an’analarining og‘zaki ijod, folklor bilan uyg‘unlashganida va turkiy tilda bitgan g‘azallariga shir-u shakar san’ati kabi fors-tojik, arab so‘zlaridan o‘rinli foydalana olganligida, ya’ni badiiy sintez qila olish mahoratida yaqqol namoyon bo‘lgan. Demak, shoir xalq og‘zaki ijodi namunalari va o‘zidan oldin o‘tgan ulug‘ so‘z san’atkorlarining ijodini puxta o‘rganib, adabiy an’analarni ijodiy davom ettirgan. Shoir o‘z g‘azallarida haqiqiy ishqni majoziy ishqqa qarshi qo‘ymasdan, imtiyoz va imkoniyatlarini xolis ko‘rsatib beradi. Shu sabab, ma’naviy mushohadaga boy bo‘lgan g‘azallari g‘oya va mazmun e’tibori bilangina emas, tasvir usullari va go‘zalligi bilan ham o‘quvchi e’tiborini egallahsha qodir. Bu esa kelajak avlod uchun tarbiyaviy qimmatga molik adabiy meros sanaladi.

2.2.§. Lirik qahramon timsolida fikr va tuyg‘u uyg‘unligi

She’riyat – fikr, tuyg‘u hayotning ifodasi ekanligini chuqur his etgan mumtoz adabiyotimiz namoyandalari lirik qahramon ruhiyatidagi evrilishlar, qalbidagi kechinmalar tasviridan kitobxonlarning bahramand bo‘lishi uchun harakat qilishgan. Demak, she’riyatda ijodkor o‘z fikr-tuyg‘ularini tabiat go‘zalligi orqali ifodalab, lirik qahramonning o‘ziga xos xususiyatlarini ochadi. Ijodkor qalamga oladigan o‘y-xayol olami tasavvuri natijasida yorqin jilolari bilan olmosdek tovlanaydigan lirik qahramon ruhiy olami iztirob kechinmalari, his-hayajonlari muallif qarashlarida o‘z tajassumini topadi.

Ma’lumki, lirikada shoir poetik olamidagi nafis tuyg‘ular, his-hayajonli, bir lahzalik ruhiy holat tasvirlarini ifodalashda peyzaj yordamga kelgan. Aytish joizki, Yusuf Xos Hojibdan boshlangan peyzaj tasviri Sakkokiy, Navoiy, Bobur kabi san’atkorlar ijodida muhabbat ruhi bilan yo‘g‘rilgan. Demak, tabiat manzaralarini

ijodkor qahramonlari taqdiriga ta'sir etuvchi omil sifatida hisoblash mumkin ekan, shoirlar tabiat ko'r kamliklarini barcha turdag'i asarlarida dilbar lavhalarda tarannum etishi tabiiy hol. Sakkokiyning lirik qahramoni timsolida ham fikr va tuyg'u uyg'unligi peyzaj tasvirida berilishi g'azallarining o'qimishli bo'lishligini ta'minlagan. Shu bois bo'lsa kerak, ijodkor g'azallarining tahlili jarayonida tabiat lavhalari o'zgacha, jozibador mehr bilan, badiiy vosita va usullar, badiiy san'atlar bilan bitilgani yaqqol ko'zga tashlanadi. G'azallarda tabiat tasvirlari, ularni chizishdagi shoir mahorati g'azal syujeti bilan nihoyatda chambarchas bog'liq. Shoirning kechinmalari doimo tabiat hodisalari bilan uyg'unlikda kuylanganini kuzatish mumkin:

Bevajh solur yuzing uza zulf o'zini,
Ul oyni men davri zamondin kunilarmen.
Sarvu gula ko'rguzmagil ul qaddu hadingni,
Men bulbul esam, seni chamandin kunilarmen (42- bet).

Shoir lirik qahramonining xarakter, ruhiyatini ochib berishda lirizmga yo'g'rilgan pafos bilan toza tuyg'ularini qalamga olib, yorining yuziga tushgan besabab o'z zulfidan qizg'onishini aytar ekan, mahbubasini osmondag'i oyga mengzaydi. Oy yuzli suyuklisini davr-u davrondan qizg'onishini, shu bois sarvdek tik qomatini hatto "Sarvu gul"ga ko'rsatmasligini o'tinib so'rар ekan, men o'z gulini qizg'onadigan bulbul kabi seni chamandan ham qizg'onaman, deydi. Sakkokiyning lirik qahramoni timsolida fikr va tuyg'u uyg'unligini talqin etishda, ya'ni she'riyatida "hayot, voqelik zarbi bilan tebrangan shoir qalbining ohangi ifodalan"¹⁷⁵ ganini sharhlashda shoir murojaat qilgan badiiy vosita va usullar, badiiy san'atlarni chetlab o'tib bo'lmaydi. Chunki "shoir san'atkorigining o'ziga xos qirralari uning tasvir vositalari doirasi hamda ular dan foydalanish yo'llarida yana ham konkret namoyon bo'ladi"¹⁷⁶. She'riyatda yor go'zalligini madh etish, mubolag'ali tashbeh ishlatish g'azal uchun an'anaviy hodisa. Mubolag'ali misralar o'qilgan paytda hech bir kitobxonda e'tiroz tug'dirmaydi. Faqat ularga reallik

¹⁷⁵ Mamajonov S. Ranglar va ohanglar. –T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978. –B.21.

¹⁷⁶ Is'hoqov Yo. Navoiy poetikasi – T.:, 1983 – B. 105.

nuqtayi nazaridan sinchiklab nazar tashlansagina bo‘rttirishlarning oshiqchaligi seziladi, xolos. Shoir mubolag‘a san’atini qo‘llash orqali turli g‘oyalarni ta’kidlashni maqsad qilib qo‘yadiki, chunki mubolag‘a san’ati she’riyatda fikrning lo‘nda va to‘laqonli chiqishida, tasviriylikni oshirishda, mazmundagi ta’kidning yuksalishida ahamiyatli bo‘lib, badiiyatda muhim rol o‘ynaydi:

So‘zung hosili budur, ayo husn edi shohi,
Oytek yuzingni jumla jahondin kunilarmen.
Sakkokiy o‘zung hech qil, ul shah qoshinda,
Gar bo‘lsa vujuding, seni sendin kunilarmen.

She’r tabiati, mohiyati, she’r nima uchun sehrli, mo‘jizakor bo‘lishi, kitobxonlar qalbiga yetib borishi, ruhiy olamini boyitishi, zavqlantirishi, go‘zallikka, nafosatga, insoniy fazilatlarga yaqinlashtirishi haqidagi fikrlarni birgina shoirning fikr-tuyg‘ularining jo‘shqinligi bilan izohlash mumkin. Yuqoridagi baytlar bu qarashimizni to‘liq asoslaydi, nazdimizda. Mubolag‘a shoir qalbidagi g‘oyani bo‘rttirib ko‘rsatuvchi ifoda sifatida, lirk qahramon portretini o‘zgacha mehr-muhabbat bilan ichki olam go‘zalligiga muvofiq tarzda berilishini ta’milagan. Oshiq gapning po‘stkallasi shu deya yoriga nido qilar ekan, asli sen go‘zallikning shohisen, shu bois oydek yuzingni jumla jahondan qizg‘onaman, sening shohliging oldida men hech kimman, lekin senga bo‘lgan muhabbatim shu darajada kuchliki, seni sendan, hattoki vujudingdan ham qizg‘onaman. Bunday yoniq satrlarning rangin jilolarini ta’minlagan omil nima? degan o‘rinli savol tug‘iladi. Shu o‘rinda shoirning har bir fikr hamda tuyg‘ularini san’atkorona ifodalashda badiiy vosita, usullar, she’riy san’atlardan o‘rinli va samarali foydalanish, lirk mahorati masalasiga to‘xtash joiz bo‘ladi.

She’riy asarning tasviriy tili she’riy san’atlarning ishlatalishida namoyon bo‘ladi. Bu vositalar lirk xarakterni shakllantirish, uning xususiyatlarini ochib berishda katta rol o‘ynaydi¹⁷⁷. Shu bois, badiiy san’atlar, vosita va usullar lirikaning tabiatiga xos bo‘lgan ixchamlikni ta’minlashda, fikrni obrazli bayon etishda, eng muhimi kitobxonga estetik zavq bag‘ishlashda muhim ahamiyat kasb

¹⁷⁷ Hayitmetov A. Sharq adabiyotining ijodiy metodi tarixidan. – B. 317.

etadi. Sakkokiy ijodda badiiy san’atlarni qo’llashni maqsad qilib qo‘ymadi, aksincha, tuyg‘ularini teranroq ifodalashda, obrazlarni yorqinroq tasvirlashda ulardan bir vosita sifatida foydalandi.

Fikr va kechinmalarni murakkab tashbih-u istioralarsiz, sodda va oddiy bayon qilish turkona uslubning asosiy mohiyatini tashkil etadi. Shuningdek, poetik sintaksisning oddiyligi, yengil vaznlarning qo’llanishi, qofiya masalasida folklorga yaqinlik, poetikasi (g‘azalning hajmi, kompozitsiyasi, mavzusi) borasida ham turkona o‘ziga xoslikka ega¹⁷⁸. Shu ma’noda, shoir an’anaviy mumtoz poetikani davom ettirdi, shu bilan birga o‘zi ham she’riyatga yangicha shakl va uslub, o‘ziga xos ifoda vositalarini olib kirdi. Sakkokiy g‘azallarida ma’no va shakl birligini saqlab, so‘z o‘yinlari va qochirimlardan unumli foydalangan. Jumladan:

Gul g‘uncha bo‘lur ko‘rsa yuzini chaman ichra,
Titrar ko‘rib oy engine sham’ anjuman ichra (53-bet)

matlasi bilan boshlanuvchi g‘azalda Sakkokiy go‘zallikni madh etar ekan, shoirning tasvirida yor – go‘zal, latofatli va dilrabo. Uning husn-jamoli oy va quyoshdan, chamanzor gullaridan ham ziyoda, yorning qomatiga na sarv va na sanobar, uning og‘ziga na pista va na g‘uncha, labiga na la’l va na yoqut, ko‘ziga na ohu va na nargis, zulfiga na sunbul va na rayhon tenglasha oladi. Shu bois gul g‘unchadek titrar ekan, yor yuzini chaman ichida ko‘rganda, deya mubolag‘a qilib, kitobxon qalbida hayajon uyg‘otadi. Shoirning yaratiqlari tabiatning go‘zal manzaralari, ramziy poetik obrazlar bilan maromiga yetishiga lirik qahramon qalbidagi ehtiros, sevgi sadosi asos bo‘lgan, deyish mumkin:

Kim ko‘rdi aning irni, mening yoshima mengzar,
Bir la’l Badaxshonda-u bir dur, Adan ichra! (53-bet)

Ma’lumki, mazmun o‘ziga xos shaklini tanlaydi, shakl esa mazmunga qarab moslashadi. “Ba’zilar so‘zni tarse’ va tajnis asosiga qo‘yadilar. Natijada sahni keng bo‘lishi lozim bo‘lgan so‘zlarda bir necha qadam bosib qaytiladi. Yana bir guruh (yozuvchilar) shirin so‘zlar va nozik hadislar tuzadilar, go‘zal ma’nilarni marg‘ub lafzlar bilan bezaydilar. Yana bir toifa (borki) matbu’ so‘zini tug‘ faraz

¹⁷⁸ Is’hoqov Y. Navoiy va o‘zbek she’riyatidagi uslublar masalasi // O‘zbek tili va adabiyoti. – T., 1990.

qilib, o‘z asarlarini turli san’atlar bilan bezaydilar. Va yana bir guruh latif so‘zlarni topib qo‘llaydilar, ammo ma’nosiga e’tibor bermaydilar¹⁷⁹ Ko‘rinadiki, Hofiz Tanish xulosalarida shakl va mazmun mutanosibligi hamda ma’no ustuvorligiga xayrixohlik bor ekan, xuddi shu tamoyilga Sakkokiy ijodda to‘liq amal qilgan. Shoir ijodini kuzatar ekanmiz, g‘azallari uslubida go‘zal shakl va teran ma’no mutanosibligi muhim fazilat sifatida ko‘zga tashlanishini ko‘rish mumlin.

Sakkokiy g‘azallarida ma’shuqa shakl-shamoyili (portreti)ni berishga alohida e’tibor berilgan. Portret tasviri shoir g‘azallarida ikki xil ko‘rinishga egadir. Birinchidan, shoir g‘azal tarkibidagi baytlarda ma’shuqa portretidagi u yoki bu narsa haqida tasavvur tug‘dirsa, ikkinchisi, ayrim g‘azallarini to‘laligicha ma’shuqa portretining tasviriga bag‘ishlaydi. Ma’shuqa portretini chizishda laff va nashr san’ati juda qo‘l keladi. Boshqa she’riy san’atlar vositasi ma’shuqa portretidan bir yoki ikki narsa haqida gap borsa laff va nashr san’ati vositasida esa ko‘plab portret xususiyatlarini ochish imkonи bor. Sakkokiy ushbu baytda laff va nashr san’atidan, ya’ni yig‘ish va yoyish san’atidan unumli foydalangan. Masalan:

Bo‘y-u yuzi la’l irn-u, xat-u xaddina tush yo‘q,
Sarv-u gul-u mul, nastaran-u yosuman ichra (53-bet).

Baytdagi laff va nashrning murakkab shakli vositasida yor bo‘yi, yuzi, labi, xati tasavvur tug‘dirmoqda. Mul (majoziy) – may, sharob, musallas, kayf beradigan ichimlik. Nastarin – gulbargi mayda-mayda oq va qizil ochiluvchi kichikroq xushbo‘y gul. Xat – majoziy go‘zallar labi ustidagi mo‘ylabga o‘xshash chiziq, tuk. Xad – yanoq. Tush yo‘q – tengi yo‘q, tengsiz, oliv darajali. Yosuman – jasmin, oq sarg‘ish gul.

Jodu ko‘zini Kashmir eli xalqi ko‘rubon,
Tuttuq, dedilar, seni musallam bu fan ichra (53-bet).

Kashmir eli (majoziy) – go‘zallari. Musallam – tan bermoq, ma’qullamoq, qoyil qolmoq. Fan – makr, aldov, hiyla.

Xo‘blar chu yasab yuz, yasalar zulfi cherigin,
Bilguluk erur yuzung, ey shohim, tuman ichra (53-bet).

¹⁷⁹ Hofiz Tanish Buxoriy. Abdullanoma. – T.: Fan, 1966. – B. 48.

Tuman so‘zi ikki ma’noda qo‘llanmoqda. Biri tabiat hodisasi: xo‘blar – chiroylilar yuzlarini bezab, sochlarini bezab chiroyli bo‘lishsa, ular bir tuman, ey shohim, sening yuzing uning ichida belgilidir; ikkinchisi esa miqdor son – o‘n minglab chiroylilar ichida belgilidir.

Yuzung bila lof urg‘ali kun lobud uyalg‘ay,
Sham’ erur ul g‘oyati yer-ko‘k lagan ichra (53-bet).

G‘azalda hayot va inson ulug‘lanadi, insonning borliqqa munosabatidagi ta’siri yaqqol aks etadi. Unda tabiatning orombaxsh manzaralari lirk qahramonning jo‘shqin va ehtirosli qalb kechinmalari ifodalanadi. Sakkokiy o‘z g‘azallarida majoziy (insoniy) sevgini, vafo va sadoqati, shodlik va quvnoqlikni ulug‘laydi. Shoir g‘azallarini tahlil qilar ekanmiz, uning g‘azalnavislikda san’atkorlik mahoratini nihoyatda yaxshi egallaganligini ko‘rishimiz mumkin. Bunga, uning boy xalq og‘zaki ijodini, xususan, salaflari asarlarini puxta o‘rgangani va ulardan ijodiy oziqlanganligi asos bo‘lgan, deb o‘ylaymiz. Baytdagi ko‘k lagan aynan: mis tovoq, matnda majoziy – osmon, falak ma’nosida kelish bilan birga ohangdorlikni yuzaga keltirgan. Ya’ni ijodkorning “ilhom lahzalaridagi shoirona kayfiyatidan, hayotni tasvirlash uslubi”¹⁸⁰dan kelib chiqqan. Sakkokiyning yorga bag‘ishlab yozgan g‘azallari mazmun salmog‘i, ayniqsa, obratzilik xususiyatlariga ko‘ra juda go‘zal peyzaj asarlardir.

Ey qomati sarvu, ko‘zi nargis, yengi lola,
Zulfung erur ul lola uza mushki kulola (56-bet).

Shoir ijodida tashbih eng ko‘p qo‘llanadigan san’at turi hisoblanadi. Ma’lumki, tashbihlar ikki turli bo‘lib, ba’zan she’r misralarida mushabbih va mushabbihun bihlar ketma-ket, ya’ni bir mushabbih va mushabbihun bihdan so‘ng ikkinchi, keyin uchinchisi sanaladi. Bu xil o‘xshatishlar “tashbihi mafruq” (“ajratilgan tashbih”) sanaladi¹⁸¹. Bu san’at qo‘llanganda taqsimlash yoki farqlash maqsadi emas, balki belgilarni ta’kidlash shoirning diqqat markazida turadi. Tashbihi aks (teskari o‘xshatish). Bu xil tashbih qo‘llanganda shoir bir narsani

¹⁸⁰ Shukurov N., Hotamov N. va boshqalar. Adabiyotshunoslikka kirish. –T.: O‘qituvchi, 1979. – B. 37.

¹⁸¹ Hojiahmedov A. She’riy san’atlar va mumtoz qofiya. – T.: Sharq, 1998. – B. 16-17.

ikkinchi bir narsaga o‘xshatish bilan cheklanmay, ikkinchi narsani yana birichisiga qiyoslaydi, ya’ni avval mushabbihni mushabbihun bihga, so‘ng aksincha, mushabbihun bihni mushabbihga o‘xshatadi¹⁸². Masalan:

Kim ko‘rub nargis bikin ko‘z, birla gultek yuzini,
Yelga berib aql-u fahmin mast-u hayron qolmadi (65-bet).

Ushbu misralarning o‘ziyoq Sakkokiyning mumtoz adabiyot an’analari va unda keng qo‘llangan timsol-u tashbehlardan yaxshigina xabardor ekanligini ko‘rsatadi. Iste’dodli shoir sifatida u an’anaviy timsol-u tashbehlarni o‘z she’rlarida aynan qo‘llabgina qolmay, ularning yangidan yangi qirralarini ochishga harakat qilganini yuqoridagi tahlillar o‘rinli asoslaydi.

Tun chaman ichra niqobin olmish ul gul yuzidin,
G‘uncha yanglig‘ chok bo‘lmagan giribon qolmadi (65-bet).

satrlarida o‘ziga xos obrazlar tizimiga bor. “Tun”, “gul”, “g‘uncha”, “chaman” kabilar shoirning badiiy maqsadini amalga oshirish uchun safarbar etilgan asosiy poetik obrazlardir. Shoir gardunning “yana olamni bo‘ston aylagani” va “elni bo‘ston ichra har sori” yeldirib, borliqni gulga burkaganiga shukronalar aytadi. Gardun tikandan tortib daraxtlargacha hamma o‘simpliklarni jonlantirib nabotot olamini jon guldastasiga aylantiradi.

Ko‘z irning-u tishing ko‘rub avval nazarni yig‘madi,
Oxir chiqorsa la’l-u durr ne sud o‘shal ummonima (50-bet).

Sakkokiy o‘zbek mumtoz adabiyoti, aniqrog‘i, g‘azaliyoti ravnaqiga sevgi-muhabbatning g‘oyaviy jilolari bilangina emas, balki san’atkorlik mahorati bilan ham o‘z hissasini qo‘shdi. Usta so‘z san’atkorlaridan ta’lim olgan shoirning turli xildagi ichki kechinmalarini, uning orzu-umidi va norozilik kayfiyatlarini, shodligi va qayg‘usini, muhabbatni va nafratini, yorning husn-latofati va noz-karashmasini, lutf-karami va istig‘nosini, raqibning munofiqligi va surbetligini tasvirlashda yangi obrazlar, original tasviriy vositalar yaratishga intiladi, tazod, tanosub, jonlantirish, laff va nashr kabi usullardan foydalanadi, o‘xshatish, mubolag‘a, majoz va boshqa turdagи tasviriy vositalarga murojaat qiladi.

¹⁸² Hojiahmedov A. She’riy san’atlar va mumtoz qofiya. – T.: Sharq, 1998. – B.21-bet

Sakkokiy yig‘lab, ko‘z yoshini yoz yomg‘uritek yog‘durur,
Yetkurgil oni, ey sabo, yuzi guli xandonima (50-bet).

Sakkokiy “ey sabo” deya shabadaga murojaat qilib, mahbubasi hajrida ko‘ngli o‘ksib, ko‘z yoshlari yoz yomg‘iridek bexosdan kelganligini yetkazishini zorlanib so‘raydi. Bayt mazmun-mohiyatidan ayonki, peyzaj lirkasining eng ajoyib topilmalaridan biri bo‘lgan ushbu g‘azalda Sakkokiy dunyoqarashining hayotsevarlik hamda ko‘tarinki ruhiyati o‘zining teran ifodasini topgan.

Sakkokiy devonidagi yana bir g‘azalda sahro sayrining inson salomatligi uchun juda foydali ekanligini, sahro manzarasi, sahro havosi kishini g‘am anduh, dard – jamiki rutubatlardan forig‘ etajagi tasvirlangan. Shoir fikricha, tabiat istirohatidan bebahra qalb zanglab qolgan jismdir.

Ey rost qading sarvi ravon jon chamaninda,
Yuzung biki gul yo‘q guliston chamaninda (54-bet).

Sakkokiy lirkasida tabiat tasvirida bag‘ishlangan asarlarni kuzatganimizda, ularda peyzaj shye’riyatining o‘ziga xos xususiyatlari individuallik qirralarini belgilovchi omil ekanligi oydinlasadi. Jamiyat, insonlar, jumladan, oshiq va mahshuqa tasvir jarayonlarida shoirlar tabiat bilan bog‘liq obrazlardan foydalananadilar. Jumladan, ma’shuqaning qomati sarv daraxtiga, sochlari sunbulga, labi obi hayot chashmasiga, chashma dudoqqa, sabza xatga qiyoslanadi. Va aytish joizki, bu holatda tabiat lavhalari, ko‘pincha qahramonlarining kayfiyati holatiga uyg‘un bo‘lib keladi. Demak, ijodkor tabiatni tasvirlaganda, ko‘proq jamiyat bilan bog‘liq poetik obrazlarni istifoda etadi va bunday xarakterli xususiyat yuqorida matlasi keltirilgan g‘azalda ham mujassam. Ya’ni gullar may ichgan xo‘blar ruxsoriga, suvlar labidagi o‘t-o‘lanlar yor xatiga, gulshanaro jilva qilayotgan gullar parivashlarga o‘xhatilgan.

Yuzingni qilur toza ko‘zum yoshi-yu ohim,
Gul toza bo‘lur topsa, vale ob-u havoni (76-bet).

Ushbu baytda Sakkokiy bir necha san’atlarni omuxta qo‘llashi orqali go‘zal bir poetik manzara yaratgan. Lirk qahramon ma’shuqasining yuzi yomg‘ir va mayin shabada gulni tozalab, uning tusini ochgani kabi, oshiqning ko‘z yoshi va

ohi yor yuzini toza, go‘zal qilishini izhor qiladi. Bu baytda tazod (ko‘z yoshi va oh yuzning toza bo‘lishiga xizmat qiladi, vaholanki, bular bir-biriga ziddir) va tanosub (yomg‘ir va shabbodaning gul tusini ochishi oshiqning ko‘z yoshi va ohidan yor yuzining tozaroq – go‘zalroq bo‘lishiga parallel qo‘yilgan) usuli ishlatilgan. Shuningdek, bu baytda yuz gulga, ko‘z yoshi yomg‘irga, oh shabadaga o‘xhatiladi.

Shoir peyzaj tasviri yo‘g‘rilgan g‘azallarining har biridan g‘oyaviylik, ijtimoiylik izlash to‘g‘ri emas. Chunki tabiatning har bir jismi kitobxonga qanchalik jamiyatni eslatmasin, inson tabiatga o‘z his-tuyg‘ularini qondirish, undan ma’naviy ozuqa, ilhom olish uchun ham talpinadi. Shu sababdan peyzaj o‘zida yuklatilgan g‘oya bilan birga tabiatning badiiy mujassamidir.

Sakkokiy deyarli barcha g‘azallari baytlarida ham bir emas, bir necha usul va tasviriy vositalar qo‘llab, go‘zal lavha va obrazlar yarata olgan ijodkor sifatida tabiat go‘zalligini ma’shuqa lobarligi va nafosati tavsifi bilan uyg‘un holda tarannum etadi:

Sabo gultek yuzingdin olmasa sunbul niqobini,
Saharda tun kecha bulbul nedin muncha fig‘on qildi (81-bet).

Sakkokiy lirkasida poetik fikr-mushohadalar lirk qahramon ruhiy holati bilan tabiat tasviri uyg‘unlikda yaqqol namoyon bo‘lishi, shoir individual xususiyatidan kelib chiqqan. Ana shu tabiat hodisasi zor-u notavon oshiq holiga muqoyasa qilinishi uni poetik detalga aylantiradi, badiiy ta’sirchanlikni oshirishga hissa qo‘shadi. Bir so‘z bilan aytganda, shoir lirkasida tabiat bilan bog‘liq poetik tasvirlar, ruhiy kechinmalar yanada yuksak pog‘onaga ko‘tarilgan.

Sakkokiy g‘azallarining o‘ziga xosligi haqida to‘xtalganda, alohida xususiyati sifatida nurlantirib, uning o‘qimishliligini, esda qolishini ta’minlaydigan omil lo‘nda o‘xhatish, hayotiy muqoyasa usullari ekanligini qayd etish lozim.

Fallakkim, barcha olamnung qilur qon bag‘rini har dam,
Eshitsa bag‘ri qon bo‘lg‘ay mening ohu fig‘onimni (67-bet).

Yoki:

Iyd axshomi nazorada ko‘rdi qoshing magar,

Gardun etogi ichra yashurdi hilolini (71-bet).

Falak, gardun obrazining qanday xarakter kasb etishi uning yovuzlik xususiyatlari yoki ezgulik xislatlaridan kelib chiqadi. Shoir adolatsizlik, tengsizlik, bemehrlik kabi uqubatlarga sababchi bo‘lgani uchun “falak”, “gardun”ni qoralaydi, undan noliydi. Boshqa mumtoz shoirlar ham “gardun” obraziga shunday yondashadilar. Bu yondashuv shoirlarning shaxsiy manfaatlarinigina emas, balki xalq otashining yaxshilik va yomonlikka munosabatini ham ifoda etadi. Aytish mumkinki, “gardun”, “falak” poetik obrazlari ijodiy yoxud salbiy mohiyatga ega bo‘ladi. Bu shartlilik muallifning borliq yoki uning muayyan davrga munosabati hamda lirik qahramonning ayni shu ondagiligi kayfiyatlariga bog‘liq ekan, yuqoridagi baytda ma’shuqaning oshig‘iga munosabati tabiat tasviri fonida yorqin chiziqlar sifatida namoyon bo‘lgan.

Sakkokiy g‘azallari tahliliga to‘xtalganimizda, shuni alohida qayd etish joizki, shoir tabiat hodisalarini lirik kechinmalar bilan tamsil sifatida tasvirlash ko‘proq ishqiy xarakterdagi g‘azallari hisobiga to‘g‘ri keladi. Bu jihatdan shoir lirkasi va uning uslubida an’naviyilik ruhi yaqqolroq seziladi. Bu, albatta, lirik qahramonning rangin tuyg‘ulari, murakkab kechinmalari, turli holat va kayfiyatining ta’siri bilan ham bog‘lanib, an’naviylikni obyektiv sabab sifatida asoslaydi.

Ko‘rub gultek ko‘zing rangini ko‘zdin yuz chaman bo‘ldi,
Aqiq irningni ko‘rgoli ko‘zim holi Yaman bo‘ldi (72-bet).

Shoirning ushbu g‘azalida hijron azobi, ayriliq dardining lirik ifodasi badiiy tasvir bo‘yoqlarida berilgan. Bayt misralaridagi lirik tasvir an’naviy mubolag‘a, ko‘tarinkilik va dabdabali ifodadan iborat. G‘azaldagi yetakchi obraz – ma’shuqa. Baytlar silsilasida oshiq o‘z ko‘ngliga cho‘g‘ solgan go‘zal ko‘zining rangi guldek ekanligi sababli ko‘zi yuz chaman bo‘lganligini izhor etgan bo‘lsa, aqiq irningni ko‘rgan ko‘zi esa Yaman bo‘lganiga ishora qilmoqda.

Tun axshom to‘lg‘on-u sunbul bikin zulfungdin oh urdum,
Haboni g‘oliya tutti, jahon mushki Xo‘tan bo‘ldi (72-bet).

Ma'lumki, she'riyatda ifoda qilinayotgan badiiy tasvir inson maishiy hayotida sodir bo'layotgan voqealar asosida dunyo yuzini ko'radi. Lekin shuni qayd etish joizki, lirkada nihoyat darajada dramatizm, ruhiy kechinmaning yorqinligi bo'lmasa, yuksak badiiyat yaratig'i kitobxon ko'ngliga yo'l topa olmaydi. Buni chuqur anglab yetgan shoir o'z g'azallarida lirk qahramon obrazini kuchli mehr-muhabbat bilan tasvirlashga harakat qilgan. Ya'ni hattoki tun oqshomi mahbubasi sunbul zulfiqning qimirlashidan havoni atirga o'xshagan xushbo'y hidini o'zida mujassam etganligi bois "jahon mushki Xo'tan bo'ldi" deya mubolag'a qiladi. Misralarda oshiq holati, kechinmalari shoir tomonidan zargarona tasvirlanadi.

Qilib ra'no, qading yodin, saharda oncha yig'lodim,
Ko'zimning jo'ybori ichra sarvi Narvon bo'ldi (72-bet)

Bayt mazmunidan ko'rinish turibdiki, shoir oshiq iztirobini tabiat tasviri bilan uyg'unlikda chizishda ham mohir. Ma'shuqa hajrida bag'ir iztirob hijron yoshlarda aks etishi an'anaviy tasvir, ammo uning sira tiyilmasligi natijasida ko'zining ichi ariqqa aylanishini poetik mantiq sifatida tasdiqlash uchun yana muqim tabiat lavhasi yordamga keladi. Oshiq ma'shuqasi qaddi sumbayi yodini tong sahardan o'ylab, ezilib shunday ko'p yig'laydiki, ko'zidan oqqan yosh ariqqa aylanib, uzunligi Narvon darajasiga bo'ldi, deya oh uradi. Sakkokiyning o'ziga xos zargarona individual xususiyati, oshiq iztirob va alamlarini peyzaj, ya'ni tabiat hodisalari bilan mohirona payvandlaganida deyish mumkin. Fikrimizning isbotini yuqoridagi tahlillar to'liq asoslaydi ekan, quyidagi baytni noyob topilma sifatida baholash mumkin.

Maningtek go'yiyo ko'rdi yuzingni abri navro'zi,
Ko'zining yoshidin yer yuzi vard-u yosuman bo'ldi (72-bet).

Shu o'rinda, turkiy adabiyotda bahor vasfi va tabiatni madh etish Yusuf Xos Hojibdan boshlanganini e'tirof etish lozim. "Abri navro'zi" bahor buluti ham shu kurashga kamarbasta. U o'z jangini – havo maydonida ter to'kib, javlon uradi. Uning tin-tin oqqan ter donalari (bahor yomg'iri) osmondan dur yog'ilayotgandek jilolanadi. Bahor yomg'iri qut va baraka elchisi. Chindan ham shoir qiyoslaganidek, bahor yomg'iri tomchilar shakliy xususiyati mohiyatiga ko'ra

“durri g‘alton”dek qiymatga ega. Bahor buluti yomg‘ir quyib, yer yuzini mushkdek muattar hidlar bilan qoplaydi.

Sakkokiy o‘z g‘azallarida boshqa she’riy san’atlar singari talmeh badiiy san’atidan ham o‘rinli foydalangan. Jumladan, quyidagi birgina g‘azalida “Yaman”, “Xo‘tan”, “Ahraman”, “Shirin”, “Farhod” kabi:

Sabo zulfungni tog‘itti magar xoli hayolimda,

Yozildi ajdaho bo‘ldi, o‘rodi Ahraman bo‘ldi (72-bet).

Tarixdan yaxshi ma'lumki, eroniylar afsonasiga ko‘ra nopoklik va yomonlik ramzi Ahraman doim poklik xudosi Ahuramazdaga qarshi kurashgan. Sulaymon podshoh haqidagi afsonalar ko‘ra esa nopoklik va yomonlik ramzi Ahraman uning xizmatidagi devlardan biri bo‘lib, u hojasи Sulaymon podshohning uzugini o‘g‘irlab, qirq kun mamlakatda hukmronlik qilgan mifologik obraz. Yuqoridagi baytda, yorning shamolda to‘zg‘igan sochlari go‘yoki oshiqning ajdaho bo‘lib, Ahraman dev solgan jabr-zulmni solayotganiga shoir ishora qilgan. Sakkokiy inson tabiatidagi o‘zgarishlarni juda aniq tasvirlashga intiladi.

Sakkokiyning mazkur g‘azaldagi tasvirlash uslubida tadrijiylik va mufassallik shundan iboratki, shoir oshiq tabiatdagi o‘zgarishlarni birin-ketin tartib bilan tasvirlaydi. Tadrijiylik esa muallifning tabiatdagi yangilanish tasvirini darajama-daraja kuchaytirib, xususiy lavhalardan umumiy manzara hosil qilib borishida ko‘rinadi. Yuqoridagi tahlildan ayon bo‘lishicha, shoir ana shunday tasvir yo‘lidan borib, lirik qahramon muhabbatи avholidan xabar beradi.

G‘azal – o‘z yorini uzoq vaqtdan beri intazorlik bilan kutayotgan ma’shuqaning dil izhori. Uning asosini intazorlik tuyg‘ularining badiiy tasviri tashkil qilgan. Lirik qahramon hijron shiddati haddan oshganligi, intazorlikka dosh bera olmayotganligidan yorini har qayerlardan izlaydi. Oshiq yorning visoli bilan o‘rtanib yashaydi va oshiqlik yor uchun iztirob, mashaqqat ekanligini tan oladi:

Kuydurdi ko‘ngul mamlakatin yor firoqi,

O‘tdek su(v)ni sung‘il, g‘am o‘tin o‘chroli, soqiy.

Avvalo, baytdagi soqiy so‘zi etimologiyasi hamda ushbu tushuncha haqida izohli va ensiklopedik lug‘atlarda berilgan izohlarga to‘xtalsak. Lug‘atlarda ushbu

so‘zning berilishida ayrim tafovutlar uchraydi. Xususan, izohli lug‘atda soqiy kalimasi arabcha, ensiklopedik lug‘atda esa forscha so‘z sifatida ko‘rsatilgan¹⁸³. Bundan tashqari, ushbu so‘z xalq og‘zaki ijodida soqi shaklida qo‘llanadi va u ba’zi ilmiy manbalarda turkiy so‘z sifatida izohlanadi¹⁸⁴. Soqiy tushunchasining “Alloh” ma’nosida keluvchi tasavvufiy istiloh darajasiga ko‘tarilishiga nazariy asos sifatida “Qur’oni karim”ning “Inson” surasi 21-oyatini ko‘rsatish mumkin. Unda shunday deyiladi: Ularning ustilarida yashil sundusdan (yupqa ipakdan) va istobraqdan (qalin ipakdan) kiyimlar bor va kumush bilakuzuklar-la yasanganlar va Robbilari ularni pok sharob bilan sug‘oradi¹⁸⁵. Oyatdagi “sug‘oradi” ma’nosи arab tilidagi “saqahum” so‘z shakli bilan ifodalangan va ushbu jumladan yaxshilarni pok sharob bilan sug‘oruvchi soqiy – Allah ekani anglashiladi.

Oshiq boshini kesturub ul shah yasoq olmush,

Yorlig‘ boshim orzusi erur xud bu yasoqi (97-bet).

Shoir lirik qahramon ruhiy holatini tasvirlashda o‘ziga xos ifoda usullaridan, vositalardan foydalanadi. U ishq iztiroblarini tasvirlashda xoslarga oid murakkab ifoda vositalarini qo‘llaydi. Birinchi baytda hijron, ayriliq haqida so‘zlangan shoir soqiyga murojaat qilib, ko‘ngil mamlakatiga o‘t solgan ma’shuqasi, qalbi shohining azobidan nolib, mening boshimni kestirib, yasoq olyapti, aslida mening bu yasoq boshim g‘am azobida o‘tdek yonmoqdaki, uning bu xohishi men uchun huzur, deydi. Aslida mening yashamoqdan niyatim uni ko‘rmoq, mahbubasiz menga umr kerakmas deya nola qiladi:

Yorimni ko‘raturmoq uchun umr tilarmen,

Yo‘q ersa menga nega kerak umr uzog‘i (97-bet).

Lirik qahramon tabiatidagi yonishlarga sabab, yorining chinordek qaddi, anordek yuzlari-yu, yenglari nori ekanligi, bunday go‘zallik husni jonig‘a azob berayotganini shoir ta’sirchan tuyg‘ular tasvirida mujassamlashtiradi:

¹⁸³ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. V jildlik. 3-jild. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B. 561.; O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 8-jild. – T: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – B. 31.

¹⁸⁴ Nazarov N. Laqaylar: dialektologiya va frazeologiya. – T., 2010. – B. 222.

¹⁸⁵ Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol // Taborak porasi. – T.: O‘rtta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy boshqarmasi nashriyoti. 1991. – B. 140

Yorimning erur qaddi chinor, yenglari gulnor,

Jonlarg'a safo berur oning husni-yu toqi (97-bet).

Ijodkorning yana bir g'azalida tasvirlayotgan oshiq ma'shuqasi "guluzor'i yonida bo'lsa, har qancha mashaqqat bo'lsa chidashga qodirligini, yori bilan birga bo'lsa u har qanday g'amdan qutilishini, g'am uni yenga olmasligiga amin ekanligiga ishonadi. G'azalda lirik qahramon o'zining ichki tuyg'ularini, izhor qismati taqdirini "guluzor" yonida bo'lsagina yenga olishiga ishora qiladi:

Agar qoshimda o'shal guluzor bo'lsa nedি,

G'ame yo'q erdi, g'amim gar hazor bo'lsa nedি (75-bet).

Sakkokiyning uchbu g'azalida yorning jafokorligiga va oshiq ishqining otashinligiga e'tibor qaratiladi. Lirik qahramon ma'shuqasidan jafo qilmaslikni, va'daga vafo qilishini istaydi. Ma'shuqasiga dil izhor qilgan oshiq, bu foni dunyo hech kimga vafo qilmasligini, shu bois hayotning qadriga yetib, bergen va'dasiga vafo qilib, ishi quliga ozor bermaslikni o'tinib so'raydi:

Bilursenkim kechar dunyoyi foni

Qulungg'a qilmag'il javru jafoni.

Base ko'p va'dalar qildingu bording

Kel emdi va'daga qilg'il vafoni (92-bet).

Sakkokiy ijodiga nazar tashlar ekanmiz, uning g'azallarining asosiy mazmunini samimi sevgi, real borliqqa muhabbat bilan qarash va uni ulug'lash tashkil etishini ko'rishimiz mumkin. Shoiring g'azallarida sevgiga sadoqat va vafodorlik ulug'lanadi, hayot lazzatlaridan zavq va bahra olish targ'ib qilinadi. Sevishganlar, oshiq-ma'shuqlarning ishq yo'lidagi hijron dardi-yu, firoq, ayriliq alam-iztiroblarini, visol zavq-shavqlari va nashidalarini shoир zo'r hayajon bilan, nihoyatda original, sodda va o'ta ta'sirchan misralarda ifodalab beradi:

Hurtek yuzingni ko'rgali devona bo'ldi ming pari,

Zuhra ko'rub ko'zlaringga jon birla bo'ldi mushtari.

Bayt mazmun-mohiyatidan ko'rinish turibdiki, lirik qahramon yuragini yondirgan nozanin "pari"ning nurdek yuzi jamolini ko'rgan bir emas ming devona

bo‘lishi, hattoki yulduzlar ham ko‘z tushib oshiq-u shaydo bo‘ldi, deya afg‘on chekadi:

Nortek yanoqing ol bila bag‘rimga ishq o‘tin yoqib,

Kuydurdi udtek o‘t uza jonimni xoling anbari (91-bet).

Oshiq xushtori yori jamolini vasf etar ekan, barcha tashbehlarni ayamay ishlatadi. Qizil yoqtdek yanog‘i, bag‘riga ishq o‘tin qo‘yib, uddek kuydirib, jonini qiyonoqqa qo‘yanligi, anbariga mubtalo oshiqligi satrlar silsilasiga singdiriladi. Shoiring o‘ylashicha, yor faqat tashqi go‘zalligi bilangina emas, balki ma’naviy olami bilan ham oshiqni maftun qiladi. Biroq yor rahm-shafqat, lutf-karam, vafo va sadoqatda izchil emas. U oshiqqa jabr-sitam ko‘rgazadi, va’dasiga vafo qilmaydi:

Har dam raqib javri bilan bag‘rim qonin ko‘zdin to‘kar,

Ye bo‘ldi bori bo‘lmasa dilbar jafosi bir sari.

Turrang ko‘ngul shahrinda ko‘p oshubu g‘avg‘ kunqorib,

Jon mulkini g‘orat qilur har lahza zulfing lashkari.

Men bir gadoy mubtalo bo‘lgum raqib javri bila,

Tangri uchun dodimni ber, ey husn elining dovari (91-bet).

Sevgisining zavq-shavqi va yorning lutf-inoyatini orzu qilgan oshiq turli-tuman moneliklarga, azob-uqubatlarga giriftor bo‘ladi. Shu bilan birga, yor oshiqqa hayot va umid, shodlik va quvnoqlik bag‘ishlaydi. Shuningdek, shoir g‘azallarida bir emas, bir necha usul va tasviriy vositalar qo‘llab, maroqli lavha va tashbihlar yaratadi. Misollar:

Sabo gultek yuzindin olmasa sunbul niqobini,

Saharda tun kecha bulbul nedin muncha fig‘on qildi (81-bet).

Yoki:

Sakkokiytek og‘zingni ko‘rub koni latofat,

Chok ayladi gulg‘uncha giribon chamanida (54-bet).

Sakkokiy laff va nashrning turli shakllarini mohirlik bilan ishlatib, misralarning mazmunini boyitadi, ularning badiiy qimmatini oshiradi. Bunga quyidagi baytlarni misol qilib ko‘rsatish mumkin:

Qulluqqa bitik beruru yuz shodliq etar,

Zulfa xatingga sunbul-u rayhon chamaninda (54-bet).

Sakkokiy so‘z o‘yiniga ham usta shoirlardandir, xuddi, shuningdek, “Ol elga oyina, yuz ko‘r bu rasm-u oyinda” misrasi bilan boshlanuvchi g‘azalda ham original so‘z o‘yinlari bor:

Ol ilga oyina, yuz ko‘r bu rasm-u oyinda,

Taravatimu ko‘ringay pari chiroyinda (48-bet).

Shoir bu o‘rinda xalq orasida mavjud an’analardan biri yosh kelin-kuyovga oyna tutilib yuz ko‘rishilganiga ishora qilib, oynada go‘zallik to‘la aks etmaydi, haqiqiy chiroy tarovati yorni ko‘rganda namoyon bo‘ladi, deydi. Baytda she’riy san’atlardan ham mohirlik bilan foydalangan. Chunonchi, birinchi misradagi oyina va oyin so‘zлari ham ishtiqoq, ham tajnis bo‘lib kelgan. Yuz ko‘z iborasida iyhom qo‘llanib, u ham yuz-bet ko‘rish, ham yuz marta ko‘rmoqni ifodalagan.

Sakkokiyning ushbu g‘azaliga Lutfiy tatabbu’ bog‘lagan. Lutfiy matla’sida esa yor go‘zalligi oy va quyoshga qiyoslanib ulug‘langan va hatto oy va quyoshda ma’shuqa chiroyi yo‘qligi ta’kidlangan:

Qani bu shakl-u shamoyil falakning oyinda,

Dag‘i bu husn-u malohat g‘unash chiroyinda.¹⁸⁶

Lutfiy Sakkokiy g‘azalidagi ikkinchi va uchinchi baytlardagi ayrim so‘zlarni o‘zgartirib, ikkala baytni ham o‘zlashma tazmin sifatida qo‘shilgan. Tatabbu’ning to‘rtinchi bayti mustaqil mazmunga ega. Oxirgi beshinchi va oltinchi baytlar ham ayrim so‘zлari o‘zgargan holda tazmin qilingan. Tatabbu’ ham Sakkokiy she’ri kabi radifsiz. Ammo tatabbu’da tatabbu’lanmish she’r qofiyalaridan foydalanilgan. Biroq, muhimi shundaki, tatabbu’da Lutfiy badiiy mahorati chuqr aks etgan. Shoir she’riy san’atlardan mohirlik bilan foydalaniб, go‘zal lavhalar yaratgan. Masalan:

Ulus ichinda durur o‘zbegim qiyo ko‘zluk,

Xayoli to‘qtamish ondin ko‘ngul saroyinda.

Shoir birinchi misradagi o‘zbegim so‘zida lutf san’atini qo‘llagan. Uning bir ma’nosi o‘zbek xalqini ifodalasa, boshqa ma’nosi o‘zimnng begim demakdir. Shoir

¹⁸⁶ Lutfiy. Sensan sevarim. – T.: Adabiyot va san’at, 1987. – B. 20.

o‘zbegini qiyo ko‘zluk deyish bilan o‘sha davrdagi to‘qtamish va saroy so‘zlarida ham lutf bor. To‘qtamish so‘zi ham to‘xtamoq ma’nosini, ham ko‘chmanchi o‘zbeklar sarkardasi nomini ifodalagan bo‘lsa, saroy ham joy ma’nosini, ham shahar ma’nosini, ham ko‘chmanchi o‘zbeklar poytaxti nomini bildirib kelgan¹⁸⁷.

Sakkokiy lirikasi haqida xulosa qiladigan bo‘lsak, uning g‘azallaridagi turli timsollarda fikr, tuyg‘u, badiiy tasvir vositalaridagi uyg‘unlik g‘azallarining ravonlik va yaxlitlik kasb etishiga bois bo‘lgan. U turkiy til go‘zalliklarini chuqr his etuvchi, uning rangin jilvalarini o‘z ash’orlarida ko‘rsata olgan ijodkor edi. Ijodkor an’anaviy tasvir vositalaridan foydalanish bilan birga an’anaviylikdan kechish, ulardan o‘tkazib fikr aytishga intiluvchi ijodkor edi. Shoirning so‘z tanlashdagi o‘ziga xoslik, badiiy ifodadagi nodir topilmalar ularni mukammal, yangi asarlar maqomiga ko‘targan.

Bob bo‘yicha xulosalar

1. “Shoiri turki” sifatida shuhrat topgan Sakkokiy o‘z ijodi bilan o‘zbek mumtoz adabiyotining lirik janrlari, ayniqsa, “turkiy” deb ataluvchi aruzning ramal bahridagi oshiqona g‘azallarini rivojlantirib, boyitib, timsol va obrazlar silsilasining kengayishiga, uning yanada yuqori ma’rifiy taraqqiyot bosqichiga ko‘tarilishiga xizmat qilgan.
2. Shoir boy xalq og‘zaki ijodini, xususan, salaflari asarlarini puxta o‘rgangani va ulardan ijodiy oziqlangani sababli so‘z o‘yiniga usta. Sakkokiy g‘azallar yaratishda uning boy ichki imkoniyatlaridan samarali foydalana olgan, ya’nikim inson muhabbati, orzu-tilaklarini, dard-alamlarini, tabiat go‘zalliklarini xalqqa yaqin holatda badiiy bo‘yoqlarda, xalq qo‘shiqlari ohangiga yaqin yo‘lda, sodda ifodalay olgan.
3. Sakkokiy she’riy asarlarining yana bir o‘ziga xos bo‘lgan xususiyati turkiy tilda bitgan g‘azallarida forscha va arabcha so‘zlar orqali o‘z misralarini “yaltiratish” (mulamma’) vositasida ijod qila olganganligidir. Shuningdek, shoir

¹⁸⁷ Fayzulloev B. O‘zbek she’riyatida tatabbu’ tarixi va mahorat masalalari. (XVII-XIX asrlar va XX asr boshlari g‘azalchiligi asosida). Ko‘rsatilgan dissertatsiya.–T., 2002. – B. 26.

g‘azallarida ma’no va shakl birligini saqlab, so‘z o‘yinlari, qochirim, xalqona ibora, ifoda, maqol, hikmatli so‘zlardan unumli foydalangan.

4. Obrazlar tizimida majoziy tasvir ijodkorning olamni idrok etish tarzi, poetik fikrlash jarayonida tabiiy holda yuzaga chiqadi. Demak, shoir tasavvuri bilan yaratilgan badiiy majoziy obraz hayotiy lavhalardan olinsa-da, ijodkor poetik tafakkuri bilan qaytadan dunyoga keladi va shu bois kitobxon qalbini zabit etadi. Shuningdek, shoir ijodida badiiy san’atlar, vosita va usullar lirikaning tabiatiga xos bo‘lgan ixchamlikni ta’minlashda, fikrni obrazli bayon etishda, eng muhim kitobxonga estetik zavq bag‘ishlashda muhim ahamiyat kasb etgan.

5. Shoir lirk qahramon xarakterini yoritishda tabiat hodisalari, hayotiy voqelik bilan muqoyasalash yo‘lidan boradi. Ijodkor g‘azallarida majozning turfa xil ko‘rinishlari: tashbih, nido, tajnis, kitobat, mubolag‘a, talmeh, jonlantirish – intoq, tazod, husni ta’lil, tajnis, laff va nashr san’atlaridan unumli foydalanib, o‘ziga xos nafosat bilan ijod qiladi. Natijada, kitobxon tasavvurida lirk qahramon timsolida fikr va tuyg‘uni sodda, tushunarli namoyon bo‘lishiga erishgan.

6. O‘zbek mumtoz she’riyatini g‘oyaviy va badiiy uslub jihatidan takomillashishida, yangi pog‘onaga ko‘tarilishida Sakkokiy ijodining o‘rni katta. Shoir g‘azallarining nodir va original namunalari adabiyoshunoslikda alohida ahamiyat kasb etgan.

III BOB. SAKKOKIY SHE’RIYATIDA BADIY TAFAKKUR VA MAHORAT MASALALARI

3.1.§. Ijodkor g‘azallarining badiiyatiga oid o‘ziga xoslik

So‘z san’atining bor jozibasi-yu go‘zalligi, sir-u sinoati aynan g‘azalda namoyon bo‘ladi. G‘azal inson tuyg‘ulari, ayniqsa, ishq-muhabbatni ifodalashga qulay imkoniyatlar yaratgan. Mumtoz adabiyotimizning barcha vakillari kabi Sakkokiy ham g‘azaliyotda ma’shuqa, uning muhabbat-yu husni jamoli va lirik qahramon – oshiq ahvolini betakror mazmun va ifoda vositalari orqali maromiga yetkaza olgan. Zero, ma’no bilan ziynatlangan go‘zal g‘azalgina kitobxon qalbiga yetib boradi, undan o‘rin oladi, zavq-shavq bag‘ishlaydi. Shoir lirkasida qo‘llangan ayrim qofiya va radiflar, badiiy san’atlar shoir uslubiga xos izlanishlar natijasidir.

Sakkokiy g‘azaliyotini kuzatganimizda, yorning yuzi, ko‘zi, qoshi, labi, sochi, yanog‘i, beli, xoli kabi a’zolari keng va turli-tuman ma’nolarda badiiy, falsafiy aspektda tasvirlanganini ko‘rdik. Shoir o‘z tuyg‘ularini teranroq ifodalashda, obrazlarni yorqinroq tasvirlashda badiiy san’atlardan vosita sifatidagina foydalangan. Jumladan, shoir g‘azallarida ma’shuqaning oshiqqa nisbatan qarashi tasvirida “qovoq solish”, “qovoq uyish”, “qosh chimirish” kabi so‘zlarni ishlatish bilan birga o‘ta nozik ma’noga ega bo‘lgan so‘z ham ishlatadiki, bu so‘z turkiy tilning nafis jilolarini anglashimizga yordam beradi.

Ma’lumki, “ko‘z” sof “turkcha” so‘z bo‘lib, mumtoz she’riyatida beqiyos topilmalarga ega. U nafaqat timsol, balki obraz darajasiga chiqqan baytlarga ega. “Ko‘z” badiiy adabiyot san’atlaridan tanosib, tashbeh, sifatlash, tazod, tajnislarni yuzaga chiqaradi. Ayniqsa, bu holat ko‘z va boshqa timsollar birgalikda qo‘llangan chog‘da yuzaga keladi. Shuningdek, ko‘z timsoli yorning go‘zalligini, nafosatini va oshiqning qiynog‘-u azoblarini ifodalashga xizmat qiladi:

Yolg‘on-u chindin chitib har lahza qoshingni menga,

Keng jahonni bu zaif ko‘nglum bikin tor aylama (55-bet).

Keltirilgan misralarda ijodkor qoshning xususiyatlarini “Yolg‘on-u chindin” so‘zlari bilan qo‘llab, bunda mahbubaning har lahza qoshlarida ming-ming fitnalar

bisyorligiga ishora qiladi. Natijada, keng jahon oshiqning zaif ko‘ngliga tor bo‘lishi mumkinligidan ozorlanadi. Baytdagi “chitib” so‘zi, yana uning “yolg‘on-u chin”ligi ma’shuqa nigohidagi ayricha bir ko‘rinishni nozik ifoda etmoqda. “Yolg‘on-u chin”, “keng va tor” so‘zlari tazod san’ati bo‘lib, ya’ni shoir “baytda ma’no jihatidan o‘zaro zid, qarama-qarshi bo‘lgan so‘zlarni qo‘llab, ta’sirchan badiiy timsollar, lavhalar yaratishni nazarda tut”¹⁸⁸ ganligi va shuningdek, baytdagi “keng jahon”, “zaif ko‘ngil” birikmalarida tashbehlar bilan birlashib, o‘ziga xos ta’sirchan misralarni yuzaga keltirganligini ko‘rish mumkin. Shu o‘rinda aytish joizki, ilmi bade’ning mashhur namoyandasini Atoulloh Husayniy tazodga: Mutobaqa. Ani tiboq, tatbiq, tazod va takofu ham derlar. Arab fusahosi qoshinda kalomda ma’nolari orasinda taqobilu tanofiy bo‘lg‘an ikki lafzni jam’ qilmoqtin iboratdir¹⁸⁹, – deya ta’rif beradi. Tazod san’ati ma’naviy san’atlar ichida eng ko‘p qo‘llaniladigan badiiy vositalardan hisoblanadi. Bu san’at mumtoz adabiyotda mutobiqa, tiboq, tatbiq, takofu, ittizod, mutazod kabi nomlar bilan ham atalib kelingan. Tazod san’atini hozirgi adabiyotshunoslikka oid lug‘atlarda ba’zan antiteza deb ham ataydilar¹⁹⁰.

Va aytish joizki, shoir ijodini kuzatganimizda, o‘zga ijodkorlar e’tibor bermagan so‘zlarni turli jilolarda qo‘llay olganligining shohidi bo‘lamiz. Jumladan, shoir g‘azallarida “ko‘z” timsoli va yorning tashqi qiyofasi, husni bilan bog‘liq ba’zi obraz va badiiy san’atlar qo‘llanganida biz badiiy san’atlarning beqiyos namunasini ko‘rshimiz mumkin.

Ko‘rmadim, ey qirg‘uy qaroq, g‘amzang bikin ko‘zi qaro,
Qilcha jonimni olg‘ali namuncha tadbir ayladi (77-bet).

Baytda oshiq yorning ko‘zlari kabi qaro ko‘zlarni uchratmaganini aytibgina qo‘ymaydi. Balki, qirg‘uy qaroq mahbuba g‘amza bilan aldab, ovlab, mahv etishga chog‘lanib o‘ziga shaydo qildirib, tuzog‘iga ilintirib, oshiqning qilcha jonini olish uchun tadbir reja qilganligidan shikoyat qilib ozorlanadi. Baytdagi “qaro ko‘z”, “qilcha jon” tashbehi boshqa shoirlar ijodida ham uchraydi, ammo “qirg‘uy qaroq”

¹⁸⁸ Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat lug‘ati. – T.: Yangi asr avlodi, 2008. – B. 28.

¹⁸⁹ Husayniy A. Badoye’ us-sanoye’. – T.: Adabiyot va san’at, 1981. – B. 225.

¹⁹⁰ Qarang: Keldiyorova G. O‘zbek badiiy nutqida antiteza. Filol.fan.nomz.diss. – T., 2000. – B. 147

Sakkokiy uslubiga xos original noyob topilma. Shuningdek, shoir baytda tavze’ “...she’rda, jumlada, bandda va qisman nasriy asarlarda ham bir xil undosh tovushlarning takrorlanishi”¹⁹¹ san’atidan ham mahorat bilan foydalana olgan. Yuqoridagi baytda “q”, “k”, “g”, “m” undoshlarining qayta-qayta ishtirok etishi g‘azalning ravon va musiqiy bo‘lishini ta’minlagan.

Shu o‘rinda, Mavlono Lutfiy ijodida, xususan, “Xoh inon, xoh inonma” radifli g‘azalida ko‘z timsoli yorqin va namunali baytlarni tashkil etganligini aytish lozim.

Usruk ko‘zing ashkolina har gah nazar etsam,
Qolmas xabarim, xoh inon, xoh inonma.
Oy yuzingga ko‘z solg‘ali o‘zga kishi birla,
Yo‘qtur nazarim xoh inon, xoh inonma¹⁹².

Baytda shoir oshiq mahbubasining “usruk”, ya’ni mast, xumor ko‘zlariga nazari tushishi bilan xabari qolmasligini ta’kidlaydi. Shuningdek, mast va xumor ko‘zlar xoh ishoning, xoh ishonmang, har qanday kishini o‘ziga rom eta bilishiga ishora qilinmoqda. Keyingi misralarda esa talmeh san’ati ishlatilgan. Dinimiz tarixidan biz yaxshi bilamizki, o‘g‘li Yusufdan ayrilgani uchun ko‘p yig‘layverganidan Yaqub payg‘ambarning ko‘zlar ko‘r bo‘lib qoladi. Bu esa mumtoz she’riyatimizda ko‘p bor tilga olinadigan, ishora qilinadigan talmehlardan biri hisoblanadi. Lirik qahramon yori ishqida yig‘layverib, ko‘zdan qolganini aytish uchun shu tasvirdan foydalanadi. Albatta, shoirning ushbu baytdagi mazmunda biz ko‘z timsolining diniy talqiniga guvoh bo‘lamiz. Keyingi misralarda ko‘z va yuz timsoli mutanosblikda qo‘llangan. Shuningdek, “ko‘z” bu yerda fe’l so‘z turkumi o‘rnida kelib, “ko‘z solmoq” iborasida ishlatilgan.

Sakkokiy ham g‘azalda ko‘z timsolining ma’no-mohiyatini to‘liq anglagan holda, kuchli mubolag‘ali tasvirlarni keltiradi:

Zohid ko‘zung, qoshing ko‘rub, yuzin evurdi qibladin,
Qutulmadi bu fitnadin ul necha tazvir ayladi (77-bet).

¹⁹¹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Alliteratsiya>

¹⁹² Lutfiy. Sensan sevarim. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at, 1987. –B.6-7.

Ushbu misrada ijodkor ko‘zning ayyoraligi-yu va qoshning makkoraligiga ishora qilmoqda. Mahbubaning fitna zohid ko‘zi shunchalar sehrlovchi ekanki, uning jodusi, sehridan hatto oshiq qibladan yuzini o‘girishgacha boshlashini, zohid ko‘z kabi bu ishni eplaydigan boshqa ayyora yo‘qligini ta’kidlaydi. Ko‘zning oshiqni maftun qilishi uning jonon jamolining ayonlashuvi – ko‘rinishidan behud-u behush bo‘lishiga ishoradir. Ko‘z inson tuyg‘ularini aks ettiradi va oshiqning yoriga ta’siri ham ko‘z orqali kechar ekan, shu bois, shoir mashuqa ko‘zi oshiq dilini rom etuvchi qudratga egalagini badiiy bo‘yoqlarda tasvirlaydi.

Tahlillardan ko‘rinib turibdiki, Sakkokiyning badiiy mahorati uning g‘azallarida to‘liq namoyon bo‘ladi. Sakkokiy she’rlarini hayot va inson haqidagi badiiyat namunasi deyish mumkin. Shoir yaratiqlarida mavzu va g‘oya, bir so‘z bilan aytganda, muallif maqsadining qo‘yilishi emas, balki badiiy obrazlar, lavhalar, tasvir vositalari lirik poeziyani hayotga, insonning qalbiga yanada ta’sirlantiradi. U badiiy tasvirda eng kichik hodisadan yuqori jarayongacha bo‘lgan oddiy maishiy hayot detallaridan tabiat hodisalariga qadar – barchasiga murojaat etadi, yangi obraz va lavhalar yaratadi. Bu bilan Sakkokiy she’riyatning realistik an’analarini kuchaytirish va takomillashtirishga muvaffaq bo‘ladi.

Ma’lumki, mubolag‘a (g‘uluv) san’ati – biror voqeа va predmetlarni bo‘rttirilgan holda tasvirlashga aytilib, “Arab tilida “kattalashtirish”, kuchaytirish” ma’nosini bildirib, adabiy asarda tasvirlanayotgan badiiy timsol holati yoki harakatini bo‘rttirib, kuchaytirib ifodalash san’ati demakdir. Bu xil tasvirda badiiy timsol xususiyatlari yaqqolroq namoyon bo‘ladi, o‘quvchining ko‘zi oldida yorqinroq gavdalananadi¹⁹³.

Kecha-yu kunduz ishim yig‘lamoq, kuchum zori,
G‘amingdin o‘zga kishi yo‘q qoshimda g‘amxora (44- bet).

Baytda intizor oshiqning kecha-yu kunduz yorning oy yuzini ko‘rolmay, qo‘msab, yig‘lab, zorlanib chiqqani qalamga olinar ekan, oshiqning visol ilinjida barcha mashaqqatni tortishga tayyorligiga urg‘u beriladi. Tunning intihosi sahar bo‘lganidek, hijronning oxiri visol bo‘ladi. Yor diydoridan lazzatlanishga qattiq

¹⁹³ Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat lug‘ati. – T.: Yangi asr avlodи, 2008. – B. 41.

umid qilgan oshiq har qanday iztirobli damlarni boshdan kechirishga rozi. Shoir baytning birinchi misrasida lirk qahramon holatining umumiyligi ta’rifini, tashqi bayonini chizadi. Ikkinchi misrasida esa ruhiy, dardli holat manzarasi chiziladi.

Tun kecha majlista yuzing vasfidin kechti hadis,

Sham’ g‘ayrat o‘tina yondi-yu, so‘zon yig‘ladi (70-bet)

Oshiq bir necha tun-kun yorning vasfida jamiki narsadan kechib, go‘yoki sham kabi jonini o‘tga berib yonganini, ko‘z yoshi uning yagona hamdamni, ovunchog‘i ekanligini ta’sirchan misralarda bayon etadi. Baytdagi “tun kecha” so‘ziga e’tibor bersak, ikkala so‘zda ham kechqurun ma’nosini borga o‘xshaydi. Sakkokiy lirkasida tun so‘zi kechqurun ma’nosida ham, bugungi kundan avvalgi kun ma’nosida ham keng qo‘llanilgan:

She’r o‘qidi tun kecha go‘yanda yuzing vasfidin,

Qo‘pdi har bir go‘shada ming nola-u faryod-u voy (63-bet).

Shoir baytda mubolag‘a tasvir kuchini bo‘rttirish, bo‘yoqlarni quyuqlashtirish evaziga o‘quvchiga estetik zavq beradi. Sakkokiyning so‘zlar sadafidan unumli foydalanish san’ati butun ijodi uchun xos xususiyat bo‘lib, shoir qo‘llayotgan topilma so‘zlar she’rda qaytariq bo‘lmashligiga imkon berib, g‘azallariga nisbatan o‘quvchida zavq-shavq uyg‘otadi. Shoir tun kecha so‘zidan tashqari tun axshom shaklidagi birikmani ham ishlataladi. Bunda kecha kechqurun ma’nosini ifodalanadi.

Tun axshom to‘lg‘onu sunbul bikin zulfindin oh urdum,

Havoni g‘oliya tutti, jahon mushki Xo‘tan bo‘ldi (72-bet).

Mumtoz shoirlarimiz tomonidan yorga, uning qaddi, yuzi, sochi, og‘zi, labi, ko‘zi, xoli va boshqa a’zolari haqida so‘z yuritar ekanmiz: ...mumtoz she’riyatidagi ko‘pchilikka ma’lum va mashhur bo‘lgan, ko‘p marotaba takrorlanib turuvchi, o‘tmishda aksariyat shoirlarning mulki hisoblangan an’anaviy badiiy tashbehlarni ham tushunamiz¹⁹⁴. An’anaviy badiiy tasvir vositalari sehri jozibasini tushinish, undan zavq ola bilish inson ruhiyatini yuksaklarga ko‘taradi. Uni ma’nana barkamol qiladi.

Yuzung xayoli ko‘ngulning viloyati shohi,

¹⁹⁴ Hayitmetov A . Adabiy merosimiz ufqulari. –T.: Sharq, 1997. –B. 209-210.

Bu yaxtu tole'ing ul jon sipehrining mohi (59-bet).

Baytdagi “ko‘ngulning viloyati, shohi” bo‘lish so‘zi istiora – “biron narsani omonatga (vaqtincha) olmoq”¹⁹⁵ san’ati bo‘lib, so‘zlarning ko‘chma ma’noda qo‘llanishi natijasida nozik ruhiy holat tasviri sifatida o‘quvchi yoki tinglovchi ruhiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, diliga estetik zavq bag‘ishlaydi. Istioralar tashbihning o‘ziga xos ko‘rinishi sifatida shoир tasvirlayotgan narsalar, tuyg‘ular, kechinmalarni o‘quvchi ko‘z oldida aniqroq gavdalantirish maqsadiga xizmat qiladi. Yana shuni aytish joizki, baytda saj’i mutavozi’ san’ati qofiyalangan “shohi” va “mohi” so‘zlar bilan ifodalangan.

Sakkokiy g‘azallarida “she’r baytida ma’no jihatidan har xil, ammo shakli bir xil yoki shaklan bir-biriga yaqin ikki timsolni ta’sirchan ifodalash san’ati”¹⁹⁶, ya’ni tajnis orqali g‘oyani yorqin ifoda qilgan baytlarini shoир ijodidan ko‘plab keltirishi mumkin.

Ol birla soldi olma yanoqing ko‘ngilga nor,

Bir burqa’ ol ko‘royin aning nozuk olini (71-bet).

Hiyla bilan olmaday yanog‘ing ko‘nglimga cho‘g‘ soldi, bir burqangni (paranjingni) olgin, uning (yuzning) nozik qizilini ko‘rayin. Shoирning o‘ziga xos uslubi ushbu baytda “ol” so‘zining uch ma’nosidan foydalanishida namoyon bo‘ladi, ya’ni ol (hiyla) birla ko‘ngilga in qurdi, olma (qizil) yanoqi yorning, natijada bir-biriga ol (mos) ko‘rdi mahbubasi qizil nozuk yuzini. Sakkokiyning tajnis san’ati orqali hosil bo‘lgan so‘z o‘yini baytlarga qanot berib, serjilo, zavqbaxsh satrlar yaratilishiga sabab bo‘lgan. Bu esa, shoирning yuksak mahorati tufayli shoh baytlarni yuzaga keltirgan, deyish mumkin. Fikrimizning isboti sifatida, Alisher Navoiyning quyidagi baytlarini olishimiz mumkin. Navoiydek she’riyat sultonii Sakkokiydan ilhomlangan, ta’sirlangan:

Olmani ol nigorim ol dedi,

Olma birla bu ko‘nglimni ol dedi.

So‘rgan edim olmasini rangini,

¹⁹⁵ O‘sha asar, 53-bet.

¹⁹⁶ Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat lug‘ati. – T.: Yangi asr avlod, 2008. – B. 104.

Ne so‘rarsan olma rangi ol dedi.

An’anaviy badiiy vositalardan foydalangan holda ham yangi, kutilmagan badiiy manzaralarni yarata olgan shoir quyidagi g‘azalida “yoqa keldi” so‘zi orqali tajnis san’atini qo‘llagan. Har bayt so‘ngida “yoqa keldi” so‘z birikmasi kelib, bu birikma bir necha: “kuydirib keldi”, “yoqtirdi”, “taskin berdi”, “xush keldi”, “qirg‘oq bo‘ldi”, “olov yoqdi” ma’nolarida ishlatilgan.

Gar hajring o‘ti jon-u jigarga **yoqa keldi**,

Jonimg‘a ne xush sharbati vasling **yoqa keldi** (89-bet).

Ya’ni ma’shuqaning visolida kuyib yonish, “hajring o‘ti” oshiq yuragini, “jonu jigar”ini kuydirib kelganligini (**yoqa keldi**), lekin bu mahbubning ko‘ngliga mahbubasi yetkazgan ozor shirin sharbat kabi uni sarkush aylab, joniga yoqqanligini (**yoqa keldi**) mamnuniyat bilan izhor qiladi.

Hajr o‘ti necha majruh etib buzdi jigarni,

Vasling bu shifo marhami ne xush **yoqa keldi** (89-bet).

Ushbu baytda yorning vasli hijroni, oshiqning majruh (majoziy) –ozorli, g‘amgin, xafa, qayg‘uli holatga solsa-da, mahbubasining vaslini bir bor ko‘rish mahbubning butun g‘amlarini aritib (**yoqa keldi**), qalbiga taskin bergenligini e’tirof etadi.

Devona bikin tishlab emas yugra-yu yururda,

Jon pora qilur holda elimga **yoqa keldi** (89-bet).

Lirik qahramon mahbubasining ishqida telbalaracha bir umrga yonib kuysa-da, hatto jonpora qilur holda, ya’ni jon berayotgan, vafot etayotgan vaqtida ham, uning ozorlari elimga (majoziy ma’noda yot, begona, xalq), oshiq joniga (**yoqa keldi**) - xush kelganligini mubolag‘a qiladi.

Daryo bo‘lub ollimda ko‘zum yoshi hamisha,

Sayyod mengizlik mening o‘rnum **yoqa keldi** (89-bet).

Shoir baytda mubolaga san’atini tajnis san’ati bilan birgalikda qo‘llab, faraxbaxsh satrlar yaratadi. Mahbubasining ishqida yongan oshiq, uning hajrida ko‘z yoshlari daryoga aylanib, sayyod (arabcha – ovchi, baliqchi), mengizlik baliqchi uchun (yoqa keldi) – qirg‘oq bo‘lganligiga ishora qiladi.

Zulfungni qachon solding o‘shul ol yorg‘oq uzra,
Jonimga mening ilsa ul o‘tni¹⁹⁷ **yoqa keldi** (89-bet).

Oshiqni maftun etib, hushidan ayirgan, uni ishq o‘tiga mubtalo qilgan mahbubasining zulfi muhabbatga tashna yuragiga olov yoqqanligini (**yoqa keldi**) bildirar ekan, zulfiga maftun bo‘lgan devona oshiqni zanjir kabi o‘ziga bog‘lagan yor, uni qalb maskaniga **yoqa keldi** – xush keldi, yaxshi keldi kabi.

Devona deding mani-yu zulfung sanga zanjir,
Oshiqlara ma’shuqi muningtek **yoqa keldi** (89-bet).

Sakkokiy she’riyati haqida so‘z yuritganda, uning turkona shoirligi so‘zlar va iboralarni turli jilolarda qo‘llashdan tashqari, g‘azallarda turkiy joy nomlarini ko‘p qo‘llashida ham ko‘rinadi. Shoир g‘azallarini o‘qir ekanmiz, kitobxon uchun yashab turgan qadron joy, daryo, tog‘ nomlari ajib bir faxr hissi tuydirib, uning ko‘ngliga yo‘l topib, benihoyat ilhomlantiradi. Jumladan, ushbu baytda, shoир mubolg‘a “badiiy timsol holati yoki harakatini bo‘rttirib, kuchaytirib ifodalash”¹⁹⁸ san’atining ikkinchi darajali ig‘roq, ya’ni “belgi yoki harakatni aqlan ishonish mumkin bo‘lsa ham, hayotda yuz berishi mumkin bo‘lmagan tarzda kuchaytirib”¹⁹⁹ tasvirlaganini ko‘rish mumkin.

Ma’lumki, Sakkokiy ijodida bayt tarkibida she’riy san’atlarni qo‘shaloq qo‘llash holati mavjud bo‘lib, yuqoridagi tahlillarda buni kuzatgan edik. Shoirning ushbu bayti ham to‘rt: nido, tajnis, kitobat, mubolag‘a san’ati ustiga qurilgandir:

Ey malohat mulkining sultoni, oz et yorliqa,
Qomatimni ul “alif”tek qaddingiz “nun” ayladi (90-bet).

Demak, baytda nido san’ati “Ey malohat mulkining sultoni”, “kula, yig‘la” tajnis san’ati va kitobat san’ati “arab alifbosi to‘g‘ri va egri, yoysimon va doirasimon shakllaridagi harflar”²⁰⁰ dan foydalanib, “yoy” mahbubasi “aliftek” tik qaddi-qomati oldida o‘zini “nun” – egik bo‘lganini mubolag‘a qiladi.

Movarounnahr ichra qoldim, chunki ikki yonima,

¹⁹⁷ “Hayot vasfi”da “mening iylasa ul o‘t” shaklida berilgan

¹⁹⁸ Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat lug‘ati. – T.: Yangi asr avlod, 2008. – B. 9.

¹⁹⁹ Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat lug‘ati. – T.: Yangi asr avlod, 2008. – B. 9.

²⁰⁰ Hojiahmedov A. She’riy san’atlar va mumtoz qofiya. – T.: Sharq, 1998. – B. 33.

Ko‘zlarimning biri Sayhun, biri Jayhun ayladi (90-bet).

Baytdan ko‘rinib turibdiki, oshiq – lirik qahramon yor ishqil dardida shu darajada iztirobga tushib, fig‘on chekib yig‘laydiki, ko‘zlaridan oqayotgan yoshning biri Sayhun, biri Jayhunga aylanib, dardmand oshiq ikki daryo o‘rtasida qolib ketadi, der ekan, muallif oshiq muhabbatini aql bovar qiladigan, hayotda esa juda kam uchraydigan darajada kuchaytirib, betakror lavha yaratadi. Ushbu baytda Sakkokiy mubolag‘a san’atining ig‘roq ko‘rinishidan foydalanish bilan birga talmeh san’atiga xos “Movarounnahr”, “Sayhun”, “Jayhun” va “biri” so‘zlarini qayta takror ta’kidlash bilan, ya’ni takrir san’atini she’rda qo‘llash bilan she’rda ohangdorlik va musiqiylikni ham uyg‘unlashtira olgan.

Shu o‘rinda, alohida qayd etish joizki, Sakkokiy ijodidan ilhomlanib, XX asr o‘zbek she’riyatining yirik vakili Erkin Vohidov ham nafis bir manzara yaratganligini ko‘rishimiz mumkin:

Nigorim chashmi ikkidur: biri jodu, biri yag‘mo,

Bu jodudan ikki ko‘zim biri Sayhun, biri Jayhun²⁰¹.

Sakkokiy lirikasini o‘rganishimiz natijasida, shoir ijodida Movarounnahr, Turkiston singari joy nomlari qayta-qayta ishlatalganini ko‘rdik.

Chin-u Hind elin parishon ayladi zulfung, vale,

Qildi yag‘mo ko‘zlarining majmuyi Turkistonni (95-bet).

Badiiy-tasviriy san’atlar Sakkokiy ijodida bir vosita bo‘lib xizmat qilganligini alohida uqtirish kerak. U o‘z fikr va g‘oyalarini badiiy asarning tarkibiy qismi sanalgan tasviriy vositalar bilan sayqallab bayon etgan. Shoir lirikasida barcha san’at namunalari qo‘llanilsa-da, tashbeh san’ati ifodasida o‘ziga xoslik ko‘zga tashlanadi. Ushbu san’at “sharq adabiyotida keng tarqalgan san’atlardan biri bo‘lib, “o‘xshatish” ma’nosini ifodalaydi. Ikki narsa yoki tushunchani ular o‘rtasidagi haqiqiy (real) yoki majoziy munosabatlarga ko‘ra o‘xshatish san’ati”²⁰²bo‘lib, Sakkokiy bu san’atni qo‘llaganda tashbehtar sodda va hayotiyligi bilan g‘azalxonning diqqatini tortadi.

²⁰¹ Vohidov E. O‘zbegin: She’rlar. – T.: Sharq, 2005. – B. 37.

²⁰² Hojiahmedov A. She’r san’atlarini bilasizmi? – T.: 1999. – B. 6.

Shakar irningga yobshunsam chibintek meni qo‘ymaslar,
Olib tashlar, bale, ko‘rsa kishi sharbat uzra xasni (87-bet).

Baytda qo‘shaloq tashbeh qo‘llanilib, oshiq mahbubasining shakar irniga yopishgan chivin (tashbih) va sharbat ustiga tushgan xasga o‘xshatilmoqda. Bayt tarkibida bu san’atni qo‘llash shoir muddaosini yorqin ifodalashiga omil bo‘ladi. Shoир lirkasini kuzatar ekanmiz, “Majoziy ishq ishqiy haqiqiyning bir ko‘rinishi yoki haqiqiy ishq yo‘lidagi o‘ziga xos bosqich sifatida baholanadi. Ruhan pok, ma’naviy komil inson uchun majozning o‘zi ayni haqiqat”²⁰³, – ekanligi oydinlashadi.

Yuzung bila zulfung uchun gohe kula, gah yig‘la-yu,
Doim kechurdim sham’tek umrumda subh-u shomni (88-bet).

Sakkokiy an’anaviy tashbehlarni shunchaki qo‘llamaydi. Shoир topgan tashbeh o‘ziga xos jozibaga ega bo‘lib, kutilmagan manzarani o‘quvchi ko‘z oldida jonlantiradi. Demak, tashbeh qo‘llash orqali she’riyatida zavqbaxsh ifodaga erishish Sakkokiy lirkasiga xos xususiyatdir. Barcha shoirlar yor yuzini gulga, ko‘zini ohu ko‘ziga tashbeh qiladilar. Sakkokiy tasvirlangan mahbuba yuzi ko‘zi bu tashbehlardan o‘ta yuqori jozibalidir, o‘z izhorini husni ta’lil san’ati orqali ifodalagan. Zero, “Shoir – olamni oydin haqiqatlarda ko‘rib, yorug‘ hissiyotlarda qalam tebratadigan shaxs, tashqi dunyonigina emas, u insonning ichki olami ham nurli bo‘lishi dardida yashaydi”²⁰⁴.

Yuzingni ko‘rsa qilur gul o‘zini yuz pora,
Xo‘tan yozisida ohu ko‘zingdin ovora (44-bet).

Yor yuzi shu qadar zeboki, uni ko‘rgan gul o‘zini yuz pora qiladi. Xo‘tan ohulari yor ko‘ziga ko‘zini o‘xshatishi bilan ovoradirlar. Shoир she’rlari o‘z davridagi ijod ahli g‘azallaridan shunisi bilan alohida ajralib turadiki, uning ma’shuqasi dunyoda tengsiz, unga monand bironta zot yo‘q. Buning tasdig‘i sifatida “Bo‘yungdek butmadi bo‘ston aro sarvi ravon, ey jon” misrasi bilan boshlanuvchi g‘azalini olib ko‘raylik. G‘azalning birinchi baytidanoq bunday

²⁰³ Is’hoqov Y. Navoiy poetikasi. – T.: Fan, 1983. – B. 25.

²⁰⁴ Ibrohim Haqqul. Mushohada yog‘dusi. II. – T.: Tafakkur, 2019. – B. 162.

sarvqomat go‘zal nafaqat odamzod nasli orasida, hatto tabiatda ham yaratilmagan, uning yuzi singari go‘zallik gullar orasida ham hali bu olamga kelmagani shoir g‘azallarida tabiat go‘zalliklari bilan bir parallel tarzda tasvirlagan:

Bo‘yungtek butmadi bo‘ston aro sarvi ravon ey jon,

Yuzingtek ham ochilmadi chamanda gulsiton, ey jon (43-bet).

Baytda yorning qiyofasi yaratilgan. Ammo yor siymosi tasviri tabiiy emas, ancha-muncha bo‘yoqdor, unda mubolag‘a bo‘rtib turadi. Masalan, yor bo‘yiga o‘xshaydigan sarvi ravon bo‘stonda bitmagani kabi, ma’shuqa yuzingdek, guliston chamanda ochilmasligi shoirona ichki zukkolik ila she’riy san’atlar vositasida o‘zgacha faraxbaxsh ifoda topgan. Shu sababli lirik qahramon nola chekadi. Bu fikrlar an’anaviy tasvirlarni eslatsa-da, shoir ijodida yangicha, original sado beradi.

Shoir o‘zi yaratgan she’riyat dunyosida yashab, mahoratini namoyish eta olgan, boshqalarga o‘xshamagan yangi tasvir va ifodalarni qo‘llaganki, bu ijodining o‘ziga xosligini ta’milagan. Ya’ni g‘azalda radif vazifasida kelayotgan “ey jon” undalmasi istiora bo‘lib, istiora ham Sakkokiy ijodida eng ko‘p qo‘llanilgan she’riy san’atlardan hisoblanadi.

Sakkokiy lirik qahramoni ma’shuqaga yetishish uchun har qanday jabr-u jafolarga ham tayyor. Ushbu baytda go‘zalning kipriklarini jangchilar tomonidan otilgan boshoqli o‘qlar bilan taqqoslaydi. Yorning o‘zagina emas, uning xayoli ham oshiq ko‘ngliga mehmon bo‘lsa, ma’shuqa yo‘llariga nigoron oshiq ko‘zlar gavhar sochadi:

O‘qunguzning bashoqing‘a ko‘ngul mushtoq-u ko‘z oshiq,

Bular taloshmoqin bo‘ldi ul ikki ora qon, ey jon (43-bet).

G‘azalning birinchi misrasida uch so‘z “b” tovushi bilan boshlansa, keyingi uch so‘zda “r” tovushi mavjud, bu tavze’ san’ati bo‘lib, bayt ravonligini ta’milagan. Shuningsek, tavze’ san’ati baytda “n” tovushi takrori orqali ham yuzaga kelib, “o”, “a” unlilari takrorida assonans san’ati zohir bo‘lgan:

Biror Rum ahlina zulfung habashning lashkarin solsa,

Ko‘ngul mulkinda ul soat topilmas hech amon ey jon (43-bet).

Ma'shuqaning tashqi qiyofasi tasvirida Sakkokiy go'zal mubolag'a yaratadi – yorning sochlari nafaqat oshiqni, balki butun Rum ahliga xuddi Habash lashkarining kuch-qudratichalik g'orat yetkazishi mumkin, agar shunday holat yuz bersa, "ko'ngul mulkida" – oshiqning qalbida aslo omonlik bo'lmaydi, uning qalbi junbushga keladi, vayron bo'ladi.

Sakkoiy ma'shuqaning qosh-u ko'zlar, kipriklarini, ayni paytda nozkarashmalarini tasvirlar ekan, oshiq uchun nihoyatda totli azoblardir. Ma'shuqadan jabr tortish oshiq uchun lazzatli damlardir kabi obrazlar ma'shuqaning husnini tasvirlashga xizmat qildirilgan, natijada betakror badiiy tasvirlar yaratilmoqda:

Sening la'lingdan o'ftonib qizorur la'l kon ichra,

Hasad eltur, mening yuzim ko'ruber za'faron, ey jon (43-bet).

Shu o'rinda "...qofiya har qanday she'rni to'g'ri tahlil va talqin qilishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi"²⁰⁵ degan qarashlardan kelib chiqib aytish mumkinki, g'azalda "ravon", "guliston", "qon", "amon", "kon", "za'faron" kabi qofiyadosh so'zlar natijada betakror badiiy tasvirlar yaratilmoqda.

Endi, shoirning ma'shuqa portretiga bag'ishlangan bir g'azalini ko'zdan kechiraylik:

Gul yuzingni orzulab yuz ko'zni gulzor ayladi,

Shakkar irningni tilab jon tanni afgor ayladi (93-bet).

Baytda oshiqning ma'shuqa "gul yuz"ining (tashbeh) orzusida ko'zlaridan yosh o'rniga qon oqayotgani (gulzor qip-qizil bo'ladi), natijada ma'shuq "Shakar arning" (tashbeh) tilab, jon-tani xarob bo'lganidan zorlanganini ko'rish mumkin. Baytdagi gul, gulzor va tan, jon so'zları bir-biriga bog'liq tushunchalar bo'lgani uchun tanosub san'ati yuzaga kelgan. Birinchi baytda shoir yor yuzining gul ekanini aytgan edi. Demak, yuzga nisbatan gul, oy, quyosh singari tashbehlari ishlatilgan. G'azalning navbatdagi baytida esa yorni oymikan yoki kunmikan, deb oshiq o'zini bilib turib bilmaslikka solmoqdaki, bu tajohuli orifona san'atini yuzaga keltirgan:

²⁰⁵ Hamroyeva O. Turkiy manbalarda mumtoz qofiyaning nazariy asoslari // https://tsuull.uz/sites/default/files/konferenciya_navoiy_va_gyote_26.06.2023-382-390_0.pdf

Oymudur yuzing yoxud xurshidi tobon, ey sanam,

Bore oning shu'lasi ko'zlarni bekor ayladi (93-bet).

Shoir g'azalda yor og'zi ta'rifini ham maromiga yetkazib ta'riflaydi. Bunda, albatta, shoir uchun husni ta'lil san'ati qo'l kelishi bilan birga ifrot san'ati orqali yor og'zi g'oyatda kichikligi ifoda qilingan. Natijada, baytda "badiiyat unsurlari g'oya mukammalligini ta'minlagan"²⁰⁶. Ushbu baytda husni ta'lil san'ati qo'llangan. Shoir o'z fikrini chiroyli asoslaydi:

Eltti og'zingdin o'g'urlab pista torlikni anga,

Tuz suvin quydilar oncha, ondin iqror ayladi (93-bet).

Go'yoki, pista torlikni yor og'zidan og'irlab olgani uchun uning oldida hijolat chekmoqda emish. Ma'shuqa uchun pista og'zini ochish uchun berilgan jazo ekanligi Sakkokiy tomonidan mahorat bilan tasvirlangan.

Ey Masihodam begin, bir dam bila bergil shifo,

Sheva birla ko'zlarining jonimni bemor ayladi (93-bet).

Shu o'rinda aytish mumkinki, g'azaliyotda mifologik va diniy-tarixiy obrazlar faol qo'llanib, ularning ayrim belgi-xususiyatlari she'riyatda ramzga aylanib ketgan. Shoirlar o'z ijodlarida ma'lum bir g'oyaviy-badiiy niyat bilan mazkur obrazlarga murojaat etishadi, ularning yetakchi sifatlariga ishoralar qilib o'tishadi. Shu ijodkorlar qatorida Sakkokiy ham an'anaviy obrazlardan poetik vosita sifatida faol foydalangan bo'lib, Iso Masih shunday obrazlar sirasiga kiradi. Yor – Masihodam. Uning shahlo ko'zi oshiqni bemor qiladi, biroq dami (so'zi) unga shifo beradi. Demak, yorning so'zi hayot bag'ishlovchidir. Sakkokiy tazod usulida adabiyotdagi an'anaviy Masih obrazi bilan kifoyalanib qolmaydi, balki yangi va original obrazlar yaratadi. Shu o'rinda, aytib o'tish kerakki, shoir Masiho (Iso) haqidagi diniy afsonalardan foydalanib, oshiq va yor munosabati bayonida tazod san'atini qo'llab, juda go'zal manzara yaratadi. Ya'nikim, u bemorga shifo, o'likka jon ato qiladi. Bunday tasvirlar shoir g'azallarida ilohiy ishq bilan majoziy

²⁰⁶ Qobulov U. Masih timsolining o'zbek mumtoz adabiyotidagi badiiy talqini: Filol. fan. nomz...diss. – Samarqand, 2001.

ishqning bir o‘zanga birlashishiga sabab bo‘ladi. Shu sababli shoir uni o‘likni tiriltiruvchi afsonaviy obraz – Masihdek mo‘jizakor va qudratli, deya tasvirlaydi.

Diniy tushunchalar bilan bog‘liq tarzda talqin etilgan tarixiy shaxslar obrazlaridan biri Iso alayhissalom obrazidir. Hazrati Iso barcha payg‘ambarlarga o‘xshab ota-onadan emas, tanho ona, ya’ni Bibi Maryamdan tavallud topgan, bu haqida Alisher Navoiyning yozishicha: Muqarrardurkim, Iso (a.s.)ning atosi yo‘qtur. Maryam Jabroil (a.s.)ning nafasi bila homila bo‘ldi va tug‘urur vaqtida Baytulmuqaddasdin chiqib, qirog‘roq yerda vaz’i haml qildi. Xalq bu ishni bilib, borib ul holni ko‘rub, irik so‘zlar ayta boshladilar. Yuqoriroq bitilibturkim, Iso (a.s.) ne nav’ javoblar berdi. Andin so‘ng el mutaajjib bo‘lub, so‘z ayta olmay qayttilar. Maryamni, Habib Najjorkim, xolazodasi erdi, Iso (a.s.) bila olib Damashqqa bordi. Iso (a.s.) o‘n uch yoshag‘uncha anda maosh qildi. Anda ham Iso (a.s.)ning mo‘jizoti ko‘b zohir bo‘ldi²⁰⁷.

Shu o‘rinda, Iso Masih badiiy timsoli Sharq she’riyatida qanday adabiy qonuniyatlargaga asoslanib o‘z g‘oyaviy-badiiy ifodasini topgan?, degan o‘rinli savol tug‘iladi. Chunonchi, Iso alayhissalom badiiy timsoli mumtoz she’riyatimizdan mustahkam o‘rin egallaganligi tasodifiy bo‘lmay, uning mo‘jizakorligi, ayniqsa, o‘likni tiriltirishi, dil va ruh uyg‘oqligi, ko‘ngul erkinligi ramzi kabi xislatlari, bizningcha, ijodorlarni o‘ziga tortib, qayta-qayta murojaat etishlariga sabab bo‘lgan.

Islom va Qur’on mavzusi o‘zbek adabiyotida tarixiy shaxslar obrazi talqinining o‘zak mohiyatini tashkil etgan. Islomiy adabiyotda tarixiy shaxslar obrazi iymon, e’tiqod, ezgu amallar, insonning Yaratgan oldida mas’ulligi kabi mezonlar asosida tasvirlangan. Shu bois ham, yagona Islom madaniyati hududlarida turkiy xalqlar adabiyoti boy an’analari jihatidan muhim o‘rin tutgan va o‘zga adabiyotlarga ham ta’sir o‘tkazgan²⁰⁸. Shoir yuqoridagi baytda “Ey Masihodam” so‘zlarini qo‘llashi orqali nido, talmeh, mubolag‘a san’atidan foydalanan ekan, ma’shuqasini Masihdek qudratga ega, deya iltifot qiladi. Ya’ni

²⁰⁷ Navoiy A. To‘la asarlar to‘plami. 10 томлик. 8-жилд. – Т.: Г‘афур Г‘улом номидаги нашрийот – матбаба уйи, 2011. – Б. 589-590.

²⁰⁸ Qarang: Karomatov H. Qur’on va o‘zbek adabiyoti. – Т.: Fan, 1993. – Б. 62.

oshiqni Masih emas, ma'shuqa dami shifolasin, chunki uning dami Iso Masihning nafasidan ham sehrli ekanligiga ishora qiladi. Ikkinchi misradagi ma'shuqaning shevasi, nazarimizda, g'amzali ko'zi ma'nosini bergan, o'sha ko'z oshiq jonini bemor aylagani shoir tomonidan lutf qilingan. G'azalda yuz, lab, og'iz, ko'z tasviridan so'ngra navbat yor zulfi tasviriga keladi:

Zohidekim ko'rdi zulfung kufrin imondin kechib,
Bo'ynida tasbihini belig'a zunnor ayladi (93-bet).

Butun umri taqvoga berilgan zohid ham yor zulfini ko'rgach, imondan kechib, tasbehini beliga zunnor qilib bog'laydi. Yor zulfi latofati, oddiy oshiqlarnigina emas, hatto zohidni ham dindan chiqarishga qodirdir.

Ko'nglum emgonmas, bale, sen necha achchig' so'zlasang,
Chun yaratig'da O'g'on gul qo'ngshisin xor ayladi (93-bet).

Ma'shuqa achchiq so'z (tashbeh) so'zlasa, oshiq ko'ngli o'ksimaydi, xafa bo'lmaydi, chunki yaratilishda gul yonida hamisha tikon yaratilgan. Gul va tikon so'zları vositasida tazod san'ati yuzaga keladi. Ana endi ko'z o'ngimizda ma'shuqa shakl-u shamoyili namoyon bo'ladi. Gul yuz, shakar lab, yuzi oy-u quyosh, og'zi pistaday tor, nafasi jonbaxsh, ishva ko'zli, ajib zulflı ma'shuqa oshiqqa achchiq so'zlaydi, unga muruvvat ko'rsatmaydi. Oshiq "ishq ishin" (istiora, assonans) oson deb tushunib, yuqoridagi sifatlarga ega mahbubaga ko'ngil berib, oxiri o'z jonining qiynalishiga, azoblanishiga duchor bo'ladi:

Ishq ishin Sakkokiy avval bilmayin oson ko'rub,
Oxiri o'z jonining ishini dushvor ayladi (93-bet).

Ijodkor adabiy merosini kuzatganimizda, shoirning bir baytda bir necha she'riy san'atlardan unumli foydalana olganligining guvohi bo'ldik. Masalan, quyidagi baytga e'tibor qaratsak:

Ey ko'zim, bir dam ur, bag'rimda hech qon qolmadi,
V-ey balo, rahm et tanimda qayg'udin jon qolmadi (65-bet).

Bayt mazmuniga ko'ra she'riy san'atlar qo'llanishini tahlil qilaylik. Mumtoz she'riyatda ba'zan mahbubaga, do'stlarga, ko'ngulga, dilga, saboga va hokazolarga murojaat qilib, muayyan g'oyalar, fikrlarni ilgari surish ko'zga tashlanadi. "Ey"

nido san'ati bo'lib, "ko'zim" bilan birgalikda mahbubaga murojaat ma'nosida kelgan. Shuningdek, shoir istiora san'ati, "ko'zim" deganda haqiqiy ma'nosidan emas, balki so'zning majoziy ma'nosidan foydalangan. Suyukli mahbubasini oshiqqa "dam ur"ishi Iso alayhissalomga xos jarayonni, Iso nafasi o'likka jon bag'ishlaydi degan afsonaga ishora qiladi, ya'ni talmeh san'atidan unumli foydalanadi. Shuningdek, "she'r baytlarida ma'no jihatidan bir-biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi so'zlarni qo'llab, ("Bag'ir" va "qon" "tan va jon" izoh bizniki, – I.G'.) ular vositasida obrazli ifodalar, lavha yaratib, tanosub san'atini yuzaga keltirgan"²⁰⁹. Bugina emas, qofiya bo'lib kelayotgan "qon, jon" so'zlarida saj'i mutavozi' san'ati bor. "M" tovushi takrori (baytda yetti joyda kelmoqda) tavzi' san'atini paydo qilmoqdaki, bu baytning ravon va musiqiyligini ta'minlagan.

Muallif tasvirlashicha, qahramon xatti-harakati voqealar bilan shunday bog'lanadiki, natijada u jonli harakat qiladi, so'zlaydi.

Gultek yuz uzra zulfung erur husn oyati,
Husn-u malohat ichra aning yo'q nihoyati (82-bet).

Mashuqa tasvirida, uning yuzini "gul" deb atash yangilik emas. Lekin Sakkokiy lirkasida gul – tabiat unsuri majoziy ma'noda qo'llangan. Zulfning husn oyati ekanligi bu Yaratganga ishora bo'lib, uning mukammalligi, ya'ni barcha husn-u malohat ichra tengsizligi ifodalanmoqda.

Sakkokiy o'z she'riyatida arab harflaridan badiiy san'at sifatida keng foydalandi.

Barcha xaloyiq to'p bikin tashlor oyoqing iza bosh,
Bu ishga zulfung "dol" erur, sen oni chavgon aylama (58-bet).

Aksariyat g'azallarida ishq kuydiruvchi, halok qiluvchi, ozor yetkazuvchi, jonga ziyon keltiruvchi, ko'ngilga dard soluvchi, oshiqni rasvoyi olam qiluvchi kabi sifatlar bilan ta'riflanadi. Bunday tavsiflarga munosib ko'rilgan ishqning o'zgacha muqaddaslik kasb etishi, oshiqning shunchalik jabr-u sitamlar iskanjasida qolishga tayyorligi, ayni istakning ro'yobga chiqishi uchun jonini ham nisor

²⁰⁹ Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. – T.: Sharq, 1998. – B. 19.

aylashi she’rxonni mushohadaga chorlaydi²¹⁰, – degan qarashlarni yuqoridagi bayt ham to‘liq asoslaydi.

Baytda zulf ikki narsaga tashbeh etilmoqda: biri chavgon o‘yinidagi chavgon tayog‘iga va ikkinchisi “dol” harfiga. Darhaqiqat, har ikkala tashbeh ham asosli bo‘lib, zulf bilan shakliy o‘xshashlik kasb etadi. Baytda oshiq esa go‘y (chavgon o‘yinidagi yog‘och to‘p)ga qiyoslanmoqda. Chunki go‘y chavgon tayog‘i qaysi tomonga ursa, o‘sha tomonga harakatlanadi. Oshiqning ham harakat yo‘nalishi ma’shuqaga bog‘liq. U ma’shuqaning ishqida go‘ydek, sargashta (sargardon, hayron).

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Sakkokiy g‘azallarida so‘z o‘yinlari, qochirim, xalqona ibora, ifodalar, maqol, hikmatli so‘zlar va diniy afsonalardan foydalaniib, oshiq va yor munosabati bayonida juda go‘zal manzaralar yaratgan. Bular Sakkokiyning o‘zbek adabiyoti uchun qo‘shgan munosib hissasidir.

Bashariyat axloqiy tafakkur xazinasiga ulkan hissa qo‘shgan Sakkokiy g‘azallarini o‘rganib, ulardan o‘quvchilar ma’naviyatini shakllantirish va takomillashtirishda unumli foydalanish mumkin.

3.2.§. Qasidalarda badiiy obrazning poetik tahlili

She’riyatining o‘ziga xos asosiy janri sanalmish qasida uzoq va boy tarixga ega. O‘zbek mumtoz lirikasida ham qasida o‘ziga xos tarixiy yo‘lni bosib o‘tgan. Sharq adabiyotida qasida janrida ijod qilish shoirning kamoloti sifatida baholanadi.

Qasida o‘zining qofiyalanish tizimiga ega ekanligini Sakkokiy, Navoiy, Ogahiy ijodida ko‘rish mumkin. Va bu qasidalar aruz she’r tizimida yaratilganligi bilan e’tiborni tortadi.

Qasida janrida talmeh she’riy san’atidan ham faol foydalaniladi. O‘zbek adabiyotidagi ilk qasidalardan to shu bugungacha yaratilganlarini ko‘zdan kechiradigan bo‘lsak, bu san’atning qo‘llanish doirasi ayni shu janrda ancha kengayganligini ko‘ramiz. Masalan, “Qutadg‘u bilig” asaridagi ilk qasida

²¹⁰ Eshonqulov H. Alisher Navoiy g‘azaliyotidagi ishq poetikasining qiyosiy-tipologik tahlili (“Xazoyin ul-maoniy” misolida): Filol.fan. d-ri diss.avtoref. – Samarqand, 2020, –B.18

namunasi sanalmish “Bahor madhi”da shunday talmehni uchratamiz: Sevinchin, avinchin, kuvenchin eli, Ashasu, yashasuni Luqman yili²¹¹ (Sevinch, ovinch, quvonch bilan eli, Luqmon yoshini yashasin (va) oshasin). Umuman, asardagi qasidalarda talmeh san’atidan ko‘ra o‘xshatish, sifatlash, jonlantirish, qarshilantirishlardan faol foydalanilgan. XV asrga kelib esa qasida janrining yetuk namunalari yaratilib, ularda talmeh san’ati yetakchilik qila boshlaganligini ko‘ramiz.

Qasida – arabcha “qasd” so‘zidan olingan bo‘lib, niyat, intilish ma’nolarini bildiradi. Qasida muhim tarixiy voqealar va mashhur tarixiy shaxslar haqida tantanali uslubda yoziladigan lirk Janr hisoblanadi. Shuningdek, mumtoz adabiyotda tabiat lavhalari, cholg‘u asboblari va boshqalarga bag‘ishlangan qasidalarni ham uchratish mumkin. Arab, fors-tojik va turkiy she’riyatda keng tarqalgan. Mahmud Qoshg‘ariyda “qonug” deb atalgan dastlabki namunalarini uchratish mumkin. Keyinchalik mustaqil, to‘laqonli janrga aylangan.

Har bir janrning mazmuniy, shakliy xususiyatlari mavjudki, ana shu xususiyatlar uni boshqa janrlardan ajratib turadi. Qasida so‘zining “to‘lib yetilgan mag‘iz” degan yana bir ma’nosи ham bor. Qasida o‘n besh baytdan kam bo‘limgan, birinchi bayt misralari boshqa baytlarning ikkinchi misrasiga qofiyadosh bo‘lgan nazm (“G‘iyos ul-lug‘at”).

Qasidalar mavzu va yo‘nalishiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Vasf qasidalar.
2. Madh qasidalar.
3. Marsiya qasidalar.
4. Hajv qasidalar.
5. Munojot qasidalar.
6. Falsafiy (orifona) qasidalar.

Qasidalar tuzilishi (kompozitsion) jihatdan 2 xil bo‘ladi: 1. To‘liq qasidalar (qasidayi tom). 2. Chala qasidalar (qasidayi mujarrad).

²¹¹ Hojib Yusuf Xos. Qutadg‘u bilig. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1971. – B.157.

To‘liq qasidalar nasib (tashbib), gurizgoh, madh, qasd kabi maxsus qismlardan tashkil topadi. Chala qasidalarda esa yuqoridagi komponentlarning ayrimlari bo‘lmaydi. Qasidalarning hajmi chegaralanmagan. Ular 12 baytdan bir necha yuz baytgacha bo‘lishi mumkin. Qofiyalanishi g‘azal singari a-a, b-a, v-a, g-a shaklida bo‘ladi. Qasida kirish bilan boshlanadi. Kirish nasib yoki tashbib deb nomlanadi. Qasidada kirish bo‘lmasa qasidai mahdud yoki qasidai muhtazab deb yuritiladi. Qasida duo va matlabni bayon qilish bilan tugaydi.

Bu janr dastlab arablarda paydo bo‘lgan, keyinchalik Eron, O‘rta Osiyo, Afg‘oniston, Hindistonga tarqalgan. Bu janr ustalari bag‘dodlik Abul Atohiya, suriyalik al-Mariylardir. Nosir Xisrav fors adabiyotidagi qasida janrining dastlabki namoyandalaridan biridir. XII asr fors-tojik adabiyoti vakili Anvariy 200 dan ortiq qasida yaratgan.

Bugunning mohiyati kelajak istiqbolini yaxshi anglatmoq uchun moziyni bilmoq kerak. Qizil imperiya o‘tmishimizni qora bo‘yoqqa bo‘yab, chala ko‘rsatib keldi. Mustaqillik bergen ulug‘ ne’matlardan biri o‘zbek xalqi tarixini, madaniyatini o‘rganishga, xolis o‘rganishga imkon yaratildi.

O‘tmishdagi turkiygo‘y shoirlardan biri Sakkokiy hisoblanadi. Bu ulkan ijodkor qoldirgan adabiy meros shu kungacha yetarli o‘rganilgan emas. O‘rganilganda ham sho‘ro siyosatiga moslab o‘rganilgan.

Navoiygacha bo‘lgan o‘zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri Sakkokiy adabiyotimiz tarixida o‘zining qasidalar bilan mashhur. Darhaqiqat, Sakkokiy devonining muhim bir qismini qasidalar tashkil etadi. Shoir “Devon”ida munojot – Allohga hamd, payg‘ambarga na’t, ta’rif va qasidalar keltirilgan. Qasida elementlari o‘zbek mumtoz adabiyotida ancha ilgari paydo bo‘lgan bo‘lsa ham, lekin maxsus adabiy janr sifatida o‘zbek adabiyotida XIV–XV asrda vujudga keldi. Sakkokiy o‘zbek qasidachiligining asoschilaridan biri bo‘ldi. Sakkokiyning mumtoz so‘zshunos va she’rshunoslar tomonidan qasidaga qo‘ygan barcha talablari asosida yozilgan she’rlari fikrimizga dalil bo‘la oladi²¹².

²¹² Bobokalonov S. Xoja Ismat va turki go‘y zamondoshlari she’riyatining janrlari, uslubi va badiiyati. Filol. fan. nomz. diss. – Buxoro. 2012. – B. 85

Adabiyotshunos M.Xasanova turkiy qasidalarning asosiy vazni ramalning mahzuf va hazajning solim shakllari bo‘lsa-da, muzore’, mujtass, rajaz bahrlarida ham qasidalar yozilganini qayd etgan²¹³.

Qasida janri turkiy she’riyatda birmuncha faol janrga aylangan bo‘lib, Sakkokiyning Ulug‘bek Sultonga bag‘ishlangan qasidalari shular jumlasiga kiradi²¹⁴.

Nº	Qasidalar ²¹⁵	soni	Bayti	Jami misrasi
1	Allohga hamd	1	22	44
2	Muhammad (s.a.v.)ga na’t	1	24	48
3	Ulug‘bek Mirzo 1.“Keldi” radifli 2.“Tilor ko‘nglum o‘zni solsavu bo‘lsa zulfina lolo” misrasi bilan boshlanuvchi 3.“Keldi maymunu humoyon iydi olam bo‘ldi shod” misrasi bilan boshlanuvchi 4.“Necha qilg‘oy ko‘ngul mulkin asir ul turki g‘oratgar” misrasi bilan boshlanuvchi 5.“Sabo keldi safo birla, ketur, ey soqiy sahboni” misrasi bilan boshlanuvchi	5	34 26 21 41 54	68 52 42 82 108
4	Arslonxo‘ja Tarxon 1.“Rabe’ keldiyo qildi jahonni shodu xurram” misrasi bilan boshlanuvchi 2. “Bu kun saharda keturdi anvid bodi sabo” misrasi bilan boshlanuvchi 3. “Ey falak, charx utgul, iqbol oldi yuzindin niqob” misrasi bilan boshlanuvchi 4. “Nedur ul ko‘zakim aning ichra bor obu hayot” misrasi bilan boshlanuvchi	4	43 43 36 12	86 86 72 24

²¹³ Xasanova M. XV asr turkiy she’riyatida qasida janri. Ko‘rsatilgan avtoreferat. – Samarqand, 2018. – B.19.

²¹⁴ Hayitmetov A. Temuriylar davri o‘zbek adabiyoti (tadqiqotlar, maqolalar, lavhalar). – T.: Fan. 1996. – B.161.

²¹⁵ Qarang. Ushbu tasnifda M.Xasanova ilmiy qarashlariga asoslandik. Mavlono Sakkokiy qasidalarining mavzu mundarijasi // Mavlono Sakkokiy devoni. – T.: Mumtoz so‘z, 2018. –B.109.

5	Xalil Sulton	1	30	60
6	Muhammad Porso	1	11	22
	JAMI:	13	397	794

Shoir qasidalarini o‘rganar ekanmiz, ularning hajmi turlicha, ya’ni 11 baytdan 54 baytga qadar ekanligini ko‘ramiz. Madh borasida eng ko‘p qasida Ululgbekka, ikkinchi o‘rinda Turkiston hokimi Arslonxoja Tarxon, keyin temuriy tojkor Xalil Sulton va devondagi eng ixcham qasida din peshvosi Xoja Porsoga bag‘ishlangan.

Sakkokiyl qasidalari tahliliga o‘tishdan oldin qasida haqidagi ushbu “...qasida o‘zining dag‘al jihatni bilan ko‘hna saroy qasidachiligidagi nihoyat ajib holdir... Shoirning an’anaga muvofiq qasidasi ta’rif-u tavsif bilan boshlashi va keyinchalik haqiqatni oshkor qilishi juda to‘g‘ri uslubdir”²¹⁶, – degan qarashlarni Sakkokiyning Xalil Sultonga bag‘ishlab, rajazi musammani solim vaznida yozilgan qasidasida ko‘rib o‘tish maqsadga muvofiq. Shoirning norozilik ohanglari aks ettirilgan ushbu she’riy satrlar uning naqadar haqso‘z shoir ekanligini ko‘rsatadi:

Farmon qilichg‘a qilsang ul a’doni qin ichra qirar,
Xayr ishni ta’xir etmagil bot qil chu xush farmon erur...
Baxt-u saodat eshiking tuproqi birla muftaxir,
Xodimlaringdan bu falak lekin anga nayson erur.
Meni jafo birla vale jong‘a yeturdi ul Qari,
Kim goh shartini buzar, goh va’dasi yalg‘on erur (15- bet).

Qasidani o‘qigan kitobxon chinakam shoirona qalb har qanday vaziyatda ham o‘z haqgo‘yligini kanda qilmasligini anglab yetadi. Shu o‘rinda ta’kid joizki, Sakkokiyning quyida Ulug‘bek Mirzoga bag‘ishlab yozilgan qasidalari tahlilida shoirning bir yoqlamalikka yo‘l qo‘ymagani, ya’ni haqiqatga yo‘g‘rilgan qasida sifatida qabul qilish uchun yuqoridagi Xalil Sultonga bag‘ishlangan qasidasidan misol keltirdik.

Zero, Ulug‘bek Mirzo Movarounnahr Samarqandda ilm-fan, matematika va

²¹⁶ Бертельс Е.Э. Литература народов Средней Азии. // Новый мир. Jurnal, 1939. —С. 279-280

astronomiya taraqqiy etishiga homiy bo‘lgani tarixiy asarlardan yaxshi ma’lum. Jumladan, Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuar”: Ulug‘bek Ko‘ragon, (qabri (hamisha) ravon bo‘lsin) podshohi olam, odil, g‘olib va sohibi himmat edi. Ilmda oliy martabaga erishdi. Maoniyda mo‘yni (ham) teshar edi. Uning zamonida ulamoning darajasi ko‘tarildi va fuzalo zo‘r martabaga erishdi. (Mirzo Ulug‘bek) xandasada, daqoyiq namo, hay’at ilmi masalalarida Majastiy kusho edi. Hukamo va fuzalo ittifoodirlarki, islomiyat davrida, balki (Iskandar) Zulqarnaynning zamonidan shu davrgacha, ilmi hikmatda Ulug‘bek Ko‘ragonday podshoh saltanat taxtida qaror topgan emasdur²¹⁷.

Shayx Ahmad Taroziy esa o‘zining “Funun ul-balogs” asari muqaddimasida: Ul saltanat daryosining gavhari va ma’dilat konining javhari, saxovat bo‘ronining abri va shijoat beshasining babri, farosat sipehrining mohi, kayosat mamlakatining shohi, shahanshohi a’zam, shahriyori a’lam, sohibus sayf va-l qalam, farmondehi turku arabu ajam, mag‘isiddin va-d davron amir Ulug‘bek Ko‘ragon²¹⁸, – deydi.

Manbalarda Ulug‘bekning adiblar hamda badiiy adabiyotga munosabati haqida muhim ma’lumotlar mavjud. Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois”, Faxriy Heraviyning “Ravzat us-salotin” va Abu Tohirxojaning “Samariya” asarlarida Ulug‘bek ko‘proq astronomiya ilmi bilan shug‘ullansa-da, gohida nazmga mayl qilgani ta’kidlanib, uning qalamiga mansub quyidagi forsiy bayt keltiriladi:

Harchand mulki husn ba zeri nigini tust,
Sho‘xi makunki, chashmi badon dar kamini tust.

Mazmuni:

Go‘zallik mulki harchand qo‘l ostingda bo‘lsa-da,
Sho‘xlik qilmagilki, yomonlarning ko‘zi senga tikilgan.

Mirzo Ulug‘bek zamonida Movarounnahr va Xurosonda badiiy adabiyot asosan ikki tilda – turkiy va forsiy tillarda taraqqiy etgan. Lutfiy, Atoyi, Sakkokiy, Harimiy Qalandar kabi shoirlar turkiy tilda, Mir Qosim Anvor, Xoja Ismatulloh

²¹⁷ Ahmedov B. Davlatshoh Samarqandiy, T.: Fan, 1967. –B. 57-69

²¹⁸ Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. Funun ul-balogs // O‘zbek tili va adabiyoti, 2002, №6, –B.75

Buxoriy, Bisotiy Samarqandiy, Xayoliy Buxoriy kabi shoirlar fors tilida ijod qilishgan va ularning merosidan muayyan qismi bizning davrimizgacha yetib kelgan. Ulug‘bek o‘z davri shoirlari asarlarini yaxshi bilgan va ulardan ko‘pchiligi bilan bevosita munosabatda bo‘lgan²¹⁹.

Sakkokiyning alohida e’tiborga ega, Amir Temurning to‘rtinchi o‘g‘li Shohrux mirzoning to‘ng‘ich o‘g‘li Ulug‘bek mirzoga bag‘ishlab yozgan 5 ta qasidasi, yuqorida alohida ehtiromga loyiq bo‘lgan shaxs tavsif-ta’rif uchun bo‘lganligi bilan qimmatli, deb o‘ylaymiz.

Madhiyada uningadolatli, bilimli, g‘arb mutafakkirlari asarlarini o‘qigan, 40 yildan ortiq hukmronlik qilgan, Samarqandni obod qilib, Registonda madrasa, masjid, xonaqohlar barpo etgan shaxs sifatida ta’riflaydi. Sakkokiy qasidalarida Ulug‘bek Mirzoning rasadxonasi, ilmi nujumga oid mashhur “Ziji Ko‘ragoniy” asari haqida ma’lumot yo‘q. Binobarin, Sakkokiy Ulug‘bekdan avval dunyodan o‘tgan,²²⁰ – deya Sakkokiy qasidalariga o‘z munosabatini bildiradi adabiyotshunos olima S.G‘aniyeva.

Shoirning Ulug‘bekka bag‘ishlab yozgan qasidalarida mubolag‘ali maqtovlargina emas, balki tarixiy haqiqat ham bo‘lib, bu tarixiy haqiqat yetakchi rol o‘ynaydi. Ulug‘bek boshqa hukmdorlardan ma’rifatparvar va buyuk olim sifatida ajralib turar edi, shu bois shoir maqtovlarining zamirida tarixiy haqiqat ustuvorlik qilgan, deyish mumkin. Darhaqiqat, Sakkokiyning Ulug‘bekka bag‘ishlab yozgan qasidalarida mubolag‘ali maqtovlargina emas, balki o‘tmish haqiqati ham bo‘lib, bunda tarixiylik tamoyili yetakchi rol o‘ynagan.

Sakkokiyning Ulug‘bek Mirzoga bag‘ishlab yozilgan “Keldi” radifli qasidasi mazmunan baquvvat bo‘lishi bilan birga she’riy san’atlarga yo‘g‘rilgani bilan ham diqqatga molikdir.

Jahondin ketdi tashvish-u mabodiysi amon keldi,

Xaloyiq! Aysh eting bu kun, sururi jovidon keldi (11-bet).

²¹⁹ Hasanova M. Ko‘rsatilgan dissertatsiya. 2018. –B. 47-48

²²⁰ G‘aniyeva S. Mavlono Sakkokiy devonining Anqara nashri xususida // Mavlono Sakkokiy [Matn]: devon / nashrga tayyorlovchilar: Jo‘rayev J., Jo‘rayev J., Xatamov O‘. – T.: Bookmany print, 2024. – B.4

Bayt mazmunidan ko‘rinib turibdiki, yurt, ulus boshiga “Sulaymoni zamon”, “No‘shiravon”, “Musotek shubon”, “atodin mehribon”, “xurshidi zamon”, “Shahshoh Shohruhbek” kabi sifatlarga ega bo‘lgan Ulug‘bekdek podsho “mabodiyi amon”²²¹ (“mabodiyi” so‘zining lug‘aviy ma’nosi boshlanish, ibtido, “omon” so‘zi tinch, xotiram, najot, xalos) kelgani uchun xalqqa xitob qilib, jamiki tashvish ketdi, xursand bo‘lib aysh eting, deydi.

Demak, Ulug‘bekning taxt boshiga kelishi, tinch, xotirjam hayotning boshlanishi ekanligi bilan ulusni qutlab, xursand bo‘lishga chaqirib, “sururi jovidon” (Surur – shodlik, jovidon – abadiy, mangu), abadiy shodlik keldi, deya shoir lutf qiladi. Sakkokiy baytda bir necha tasviriy vositalardan, jumladan, boshdan oxirgacha mubolag‘a, tashbeh (mabodiyi amon), tazod (tashvesh-quvonch), tanosib (omon-jovidon), nido (Xaloyiq) san’atlaridan unumli foydalanilgan.

Tan erdi bu ulus barcha, aningdek joni bor yo yo‘q,
Bihamulloh, O‘g‘on fazli bila ul tang‘a jon keldi (11-bet).

Shoir Ulug‘bekni madh etar ekan, uning taxtga kelgani uchun “Bihamulloh” (Allohga maqtov) shukrona keltiradi. Shuningdek, “O‘g‘on” (xudo) fazl (saxiylik, saxovat)ining, xohishi bilan jonsiz tana bo‘lgan ulusga, Ulug‘bek taxtga kelishi tufayli, jonsiz tanlarga jon kirgan, ya’ni Ulug‘bek o‘sha jonsiz tanlarga Tangrining inoyati ila jon bag‘ishladi, deya bong uradi.

Sakkokiy qasidada odil, dono podshoh va olim Ulug‘bek qiyofasini jaholat dunyosiga qarshi qo‘yar ekan, uni ta’rif-u tavsiflash uchun she’riy san’atlarga murojaat qiladi. Baytda “tashbeh” san’ati orqali ulus tanga, Ulug‘bek jonga mazmunan o‘xhatilsa, tan va jon bir-biriga bog‘liq bo‘lgani uchun “tanosub”, joni bor yo yo‘q “tazod”, O‘g‘on “talmeh” san’ati namunasi ekanligini ko‘rish mumkin.

Bu **mavkib** gardi surmasi topilmas erdi berib jon,
Ko‘rung ko‘z birla Haq sun’in kim, ush xush roygon keldi (11-bet).

²²¹ So‘zlarni izohlashda quyidagi lug‘atlardan foydalanildi. Tuzuvchilar: Shamsiyev P., Ibrohimov S. –T.: 1972; Hasanov B. Navoiy asarlari uchun qisqacha lug‘at.: Hasanov S., Rustamov M. va boshqalar. Savodxonlar lug‘ati. –T.: 1992.

Sakkokiy Ulug‘bekning taxt boshqaruviga kelgani, nafaqat ulus xalqqa, balki “mavkib” (shohni kuzatib yuruvchi suvoriylar, mulozimlar)ga ham xayrli bo‘lganini, suvoriy-u mulozimlar ham shu paytgacha xuddi ulus kabi jonsiz bo‘lgan bo‘lsa, endi o‘zlarining ko‘zlarining bilan ko‘ringlar, Haq (Alloh)ning sun’in (hech bir sa’y – harakatsiz, osongina) qudrati bilan, xush royon – qudratli inson kelganini masrurlik bilan misralar qatiga singdiradi.

Alamtek barcha beklarning boshi ko‘kka kerak tegsa,
Kim onlar **takya** qilg‘ali bu qutlug‘ oston keldi (11-bet).

Shoir Ulug‘bekni mubolag‘a bilan madh etar ekan, yuqoridagi baytlarda e’tirof etilgan ulus, suvoriy, mulozimlargina emas, balki barcha beklarning ham boshi “Alamtek” (alam – bayroq), ya’ni bayroqdek ko‘kka yetdi, deydi. Zero, adolatli qutliq boshlovchi hukmdor kelgani ucnun beklarning tinch bosh qo‘yishga takya (yostiq) borligini (takya qilg‘ali – yostiqqa bosh qo‘ymoq, boshi ko‘kka yetmoq) aytgan shoir baytda mubolag‘a, tashbeh, tazod san’atidan o‘rinli foydalana olgan.

Ma’rifatparvar olim Ulug‘bekni mubolag‘a bilan madh etgan shoir shakl va mazmunni saqlagan holda qasidaning har bir baytida bir nechta badiiy tasvir vositalarini qo‘llaydi. Quyidagi baytda ham shu holatni kuzatish mumkin.

Jahondin Ahraman ketib, musaxxar bo‘lg‘ay ins-u jon,
Kim ush taxtini yel ko‘trub, Sulaymoni zamon keldi (11-bet).

Shoir zolim podshoh va amaldorlardan qattiq nafratlanadi. Shu bois Ulug‘bekning taxtga kelishini go‘yoki dunyodan yovuz Ahraman (yovuzlik va zulm ramzi, badiiy adabiyotda dev, shayton) ketib, Sulaymon kelishiga muqoyasalaydi. Baytda shoirning talmeh san’ati orqali ham yovuzlik (Ahraman), ham ezgulik (Sulaymon)ni ifodalay olgani, shuningdek, tazod san’atidan foydalanimusaxxar (bo‘ysundirilgan, taslim qilingan) ins (odam), jon (jinlar) misra qatiga singdira olgani shoir mahoratining yuksakligi belgisi deyish mumkin.

Shoir xalq, el-ulusni qo‘y kabi barokatli, yuvosh deb bilsa, uning boshiga kelib toj kiygan podshoni Musodek (talmeh) cho‘pon (xalqqa qayishuvchi) yoki

qonxo'r va yirtqich bo'ri kabi yog'iy dushman deb hisoblar ekan, Ulug'bekning taxt tepasiga kelishini bo'rining olgani, qo'yning qutilgani (tazod) deya madh etadi.

Raiyat qo'y erur, sulton anga cho'pon yog'iy bo'ri,
Bo'ri o'lg'o-yu qo'y ting'oy, chu Musotek cho'pon keldi (11-bet).

Shoir fikricha, agar podsho bo'ri bo'lsa yurt halokatga uchraydi, cho'pon bo'lsa el-ulusda tinchlik bo'ladi. Obodonchilik va farovonlik kuchayadi, el-u yurt tinchiydi. Shoir Ulug'bekni Muso payg'ambar bilan taqqoslaydi, uni el homiysi bo'lgan Muso kabi bir cho'pon hisoblaydi. Shuning uchun uning davrida yirtqich bo'rilar yo'qoladi, raiyat tinchiydi, deb ishonch bildiradi. Qasidada lirik qahramon xalqqa murojaat qilib, hayotlaridan qorong'ulik ketgazgani xurshidi zamon kelganini faxr ila madh etadi:

Ko'ngullar bo'ldi xusn ravshan ko'rub qolmadi bir zarra,
Qorong'ulik ketib, holi chu xurshedi zamon keldi (11-bet).

Shoir baytda Ulug'bekni madh etar ekan, uning taxtga kelishi el-ulus boshidagi zimiston qorong'ulikni ketkazib, ular uchun quvonchli, g'amsiz xushnudlik olib kelgani, shu bois ko'ngullar ravshan bo'lganini tazod san'ati orqali obrazli ifoda qilgan. Sakkokiy qasidalar turkiy xalqlar folkloriga xos o'xshatishlar, ta'bir va iboralarga juda boy.

Ko'rub tulku bikin dushman inida o'lg'ay ochliqtin,
Ne qilsun ustina haybat bila sheri jayon keldi (12-bet).

Tarixdan yaxshi ma'lumki, barcha hukmdorlarni ham shunday madh etib bo'lmaydi. Chunki yurt-ulusni talagan, zulm o'tkazgan hukmdorlar ham juda ko'p bo'lgan, lekin Ulug'bek sultonlar ichida a'losi, qaysidir ma'noda xalqparvar, ma'rifatparvar hukmdor edi. Shu bois, uni harbiy ishlarda, janglarda tengi yo'q kishi sifatida ta'riflagan shoir faxriya yo'li bilan Ulug'bekni shunday ulug'laydi:

Salotin dunyoda ko'p keldi-yu kechti, seningtek bir,
Falakning gar tili bo'lsa, ayitsunkim, qachon keldi?(12-bet)

deya, xitob qilib, podshohlik faoliyatini yuqori baholagan. Shoir qasidalarini

kuzatar ekanmiz, uni badiiy tasvir vositalaridan tuyg‘ularini teranroq ifodalashda, obrazlarni yorqinroq tasvirlashda ulardan bir vosita sifatida foydalanganligining shohidi bo‘lamiz. Shoirning taxallusi qasidaning 31-baytida kelgan.

Shaho! Lutfingni topqom deb, duochi banda Sakkokiy,
Belin joni bila bog‘lab, bu xidmatga ravon keldi (13-bet).

Shu o‘rinda qayd etish kerakki, shoirning qolgan qasidalarida ham shunday, ya’ni misralarda tasvirlanayotgan mazmun taqozosiga ko‘ra, muallifning taxallusi turli o‘rinlarda keltirilgan. Sakkokiy qasidalarida oldida turgan g‘oyaviy niyatni oydinlashtiruvchi ishoralarga urg‘u beriladi. Jumladan, uning qasidalaridan birida kelgan mana bu satrlarda shunday manzarani ravshanroq ko‘rish mumkin:

Keldi maymun-u²²² humoyan iydi olam bo‘ldi shod,
Maqdamasi sizga muborak, bo‘lsin, ey Xusravnihod.
Ishrat asbobi muhayyovu qamug‘ boron zarif,
Saqlasun Qodir yomon ko‘zdin o‘qili “In yakod”.
Ushbu jashn-u ushbu toq-u ushbu ayvon-u saroy,
Ko‘rmodi davrinda Jamshed-u Faridun-u Kubod.
Adl-u dodekim bu kun Sulton Ulug‘bek yuritur,
Ko‘rmodi No‘shiravon umrida andog‘ adl-u dod (19-bet).

Qasida to‘liq mubolag‘a va talmeh san’atlari mushtarakligida yaratilgan. Matn mazmun-mohiyatidan ayonki, shoir mulki Ajamda sultanat surib, tarixda o‘chmas nom qoldirgan ulug‘ shohlardan ham Ulug‘bek Mirzoni ustun qo‘yadi va uning adl-u amniyatiga yuqori baho beradi. To‘g‘ri, Sakkokiy qasida janriga xos maqtov – mubolag‘aga urg‘u bergen, ammo tarixiy haqiqat, Ulug‘bek Mirzo yurt farovonligi va ravnaqi uchun amalga oshirgan ishlar yuqorida keltirilgan mubolag‘a uchun muhim asos bo‘lgan. Ushbu qarashimizni zarif inson Ulug‘bek Mirzoning hukmdorlik faoliyatiga xolisona va to‘g‘ri baho bergen tarixiy manbalar to‘liq tasdiqlaydi. Sakkokiyning Ulug‘bek Mirzoga bag‘ishlangan yana bir qasidasi chuqur lirizm asosida yozilgan.

²²² Qarang. Ulug‘bek mirzo madhi. Ko‘p yillar avvalgi qasida bilan o‘qilib (qo‘lyozmada ikkala qasida orasiga biror belgi qo‘yilmagani sababli bo‘lsa kerak) shoir qasidalari 10 ta, Ulug‘bek mirzoga bag‘ishlangan 4 ta hisoblanib kelinar edi.

Necha qilg‘oy ko‘ngul mulkin asir ul turki g‘oratgar,
Bo‘yi to‘g‘ri, qoshi egri, ko‘zi o‘g‘ri, so‘zi shakkar (25- bet).

Baytda tazod san’atini qo‘llagan shoir lirik qahramonning sarv kabi tik, to‘g‘ri bo‘yi, kamondek egri qoshi va shirin-shakar so‘zi ekanligini badiiy-tasviriy bo‘yoqlarda tasvirlagan. Shu o‘rinda aytish joizki, shoirning bu san’atdan foydalanishiga shunchaki shakl emas, balki qasida g‘oyasining ichki mazmun-mohiyati ehtiyoji sabab bo‘lgan. Shoir so‘zlarga urg‘u berib, yaxlit bir ma’no ifodalab, o‘z fikr-mulohaza va qarashlarini ta’kidlaydi.

Necha qilgoy g‘am-u andeshavu hasrat bila dardi,
Jonom qovu damim o‘tu ko‘ngul udu tanim mijmar (25-bet).

Baytda shoir lirik qahramon ming andesha bilan dard-hasrati, ishqda joni kov (qovurilgan), ishqqi qalbini mijmar (cho‘g‘don) kuydirib, natijada ud (olovga solsa hid chiqaradigan musiqa asbobi) kabi ovoz chiqarayotganidan zorlanishini mubolag‘a, tanosub san’atlari orqali ifodalaydi.

Sakkokiy qasidada ma’rifatparvar olim Ulug‘bekni ham tavsiflashda talmeh san’atidan unumli foydalanib, Sulaymon, Arastu, Platon, Ptolemey, Galin, Falen kabi nomlarni qo‘llab, uning olimlik jihatlarini ochib berishga erishgan. She’riy qatorlardagi har bir ishora muayyan vazifani bajaradi va turkiygo‘y shoirning g‘oyaviy niyatini she’rxonga yetkazishda samarali xizmat qiladi.

Sango bo‘ldi Sulaymontek vuhushu tayru insu jon,
Jahon banda, zamon xodim, qadar darbon, qazo chokar.
Aristolis-u Aflatun-u Batlimus-u Jolinus,
Ali Sinovu Fayloqus, Apastuvu Abu Ma’shar (26-27-bet)

Shuningdek, shoir qasidalarining nasib va madh qismlaridagi ba’zi lavhalar tug‘ilgan joyi bo‘lgan Movarounnahr va hayotining asosiy qismi o‘tgan Samarqandning yuragiga cho‘g‘ tashlab junbushga solgan go‘zal manzaralarni berishga bag‘ishlangan.

Sabo keldi safo birla ketur, ey soqiy, sahboni,
Ulub qutlug‘ilinga berk, tut ul jomi musaffoni.
Ketib qish zahmati keldi muborak yoz bila rahmat,

Kecha kunduz kerak qilsak chaman sahnida ma’voni.

Kechar xud dunyoda umr-u g‘am-u shod-u zavq-u aysh,

Ish etgil kechmosun zo‘e guli gulzor Nuqoni (29-bet).

Ijodkor mubolag‘a, tazod, tasbeh, tanosub san’atlari orqali o‘z yurtini madh etar ekan, bu she’riy misralar she’rxonga badiiy zavq bag‘ishlaydi. Samarqandning betakror manzaralari, tepaliklaridagi lolaqizg‘aldoqlarning yal-yal yonuvchi lavhalaridan beqiyos zavq olgan Sakkokiy, o‘sha jannatiy ko‘rk-u tarovat bilan misralarini sayqallash orqali qasidalarining mavzu va g‘oyalar olamini boyitishga muyassar bo‘lgan.

Shoir dunyo e’tirof etadigan qomusiy olim Ulug‘bek Mirzo fazilatlarini rangin ifodalashda bor mahoratini ishga soladi, yer-u samoni bir-biriga bog‘lashda qo‘l keladigan so‘z va iboralarni tanlaydi. El nazarida bo‘lgan gul, yulduz va muqaddas shaharlarni (Samarqand-u Buxoro) kafillikka keltirish orqali falakiyot ilmi donishmandining tasvirini chizishga erishadi:

Aningdek bo‘ldi yer ko‘kkim, kishi yer ko‘kni farq etmas,

Shukufe har zamon nozil qilur ko‘ktin surayyon.

Keturdi lola bu mijmar ichinda anbari saro,

Qilur vola buhurindin Samarqand-u Buxoroni (30- bet).

Tahlilga tortilgan qasidaning boshdan oxir barcha misralarida maqtovning me’yordan chiqqani, shu she’riy shakl ohorini to‘kishga xizmat qiluvchi o‘rinlar deyarli uchramaydi. Ayni misralardan tarkib topuvchi qasida yana bir fazilati bilan e’tiborga molik. Asarning tashbibidan xotimasiga qadar “laffu nashr” (yig‘moq va yoymoq) san’ati yetakchilik qiladi. Albatta, bizning bu ta’kidimiz, qasida misralarida qo‘llanilgan boshqa, jumladan, talmeh, tashbeh, mubolag‘a kabi she’riy san’atlarni inkor etmaydi.

Sakkokiy madh etilayotgan hukmdorning odilligini tasvirlash uchun turkiy xalqlar folklorida keng tarqalgan antitezalardan unumli foydalanadi. Bu antitezalar ojiz hayvonlarni kuchli hayvonlarga qarshi qo‘yish bilan yaratilgan:

Quyon, tulku, kiyik, arg‘or saning adlingda ushbu kun,

Palang, bars-u, bo‘ri arslonni koj urub surub quvlar.

Turumtoy, qarqunoq, qirg‘u-yu, big‘uy gar solur bo‘lsang,
Olur jurg‘u ila nasr-u tutar fath-u zafar ovlar (27-bet).

Shoirning Ulug‘bek madhidagi besh qasidasini adabiyotshunoslikda ham shaklan, ham mazmunan o‘z munosib o‘rniga ega deyish mumkin.

Shu o‘rinda alohida qayd etish lozimki, Sakkokiy yashagan davrdagi deyarli barcha shoirlar qasida janrida ijod qilishgan. Qasidanavislikni chuqur o‘rgangan olima M.Hasanova bu davr qasidanavisligi haqida shunday ma’lumot beradi: Ularning eng mashhurlari Mavlono Sakkokiy, Mavlono Lutfiy, Hofiz Xorazmiy, Haydar Xorazmiy, Shayx Ahmad Taroziy, Mavlono Gadoiylardir. Ular tomonidan 30 dan ziyod qasidalar yaratilgan. Birgina temuriyzodalarga bag‘ishlangan, bizga hozirgacha ma’lum bo‘lgan, turkiy qasidalarning o‘zi 20 dan ortiq. Ulug‘bek Mirzoga bag‘ishlangan 9 ta (5 tasi Mavlono Sakkokiy, 3 tasi Shayx Ahmad Taroziy (“Funun ul-balogs‘a” orqali qisman yetib kelgan), 1 tasi Abdurazzoq Baxshi qalamiga mansub)²²³, – degan ma’lumotga qo‘srimcha qilib, Haydar Xorazmiyning Sakkokiyning Ulug‘bek Mirzoga atab yozgan qasidasiga nazira tarzida o‘ttiz baytli qasidasi borligini aytish mumkin.

Darhaqiqat, Sakkokiyning Ulug‘bek Mirzoga atab yozgan qasidasiga nazira tarzida qasida bitganlar Haydar Xorazmiy hamda Abdurazzoq Baxshidir. Turkiyalik olima Ayshagul Sertqoya Haydar Xorazmiy hamda Abdurazzoq Baxshilarning qasidalarini Sakkokiyning qasidasiga bag‘ishlanganligini aniqlashtirdi²²⁴.

“Shaxzoda Abdurazzoq baxshi hayoti va asarlari” kitobida Mir Haydar Xorazmiyning Sakkokiy qasidasiga nazira yozganligi haqida ma’lumot beriladi va Haydar Xorazmiyning 30 baytli qasidasi turk tilida tranksripsiysi keltiriladi. Shu bilan birga Sakkokiy va Haydar Xorazmiy qasidalarini qiyoslash natijasida qasida Sakkokiyning qasidasiga bag‘ishlanganligini aniqlashtiradi. Asar qo‘lyozma holatda Eron milliy kutubxonasida 647 raqam ostida saqlanadi. Mirzo G‘ofur Tabriziy Boyso‘ng‘urning hijriy 850-yili (1450-milodiyda) “Muntahabul-ash‘or”

²²³Hasanova M. Ko‘rsatilgan dissertatsiya. 2018. –B.43

²²⁴Ayşa Güle Sertkaya. Şayh-zade Abdurrazak bahşı hayatı va eserleri. –İstanbul, 1997. –B.3-5

nomli majmuasiga kiritilgan. Tehron milliy kutubxonasi mudiri doktor Mehdi Bayoniy tomonidan Tarxon Ganjaviy tayyorlagan matn transkripsiyasini “Taqizoda armug‘oni” nomli to‘plamda nashr qildirdi²²⁵. Usmon Fikriy Sertkaya tarafidan uyg‘ur yozuvidan transkripsiysi tayyorlangan²²⁶. Haydar Xorazmiyning bu qasidasi Sakkokiyning Ulug‘bek Mirzoga bag‘ishlab yozilgan 41 baytli qasidasiga naziradir²²⁷.

Shoir nafaqat g‘azalchilikda o‘z ovoziga ega bo‘lgan, balki turkiy qasidachilikning ilk go‘zal va mukammal namunalarini yaratgan ijodkor sifatida ham mumtoz adabiyotimiz tarixida nom qoldirgan ijodkorlardandir. Uning qasidalari nafaqat adabiyot ilmida, balki tarix ilmida ham muhim o‘rin egallaydi,²²⁸ – degan olimaning qarashlarining asosli ekanligi yuqoridagi tahlillarda ko‘rinib turibdi.

Demak, Sakkokiy o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida qasidanavislik an’anasini yuqori cho‘qqlarga ko‘targan, adabiyotimiz tarixida o‘chmas iz qoldirib, o‘zbek mumtoz adabiyotining ravnaq topib, gullab-yashnashiga ma’lum hissa qo‘shgan buyuk shoirlardan biri. O‘zbek adabiyoti tarixini istiqlol mafkurasi asosida chuqr va har tomonlama o‘rganish uning poetik olamidagi xilma-xilliklarini yuzaga chiqarmoqda. Shu jihatdan mumtoz shoirlar, xususan, Sakkokiy asarlaridagi jamiyat va tabiat munosabatlarini o‘rganish, shoir tasviri sohasidagi mahoratlarini tadqiq etish nihoyatda muhimligi aniqlandi.

Obrazlar portretini, tashqi qiyofasini chizishda xolislik tamoyili yetakchilik qilganligini sezishimiz mumkin²²⁹, – degan olimning qarashlarini Sakkokiyning “Ulug‘bek Mirzo”ga bag‘ishlab yozilgan qasidalariga ham qo‘llash mumkin, deb o‘ylaymiz. Sakkokiy o‘z qasidalarida ta’riflanganidek, Ulug‘bek haqiqatdan, ehtiromga loyiq o‘z davrining ma’rifatparvar shaxs hisoblanadi.

²²⁵Gandjei T., “Not on an unknown poem of Haidar in Uighur charakters”, A Locust’s Leg, Studies in Honour of S. T. Taqizade, s. 64-69

²²⁶Ayşa Güл Sertkaya. Şayh-zade Abdurrazak bahshi hayatı va eserleri. Istanbul 1997.

²²⁷Jo‘rayev J. Haydar Xorazmiyning Mirzo Ulug‘bekka atab yozgan qasidasi. // Ilm sarchashmalari. 2023. – B. 72.

²²⁸Xasanova M. Ko‘rsatilgan dissertatsiya. – B. 88-89.

²²⁹Nasirov A. Odil Yoqubov romanlari poetikasi. Filol.fan. d-ri diss. avtoref. –Samarqand, 2018. –B.33.

Sakkokiy adabiy merosi va poetik mahorati haqida shunday xulosa qilish mumkin. O‘zining o‘tkir qalami bilan ma’naviy-axloqiy qadriyatlari, an’analari o‘zanidan chiqib ketmagan holda ijod qilgan Sakkokiy ijodida insonparvarlik, xalqparvarlik, visol umidi, hijron azoblari, go‘zallik ta’rifi, hayotga muhabbat, ijtimoiy fikrlar, ma’lum ma’noda siyosiy qarashlar qalamga olingan. Shu bois shoir ijodini o‘rganish, uning turli shakl va namunalaridan g‘oyaviy-estetik maqsadda foydalanish muhim tarbiyaviy natija beradi. Zotan, badiiy asar xalqning u yoki bu darajada g‘oyaviy maqsadi, orzu-istagi va kelajak to‘g‘risidagi hayotbaxsh ideali bilan sug‘orilgan bo‘ladi. Sakkokiy o‘z davridagi ilg‘or g‘oyalarni targ‘ib etgan mumtoz o‘zbek adabiyotining rivojiga o‘z hissasini qo‘shgan ijodkordir.

Bob bo‘yicha xulosalar

1. Sakkokiy badiiy mahorat jozibasini ta’minalash, she’riyatning xalq ruhi va qalbiga hamohang bo‘lishiga erishish, hayot bilan uzviy bog‘lanishini ta’minalash maqsadida an’anaviy obrazlardan poetik vosita sifatida faol foydalangan.
2. Mumtoz adabiyot vakillarining fikr va g‘oyani yorqinroq badiiy ifodalash uchun qo‘llagan obraz va tushunchalarni tahlil etish nafaqat shoirlarning go‘zal so‘z san’atkori ekanligini oydinlashtirish, balki muayyan davr adabiyotining yangi nafosat qirralarini yoritishga asos bo‘ladi.
3. Qasida elementlari o‘zbek mumtoz adabiyotida ancha ilgari paydo bo‘lgan bo‘lsa ham, lekin qasida maxsus adabiy janr sifatida o‘zbek adabiyotida XIV–XV asrda vujudga keldi va Sakkokiy o‘zbek qasidachiligining asoschilaridan biri bo‘ldi.
4. Qasida o‘tmish adabiyotning siyosiy lirkasidir, chunki ko‘pchilik qasidalar davlat arboblariga va siyosiy yoki harbiy voqealarga bag‘ishlab yozilgan. Qasida asta-sekin saroy aristokratik adabiyotining janrig‘a aylanib borgan. Tarixiy shaxslarga yoki voqealarga tendensioz munosabatda bo‘lish o‘tmish qasidanavislaring asosiy xususiyati bo‘lib qolgan. Ammo Sakkokiyning Ulug‘bekka bag‘ishlab yozgan qasidalari bundan mustasnodir. Sakkokiyning

Ulug‘bekka bag‘ishlab yozgan qasidalarida mubolag‘ali maqtovlargina emas, balki tarixiy haqiqat ham bo‘lib, bu tarixiy haqiqat yetakchi rol o‘ynagan.

5. Mavlono Sakkokiy ajoyib lirik she’rlar va betakror qasidalar ijod etgan hamda o‘zbek mumtoz adabiyotining ravnaq topib, gullab-yashnashiga ma’lum hissa qo‘sghan buyuk shoirlardan biri sifatida tarixda muhrlandi.

UMUMIY XULOSA

1. Turkiy tillar huquqlari tiklanmagan, turkiy tilda ijod qilishga da'vat qiluvchi farmonlar berilmagan, barcha fors-tojik tilida ijod etayotgan bir davrda Sakkokiyning turkiy tilda ijod qilishi, turkiy tilning go'zal va jozibador xususiyatlarini ijod namunalarida ko'rsata bilishi katta bir jasorat. Ijodkor she'riyati turkiy adabiyotning ildizi bo'lgan xalq og'zaki ijodidan oziqlangan. Turkona uslubning asosiy sifatlaridan biri bo'lmish xalqchillik tushunchasi shoir ijodida yangi mazmun va ruh kasb etganligi, o'z davri uchun zamonaviy, xalqchil qiyofada namoyon bo'lgan. Sakkokiy ijodida turkiy she'riyat an'analarining badiiy sintezi og'zaki ijod, ya'ni folklor bilan uyg'unlashganida yaqqol namoyon bo'lganligi dalillangan.

2. "Devon"idagi hamd va na't qasidalarida qo'llangan poetik vositalar, ifoda usullari, she'riy san'atlar shoirning badiiy mahorati va ijodining o'ziga xos qirralarini yorqin ko'rsatishga asos bo'ladi. Islomiy qadriyatlar yoritilgan hamd va na't qasidalari bilan Sakkokiy o'zbek falsafiy-didaktik she'riyatini boyitdi. Hamd va na't qasidalari mazmuniga singdirilgan fikrlar faqat o'tmisht uchun emas, balki hamma davrlar uchun ham tarbiyaviy va ta'limiy qimmatga egadir. Asar bugungi kunda ham insonlarning ma'naviy-ruhiy ehtiyojlariga mos keladi, ularning diniy-ma'rifiy jihatdan yuksalishlarida va jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashishda muhim ahamiyat kasb etishi isbotlangan.

3. Sakkokiy g'azallarining ko'pchiligi turkiy she'riyatda "ko'p va xo'b" qo'llangan ramal bahrinda yozilgan. Ramal bahrini hosil qilgan foilotun rukni xalq qo'shiqlariga xos ravonlik, o'ynoqilikni ta'min etgan. Shuningdek, devonidagi g'azallar turkiy she'riyatida ko'p qo'llangan sodda hazaj, rajaz bahrlarida ham yozilgan.

4. Shoir boy xalq og'zaki ijodini, xususan, salaflari asarlarini puxta o'rganganligi sababli g'azallarining tili va uslubi sodda. Ulardan ijodiy oziqlangani sababli so'z o'yiniga usta. Bu xususiyatlarni ta'minlagan asosiy omil ularning vazni. Mumtoz she'riyatda tez-tez ko'zga tashlanuvchi vasl, imola, iste'lof kabi

hodisalargina shoir g‘azallarida uchrashi aniqlangan va buni shoir g‘azallaridagi ohangdoshlik va o‘ynoqilikni ta’minlagan muhim omil ekanligi asoslangan.

5. Sakkokiy g‘azallar yaratishda uning boy ichki imkoniyatlaridan samarali foydalana olgan. She’riy asarlarining yana bir o‘ziga xos bo‘lgan xususiyati turkiy tilda bitgan g‘azallariga shiru shakar san’ati kabi fors-tojik, arab so‘zlaridan o‘rinli foydalangan. Shoir lirkasida inson muhabbat, orzu-tilaklarini, dard-alamlarini, tabiat go‘zalliklarini xalqqa yaqin holatda badiiy bo‘yoqlarda, xalq qo‘shiqlari ohangiga yaqin yo‘lda, sodda ifodalay olinganligi g‘azallari tahlili misolida dalillangan.

6. Obrazlar tizimida majoziy tasvir ijodkorning olamni idrok etish tarzi, poetik fikrlash jarayonida tabiiy holda yuzaga chiqqan. Shoir g‘azallarida ma’no va shakl birligini saqlab, so‘z o‘yinlari, qochirim, xalqona ibora, ifoda, maqol, hikmatli so‘zlardan unumli foydalanganligi aniqlangan.

7. Shoir ijodida badiiy san’atlar, vosita va usullar lirikaning tabiatiga xos bo‘lgan ixchamlikni ta’minlashda, fikrni obrazli bayon etishda, eng muhimmi kitobxonga estetik zavq bag‘ishlashda muhim ahamiyat kasb etishi dalillangan.

8. Sakkokiy lirkasida fikr va g‘oyani yorqinroq badiiy ifodalash uchun qo‘llangan obraz va tushunchalarni tahlil etish, shoirning go‘zal so‘z san’atkori ekanligini oydinlashtirish, balki muayyan davr adabiyotining yangi nafosat qirralarini yoritishga asos bo‘lishi isbotlangan.

9. XIV-XV asrda vujudga kelgan o‘zbek qasidachiligi Sakkokiy nomi bilan bog‘liq. Qasida o‘tmish adabiyotining siyosiy lirkasi sifatida davlat arboblariga, siyosiy yoki harbiy voqealarga bag‘ishlab yozilgan va asta-sekin saroy aristokratik adabiyotining janriga aylangan. Ammo Sakkokiyning Ulug‘bekka bag‘ishlab yozgan qasidalarini bundan mustasnadir. Sakkokiyning Ulug‘bekka bag‘ishlab yozgan qasidalarida mubolag‘ali maqtovlargina emas, balki tarixiy haqiqat ham bo‘lib, bu tarixiy haqiqat yetakchi rol o‘ynagani aniqlangan.

10. Shoir qasidalar keyingi davrlarda Ulug‘bek siymosiga bag‘ishlangan asarlar yaratilishiga ijodiy bir manba va an’ana bo‘lib xizmat qilganligi aniqlangan va shoirning yetuk poetik mahoratga egaligi o‘zbek mumtoz adabiyotining ravnaq

topib, gullab-yashnashiga ma'lum hissa qo'shgan buyuk shoir ekanligi isbotlangan. Shoirning an'anaviy g'azal va qasidalari ham shakl, ham mazmun jihatdan yangilaganligi bois katta adabiy-estetik qimmatga egaligi asoslangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Normativ-huquqiy hujatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san’at, madaniyatning rivojlanishi – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevori // Xalq so‘zi. – 2017. 4-avgust.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 24- maydagi PQ-2993-sonli “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori // Xalq so‘zi, 2017-yil 25-may.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzARB masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan tabrige // Xalq so‘zi. 2018-yil, 8-avgust

II. Ilmiy–nazariy adabiyotlar

1. Milliy nashrlar

4. Abdullayev I. Meros va talqin. –T.: Fan, 2008. – 364 b.
5. Adabiy meros. Manba va tadqiqotlar. – №3. – T.: Fan, 1973. – 313 b.
6. Adabiyot nazariyasi. T.1. – T.: Fan, 1978. – 416 b.
7. Adabiyot nazariyasi. T.2. – T.: Fan.1979. – 444 b.
8. Adabiyot: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinf uchun darslik. / S.Ahmedov, B.Qosimov, R. Qo‘chqorov, Sh.Rizayev. – T.: Sharq, 2020. – 272 b.
9. Adabiyot 6-sinf uchun darslik / Z.Mirzayeva, K.Djalilov. – T.: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 224 b.
10. Adabiyot 7-sinf uchun darslik / Z.Mirzayeva, K.Djalilov. – T.: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 224 b.
11. Adabiyot 8- sindf uchun darslik / S.Olimov, S.Ahmedov, R.Qo‘chqorov. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. – 352 b.

12. Adabiyot: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. / Q.Yo‘ldoshev, V. Qodirov, J. Yo‘ldoshbekov. Qayta ishlangan 4-nashri. —T.: «O‘zbekiston» NMIU, 2019. – 368 b.
13. Adabiyot. 10-sinf uchun darslik / Z. I. Mirzayeva, K. Q. Djalilov. – T: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 224 b
14. Adabiyot. 11-sinf: darslik-majmua / B. To‘xliyev [va boshq.], – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – 200 b.
15. Ahmad Xudoydod Taroziy. Funun ul-balogs‘a. – T.: Xazina, 1996. – 212 b.
16. Ajdodlarimizning qo‘lyozma merosini to‘plash, ilmiy o‘rganish va nashr etish muammolari / Ma’sul muharrir: N.Jabborov. – T., 2001. – 68 b.
17. Asrlar nidosi. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1982. – 320 b.
18. Atoulloh Husayniy. Badoye’ us-sanoe’. (Forschadan A.Rustamov tarj.). – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1981. – 398 b
19. Ayyomiy. O‘t chaqnagan satrlar. –T.: Adabiyot va san’at, 1983. –182 b
20. Boboyev T. She’r ilmi ta’limi. – T.: O‘qituvchi, 1996. – 334 b.
21. Fitrat A. Tanlangan asarlar 4 jildlik. 4-jild.–T.: Ma’naviyat, 2000. –206 b
22. Hamdamov U. Badiiy tafakkur tadriji. – T.: Yangi asr avlodi, 2002. – 200 b
23. Hasanov B. Navoiy asarlari uchun qisqacha lug‘at.; S.Hasanov, M.Rustamov va boshqalar. Savodxonlar lug‘ati. – T, 1992. – 166 b.
24. Hayitmetov A. Adabiy merosimiz ufqlari. – T.: O‘qituvchi, 1997. – 240 b.
25. Hayitmetov A. Sharq adabiyotining ijodiy metodi tarixidan.–T.: Fan, 1970. – 331 b.
26. Hayitmetov A. She’riy san’atlar va mumtoz qofiya. – T., 1998. – 158 b.
27. Hayitmetov A. Temuriylar davri o‘zbek adabiyoti (tadqiqotlar, maqolalar, lavhalar) – T.: Fan. 1996. – 121 b.
28. Hayitmetov. A. Navoiy lirikasi. – T.: Fan, 1961– 95 b.
29. Haqqul I. Mushohada yog‘dusi. II. – T.: Tafakkur, 2019.– 254 b.
30. Hojiahmedov A. Husni ta’lil san’ati. – T: Fan, 2006. – 288 b.
31. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat lug‘ati. –T.: Yangi asr avlodi, 2008. – 193 b.
32. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. – T.: Sharq, 1999. – 240 b.

33. Hojiahmedov A. She'r san'atlarini bilasizmi? – T., 1999. – 62 b.
34. Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya.– T.: Sharq, 1998. –158 b.
35. Imom G‘azzoliy. “Qiyomat va oxirat”. Tarjimon: Otabek G‘aybulloh o‘g‘li. –T.: Movarounnahr, 2004. – 151 b.
36. Is’hoqov Y. Navoiy poetikasi. – T.: Fan, 1983 – 168 b.
37. Is’hoqov Y. So‘z san’ati so‘zligi. – T.: O‘zbekiston, 2014. – 320 b.
38. Jabborov N. Zamon. Mezon. She’riyat.– T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2015.– 304 b.
39. Jalilov B. Diniy-ma’rifiy mavzularning badiiy adabiyotdagi talqini. – Andijon: Andijon davlat universiteti, 2010. – 108 b.
40. Jo‘rayev O. Mahmud Zamashariy. – T.: Tafakkur, 2011. – 96 b.
41. Karimova F. O‘zbek adabiyotida debocha. –T.: MUMTOZ SO‘Z, 2008.–168 b.
42. Karomatov H. Qur’on va o‘zbek adabiyoti. – T.: Fan, 1993. – 62 b.
43. Komilov N. Ma’nolar olamiga safar. – T.: Tamaddun, 2012. – 316 b.
44. Komilov N. Tasavvuf. – T.: Movaraunnahr-O‘zbekiston, 2009. – 448 b.
45. Mamajonov S. Ranglar va ohanglar. –T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1978. –238 b.
46. Mamadaliyeva Z. Lison ut-tayr obrazlari: ramz va majoz olami. – T.: Qaqnus Media, 2019. – 224 b.
47. Mallayev N. O‘zbek adabiyotida g‘azal va uning rivojida Navoiyning roli haqida // O‘zbek adabiyotshunosligi mumtoz antologiyasi. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – 2016. – 552 b.
48. Mallayev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, 2015. – 432 b.
49. Mallayev N. O‘zbek adabiyoti tarixi. – T.: O‘qituvchi, 1976. – 643 b.
50. Mallayev N. So‘z san’atining gultoji. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1991.– 152 b.
51. Muhiddinov M. Q. Komil inson-adabiyot ideali. –T.: Ma’naviyat, 2005. –208 b
52. Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. 13 jild. Majolis un-nafois. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. – T.: Fan, 1997. – 302 b.

53. Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami. Muhokamat ul-lug‘atayn. 20 jildlik, 16-jild. –T.: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, 2000. – 329 b.
54. Navoiy A. To‘la asarlar to‘plami. 10 tomlik. 8-jild. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2011.– 154 b.
55. Navoiyning nigohi tushgan. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1986. – 400 b.
56. Nosirov O. O‘zbek adabiyotida g‘azal. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1972. – 134 b.
57. Orzibekov R. O‘zbek lirik poeziyasida g‘azal va musammat. – T.: Fan, 1976. – 119 b.
58. Oripov A. Munojot. – T., 1992. – 429 b.
59. Qobilov U. Ilohiyat va badiiyat. – T.: Nihol, 2008. – 144 b
60. Qosimov U. Adabiy-estetik tafakkur: A.Navoiy, A.Qodiriy, A.Qahhor, T.Murod. – T.: Book Trade, 2023. – 180 b.
61. Rajabov D. Badiiy obraz va ritm tabiat. – Buxoro, 2002. – 102 b.
62. Rafiddinov S. Majoz va haqiqat. – T.: Fan, 1995. – 154 b.
63. Rahmonov N. O‘zbek adabiyoti tarixi (Eng qadimgi davrlardan XV asrning birinchi yarmigacha). O‘quv qo‘llanma. – T.: Sano-standart, 2017. – 556 b.
64. Rahmon V. Mumtoz so‘z sehri. – T.: O‘zbekiston, 2015. – 240 b.
65. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – T., 2004.– 128 b.
66. Sayfuddin Sayfulloh Odilxon qori Yunusxon hoji o‘g‘li. Sog‘lom e’tiqod – mo‘minga najot. – T.: Sharq, 2014. – 225 b.
67. Soatova N. An’anaviylik va vorislik. – T.: Mumtoz so‘z, 2019. – 140 b.
68. Sulton I. Navoiyning qalb daftari. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2010. – 416 b.
69. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – T.: O‘qituvchi, 1980. – 272 b.
70. Valixo‘jayev B. O‘zbek adabiyotshunosligi tarixi. – T.: O‘zbekiston, 1993. – 191 b.
71. Vohidov E. Yaxshidir achchiq haqiqat. – T.. 1992. – 96 b.
72. Vohidov E. O‘zbegim. – T.: Sharq, 2005. – 128 b.

73. Vohidov R, H. Eshonqulov. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi (Eng qadimgi davrlardan XVI asr oxirgacha). – T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi, 2006. – 528 b.
74. Xondamir G‘. Makorim ul-axloq. –T.: Badiiy Adabiyot nashriyoti, 1967. – 187 b.
75. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. – T., 2000. – 1054 b.
76. G‘afforova Z. Navoiyning hamd va na’t g‘azallari. – T.: Ma’naviyat, 2001.
77. G‘afurov I. She’r – qalb tarixi / Jabborov J. Saylanma. Ikki jildlik. – T., 1980. I jild. – B. 304 b.
78. G‘iyos ul-lug‘ot. 1-jild. Dushanbe, 1987. (Ghiyyas-ul-lughat. Volume 1. Monday, 1987) – 144 b.
79. Sharq mumtoz poetikasi: Manba va talqinlar. K. I / Nashrga tayyorlovchi, talqin va sharhlar muallifi H. Boltaboyev. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – 430 b.
80. Shomuhamedov Sh. Sa’diy Sherazi. – T.: Fan, 1964. – 69 b.
81. Shukurov N., Hotamov N. va boshqalar. Adabiyoshunoslikka kirish. –T.: O‘qituvchi, 1979. – 129 b.

2. Xorijiy nashrlar

82. Бертельс Е.Э. Избранные труды. История персидско-таджикской литературы. – М.: ИВЛ, 1960– 455 с.
83. Бертельс Е.Э. Избранные труды. Суфизм и суфийская литература. – М.: Наука, 1965. – 527 с.
84. Бертельс Е.Э. Литература народов Средней Азии. // Новый мир. Jurnal, 1939. - С. 279-280
85. Брагинский И.С. Из истории персидско-таджикской литературы. Избранные работы. – М.: Изд. Наука, 1972. – 169 с.
86. Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – М.: Высшая школа, 1989. – 406 с.

87. Восточная поэтика. Специфика художественного образа. Под редакции П.А. Гринсера. – М.: Наука, 1983. – 263 с.
88. Горький М. О литературе. Литературно-критические статьи. Советский писатель. – М., 1953. – с.
89. Литературная энциклопедия терминов и понятий // под ред. А.Н.Николюкина. институт научной информации по общественным наукам РАН. –М.: НПК “Интелвак”, 2003. –
90. Catalogue of the Turkish Manuscripts in the British Museum by Charlas Rien, Ph. D. London, 1888. 284
91. Mevlana Sekkaki Divani. Hazirlayan K.Eraslan. – Ankara, 1999 – 87 b.
92. Рустамов Э. Узбекская поэзия в первой половине XV века. – М.: Изд. Восточной литературы, 1963. – 145 с.
93. Собрание восточных рукописей Академии наук Республики Узбекистан. Литература (диваны). / Подготовка к изданию: к.и.н. Х.М. Лутфиллаев, к.филол.н. С.Н. Файзиева и О.Р. Мадалиева. Т. И. – Т.: Навруз, 2017. – 119 с.

III. Diniy manbalar, adabiyotlar

94. Qur’oni karim. O’zbekcha izohli tarjima (Alouddin Mansur tarjiması). – Bishkek, 2001. – 768 b.

IV. Qo‘lyozma va toshbosma manbalar

95. Navayi A. Hutbe-i devanin. Parij Milliy kutubxonasida saqlanuvchi qo‘lyozma nusxasi, 3 b; // Navoiyning nigohi tushgan. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1986-yil, – 168 b.
96. Sakkokiy devoni. O‘zSSR Fanlar akademiyasi. Sharqshunoslik instituti. Qo‘lyozmalar fondida. Inv. 7685., – 508 b.

V. Lug‘atlar

97. Большой арабско-русский словарь: В 2 т. – 11-е изд., стереотип. – М.: Живой язык, 2006. – 456 с.
98. Большой арабско-русский словарь: В 2 т. – 11-е изд., стереотип. – М.: Живой язык, 2006. – 480 с.

99. Фарҳанги забони тоҷикӣ. Ҷилди 1. – М., 1969. – 1902 с.
100. Muhammad G‘iyosiddin. G‘iyos ul-lug‘at. Jildi 1. – Dushanbe: Adib, 1987. – 283 b.
101. Muhammad G‘iyosiddin. G‘iyos ul-lug‘at. Jildi 2. –Dushanbe: Adib, 1988, – 283 b.
102. Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. 1-tom. –T.: O‘zbekiston SSR Fan nashriyoti, 1983. – 656 b.
103. Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. 2-tom. –T.: O‘zbekiston SSR Fan nashriyoti, 1983. – 644 b.
104. Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. 3-tom. –T.: O‘zbekiston SSR Fan nashriyoti, 1983. – 624 b.
105. Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. 4-tom. –T.: O‘zbekiston SSR Fan nashriyoti, 1983. – 636 b.
106. Shamsiyev P., Ibrohimov S. –T.: O‘zbek tilining izohli lug‘ati. I, II jild, 1972., 1981. – 211 b.

VI. Badiiy adabiyotlar

107. Atoyi. Devon. – T.: Fan, 2008. – 320 b.
108. Hayot vasfi. Sakkokiy. G‘azallar, qasida – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1988. – 98 b.
109. Lutfiy. Sensan sevarim. – T.: Adabiyot va san’at, 1987. – 464 b.
110. Mavlono Sakkokiy devoni. Nashrga tayyorlovchilar M.Hasanova, H.Sheraliyev. – T.: MUMTOZ SO‘Z, 2017. – 140 b.
111. Mavlono Sakkokiy: devon / nashrga tayyorlovchilar: J.Jo‘rayev, J.Jo‘rayev, O‘. Xatamov. – Toshkent: “Bookmany print” nashriyoti, 2024. – 84 b.
112. Sakkokiy. Tanlangan asarlar. Nashrga tayyorlovchi Munirov Q., –T.: O‘zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1958. – 84 b.
113. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashr., 1971. – 113 b.

VII. Dissertatsiya va avtoreferatlar

114. Bekova N. Alisher Navoiyning hamd g‘azallari va “Ruh ul-quds” qasidasining badiiyati. Filol.fan.nomz.diss. – T., 2003. – 54 b.
115. Bobokalonov S. Xoja Ismat va turkiygo‘y zamondoshlari she’riyatining janrlari, uslubi va badiiyati. Filol.fan.nomz.diss. – Buxoro.: 2012. – 156 b.
116. Eshonqulov H.P. Alisher Navoiy g‘azaliyotida ishq poetikasining qiyosiytipologik tahlili (“Xazoyin ul-maoni” misolida): Filol.fan. d-ri diss.– Samarqand, 2020. – 270 b.
117. Fayzulloev B. O‘zbek she’riyatida tatabbu’ tarixi va mahorat masalalari. (XVIII-XIX asrlar va XX asr boshlari g‘azalchiligi asosida). Filol.fan.b.fals.dokt. ...diss. – T., 2002. – 161 b. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс.автореф.
118. Haqqulov I. O‘zbek tasavvuf she’riyatining shakllanishi va taraqqiyoti. Filol.fan. d-ri diss. avtoref. –T., 1995. – 52 b
119. Keldiyorova G. O‘zbek badiiy nutqida antiteza. Filol.fan.nomz.diss. – T., 2000. – 47 b.
120. Mamajonov Z. O‘xshatish asosidagi she’riy san’atlarning nazariy tavsifi va tasnifi. Filol.fan.b.fals.dokt. ...diss.avtoref. – T., 2017. – 48 b
121. Mamatqulov M. Qadimgi turkiy adabiyotda janrlar poetikasi (moniylik she’rlari va “Devonu lug‘otit turk” asosida). Filol.fan.nomz.diss. – T., 2004. – 48 b
122. Mirxaydarov X. O‘zbek poeziyasida qofiya va individual uslub masalasi. Filol.fan.nomz.diss. – T., 1972. – 198 b.
123. Nasirov A. Odil Yoqubov romanlari poetikasi. Filol.fan. d-ri diss. avtoref. – Samarqand, 2018. – 64 b.
124. Nosirov O. O‘zbek klassik adabiyotida g‘azal janrining shakllanishi va takomili. Filol.fan.nomz.diss. – T:, 1968. – 52 b.
125. Qobilov U.U. Masih timsolining o‘zbek mumtoz adabiyotidagi badiiy talqini (XII-XV asrlar). Filol.fan.nomz.diss. – SamDU, 2001. – 144 b.
126. Qosimov U. Adabiy-estetik tafakkur tadriji: an’ana, vorisiylik, o‘ziga xoslik. Filol.fan. d-ri diss. avtoref. – T., 2020. – B. – 82 b.
127. Xasanova M. XV asr turkiy she’riyatida qasida janri. Filol.fan.b.fals.dokt.

...diss.avtoref. – Samarqand, 2018. – 49 b.

128. Xasanova M. XV asr turkiy she’riyatida qasida janri. Filol.fan.b.fals.dokt. ...diss.– Samarqand, 2018. – 150 b.

129. Xo‘jayev T. XV asr birinchi yarmi o‘zbek adabiyoti va folklor. Filol.fan.nomz.diss. –T., 1996. – 48 b.

130. G‘afforova Z. Alisher Navoiy hamd va na’t g‘azallarining g‘oyaviy-badiiy tahlili. Filol.fan.b.fals.dokt. ...diss. avtoref. – Samarqand, 2018. – 48 b

VIII. Ilmiy to‘plam, jurnal va gazetalardagi maqolalar

131. Ahmadxo‘jayev E. Sakkokiy qasidalari. Adabiy merosi, 1992. №4 (62).–B. 16-23.

132. Anisiy A. Sharq adabiyotida qasida va Badri Chochiy // O‘zbek tili va adabiyoti, – 1970, №.4.–B. 22-25.

133. Ergasho‘jayev M. Sakkokiy va uning devoni haqida. // O‘zbek tili va adabiyoti, O‘zbekiston Respublikasi FA “Fan” nashriyoti, 2005 №8. –B.87-88.

134. Hayitmetov A, Umarov E. Shayx Ahmad Taroziy. “Funun ul-balogs‘a” / O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 1994-yil, 18-mart.

135. Hayitmetov A. “Xamsa”da islom nuri // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 1996-yil 26-aprel.

136. Jo‘rayev J. Haydar Xorazmiyning Mirzo Ulug‘bekka atab yozgan qasidasi, // Ilm sarchashmalari, 2023. – B. 70-75.

137. Mallayev N. An’anaviy muqaddimot haqida // O‘zbek tili va adabiyoti. – T., 1971. 1-son. –B.58-61.

138. Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. Funun ul-balogs‘a // O‘zbek tili va adabiyoti, 2002, № 6.

139. Xasanova M. Mavlono Sakkokiy qasidalari //SamDU ilmiy tadqiqotlar axborotnomasi. – Samarqand, 2010. № 6. –B. 66-69.

140. Xasanova M. Sakkokiy (Sayroniymi, Sabroniy?) // Sharq yulduzi. – T., 2011. №6.–B.163-166.

141. Xasanova M. Sakkokiy qasidalarining “nasib” qismida ma’shuqa timsoli // Sharq ayoli: kecha va bugun. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – T., 2013. –B. 364.
142. Xasanova M. Мавляна Саккаки Саброни на развитие касыдного жанра в тюркской поэзии // Science and practice: a new level of integration in the modern world. Conferens proceeding. – Berlin. 27.04.2018.–B.254
143. Hamroyeva O. Turkiy manbalarda mumtoz qofiyaning nazariy asoslari // https://tsuull.uz/sites/default/files/konferenciya_navoiy_va_gyote_26.06.2023-382-390_0.pdf
144. G‘aniyeva S. “Mavlono Sakkokiy devonining Anqara nashri xususida”. // O‘zbek filologiyasida matnshunoslik va manbashunoslik muammolari. – Namangan, 2016.–B.9-11.

Internet saytlari

145. <https://islam-today.ru/istoria/kak-nacinalas-istoria-celovecestva/>
146. <https://www.musulmonlar.com/sidratul-munta-o-nima/>
147. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Alliteratsiya>
148. Aslonova H. XV asr birinchi yarimidagi o‘zbek she’riyati va Gadoiy poetikasi. file:///C:/Users/Admin/Downloads/10.pdf